

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta
maxsus ta'lim vazirligi**

H. Vaxobov, G'.Pardaev, S. Abdunazarov

O'lkashunoslik

Toshkent-2007

MUNDARIJA.

KIRISH.

I. Q i s m.

O'lkashunoslik ob'ektlari. Tabiatni o'lkashunoslik maqsadlarida o'rganish.....	5
1. Geografik o'lkashunoslik, uning mazmuni va moxiyati.....	5
2. O'lkashunoslik sayoxatlarida bajariladigan topografik ishlar.....	7
3. Masofani o'lchash, masshtab, masofani chizmada tasvirlash.....	15
4. Joyning surati, rejasi, rejalash usullari.....	17
5. Joyning geologik tuzilishi, foydali qazilmalari va relefini o'lkashunoslik maqsadlarida o'rganish.....	24
6. O'lka iqlimini o'rganish.....	29
7. Ob-havoni o'rganish.....	30
8. Ob-havoni oldindan aytib berish.....	39
9. O'lkani gidrologik sharoitini o'rganish.....	41
10. O'lka tuprog'i, o'simligi va hayvonot dunyosini o'rganish.....	46
11. Fenologik kuzatishlar.....	48
12. O'lka tabiatini muxofaza qilishni o'rganish.....	51
13. O'lka tabiiy resurslarini o'rganish.....	52
14. O'lka axolisini o'rganish.....	55
15. O'lka shaxar va qishloqlarini o'rganish.....	57
16. O'lka xo'jaligini o'rganish.....	59
17. Ishlab chiqarish korxonalarini o'rganish.....	61
18. Transport korxonalarini o'rganish.....	62
19. O'lka tarixi o'lkashunoslik ob'ekti sifatida.....	64
20. Tarixiy va madaniy yodgorliklarni o'rganish.....	66

21. Arxeologik tadqiqotlar o'tkazish.....	69
22. San'at o'lkashunosligi.....	75
23. Xalq san'atini o'rganish.....	77
24. Adabiy o'lkashunoslik.....	79
25. Tasviriy san'atni o'rganish.....	80
26. Arxitektura yodgorliklarini o'rganish.....	82
27. Mashxur kishilar yashagan joylarni o'rganish.....	83
II. Q i s m.	
O'lkashunoslik manbaalari.	
28. O'lka bibliografiyasi.....	85
29. Bibliografik ko'rsatkichlar va kutubxona kataloglari bilan ishlash.....	89
30. Nashriy manbaalar.....	91
31. Statistik manbaalar.....	92
32. Kartografik manbaalar.....	93
33. Arxiv va qadimgi yozma manbaalar.....	95
34. Og'zaki manbaalar.....	96
35. Tarixiy va madaniy yodgorliklar o'lkashunoslik manbai sifatida.....	98
36. Tabiat va xo'jalik ob'ektlari xamda jarayonlarini kuzatish natijalari o'lkashunoslik ob'ektlari sifatida.....	100
37. O'lkashunoslik muzeyini tashkil qilish.....	101
38. Adabiyotlar ro'yxati.....	104

KIRISH

O'lkashunoslik o'z tug'ilgan va yashaydigan joyi qahidagi bilimlar majmuasi bo'lib, juda uzoq davrlar mobaynida vujudga kelgan.

Ibtidoiy odamlar ham o'z yashash joylari tabiatini juda yaxshi bilishgan, ular o'zlarining eng sodda bilimlarini toshlarga chizib ketishgan. Bunday rasmlarning anchagina qismi hozirgacha saqlanib qolgan.

Insoniyat jamiyatining rivojlanishi bilan o'lka to'g'risidagi ma'lumotlar ham to'plana boshladi. Natijada yozma yodgorliklar va manbaalar vujudga kela boshladi. Antik davrda va o'rta asrlarda turli xil o'lkalarni tabiati, xo'jaligi, tarixi va madaniyatiga bag'ishlangan asarlar vujudga keldi. O'lkamiz haqidagi ma'lumotlar Al-Xorazmiyning «Kitob – Surat – al - Arz» asarida keltirilgan.

Buyuk vatandoshimiz Abu Rayhon Al-Beruniy XI-asrda «Hindiston» «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» Zaxriddin Muxammad Boburning «Boburnoma» asari o'lkashunoslikka qo'shilgan ulkan xissasi hisoblanadi.

Fan va texnikaning rivojlanishi bilan o'lkashunoslik fanining doirasi toraya va chuqurlashaverdi. XX-asrga kelib o'lkashunoslik deganda o'z turar joyi, xo'jaligi, tarixi va madaniyati tushunila boshlandi. Natijada alohida viloyatlar, tumanlar va shaharlarga bag'ishlangan o'lkashunoslik asarlari vujudga keldi. Masalan «Xonobod», «Andijon viloyati», «Samarqand viloyati», «Xorazm geografiyasi» va x.z.

O'zbekistonning xar bir viloyatining tabiiy va iqtisodiy xaritalari nashr qilindi. Xozirgi paytda xar bir viloyatning geografik va o'lkashunoslik atlaslarini yaratish loyixalari tuzilmoqda.

O'lkashunoslikning ob'ekti bo'lib tabiat, axoli, xo'jalik, tarix, san'at va madaniyat hisoblanadi. Mazkur ob'ektlar turli fanlar tomonidan o'rganiladi. Ammo barcha fanlarning o'rganish predmeti bittadir, ya'ni o'lka. «O'lka» shartli tushuncha bo'lib, uning miqiyosi kim va qanday maqsadda o'rganishiga bog'liq. Masalan maktab, akademik litsey yoki kasb–xunar kollejlari uchun maktab atrofi, maxala, qishloq, tuman, shaxar bo'lishi mumkin.

O'lkashunoslikning quyidagi tarmoqlari mavjud: tabiiy yoki geografik o'lkashunoslik, iqtisodiy o'lkashunoslik, tarixiy, etnografik o'lkashunoslik, madaniy va san'at o'lkashunosligi.

Tabiiy yoki geografik o'lkashunoslik o'lka tabiatini, ya'ni o'lkaning geologik tuzilishi, foydali qazilmalari, reliefi, iqlimi, ichki suvlari, tuprog'i, o'simligi va xayvonot dunyosi xamda landshaftlarini o'rganadi.

Iqtisodiy geografiya va iqtisodiy o'lkashunoslik o'lka axolisini, shaxar va qishloqlarini, ishlab chiqarish korxonalarini, transport tizimini va tashqi iqtisodiy aloqalarini o'rganadi.

Tarixiy o'lkashunoslikning maqsadi o'lka tarixini, tarixiy voqealarni, arxeologik yodgorliklarni, tarixiy yodgorliklarni o'rganishdir.

San'atshunoslik o'lkashunosligining maqsadi o'lkaning xalq ijodini o'rganishdir, ya'ni muxim axamiyatga ega bo'lgan san'at asarlarini, tarixiy joylarni (mashxur kishilarni ijodi va xayoti bilan bog'liq bo'lgan) o'rganishdir.

I.Qism. O'lkashunoslik ob'ektlari

Tabiatni o'lkashunoslik maqsadlarida o'rganish.

1 . Geografik o'lkashunoslik, uning mazmuni va mohiyati.

Geografik o'lkashunoslik o'lkani tabiati va xo'jaligini o'rganish bilan bog'liq. Geografik o'lkashunoslik o'quvchilarga va talabalarga o'z o'lkasini o'rganishga va bilishga imkon yaratadi xamda fanlarni yaxshi o'zlashtirishga yordam beradi, tabiiy, tarixiy va madaniy yodgorliklarga xamda tabiiy boyliklarga extiyotlik bilan munosabatda bo'lish ruxida tarbiyalaydi.

Geografik o'lkashunoslik ikkita yirik tarmoqdan iborat: tabiiy geografik yoki tabiiy o'lkashunoslik; iqtisodiy geografik yoki iqtisodiy o'lkashunoslik.

Tabiiy o'lkashunoslik ekologiya va tabiatni muxofaza qilishni zamonaviy muammolarini global, milliy, mintaqaviy va maxalliy jixatlarini o'rganishni ta'minlaydi.

Atrofdagi landshaftlar bilan yaqindan tanishish, tabiat qonunlarini o'rganish o'quvchilarda ilmiy ishlarga qiziqishni rivojlantiradi va kelajakda etuk mutaxassis yoki olim bo'lib etishish uchun zamin tayyorlaydi.

Tabiatning tarkiblarini qonuniy uyg'unligi er yuzasida turli o'lchamlarga ega bo'lgan tabiiy xududiy komplekslarni keltirib chiqaradi. Eng yirik tabiiy xududiy kompleks bo'lib geografik qobiq xisoblanadi. Geografik qobiq turli kattalikdagi tabiiy xududiy komplekslarga bo'linib ketadi (materiklar va okeanlar, tabiiy geografik o'lkalar va provintsiyalar, zonalar va x.k).

O'lkashunoslik ishlari odatda bitta landshaft doirasida olib boriladi. Geografik landshaft deganda aniq tabiiy chegaraga, bir xil geologik, geomorfologik asosga, bir xil gidrotermik sharoitga, tuproq va o'simlik qoplamiga ega bo'lgan xudud tushuniladi.

Geografik landshaftning o'lkashunoslik maqsadlarida o'rganilishi quyidagi tartibda olib boriladi:

1. Topografik ishlar
2. O'lka geologik tuzilishini, reliefi va foydali qazilmalarini o'rganish.
3. O'lka iqlimini o'rganish
4. Ichki suvlarini o'rganish
5. Tuproq qoplamini o'rganish
6. O'simlik qoplamini o'rganish
7. Hayvonot dunyosini o'rganish
8. Landshaftlarini o'rganish

Yuqoridagi tabiiy geografik tavsiflar tabiatni o'lkashunoslik maqsadlarida o'rganishni asosiy yo'nalishlarini tashkil qiladi.

Iqtisodiy geografik yoki iqtisodiy o'lkashunoslik o'lkani axolisini va xo'jaligini o'lkashunoslik maqsadlarida o'rganadi, ya'ni iqtisodiy o'lkashunoslik o'lkaning hozirgi iqtisodiy – ijtimoiy xayotini o'rganadi.

Iqtisodiy o'lkashunoslikning ob'ektlari bo'lib o'lka axolisi xo'jaligi, shaxarlari, qishloqlari, alohida sanoat korxonalarini (fabrikalari, fermer xo'jaliklari, ilmiy va madaniy tashkilotlar, dam olish korxonalarini, ta'lim muassasalari va x. k).

Jamiatning ijtimoiy – iqtisodiy hayotining barcha tarmoqlari bir-biri bilan chambarchas bog'langan. Shuning uchun o'lka axolisini va xo'jaligini o'rganganda kompleks yondoshish zarur. Kompleks yondoshish o'lka ijtimoiy-iqtisodiy tizimidagi ichki va tashqi aloqalarni ochib berishga imkon beradi.

O'lka axolisi va xo'jaligi quyidagi tartibda o'rganiladi.

1. O'lkaning geografik joylashuvi
2. O'lka axolisi
3. O'lka tabiiy boyliklari
4. O'lka xo'jaligining rivojlanish tarixi
5. O'lka sanoatining asosiy tarmoqlari
6. O'lka qishloq xo'jaligi
7. O'lka transporti
8. O'lkaning tashqi iqtisodiy aloqalari.

O'lka axolisi va xo'jaligi haqidagi statistik ma'lumotlar tuman yoki viloyat statistika boshqarmasidan, statistik to'plamlardan, iqtisodiy va iqtisodiy geografik maqolalar, to'plamlar, monografiyalar, risolalar va boshqa nashriy manbalardan olinadi.

Savol va topshiriqlar

1. Geografik o'lkashunoslik nimanini o'rganadi?
2. Geografik o'lkashunoslik qanday tarmoqlardan iborat?
3. Geografik landshaftlarni o'lkashunoslik maqsadlarida o'rganish qanday tartibda olib boriladi?
4. Iqtisodiy o'lkashunoslik nimanini o'rganadi?
5. Iqtisodiy ob'ektlar o'lkashunoslik maqsadlarida qanday tartibda o'rganiladi?
6. Tabiiy va iqtisodiy o'lkashunoslik orasida bog'liqlikni aniqlang.

2. O'lkashunoslik sayoxatlarida bajariladigan topografik ishlar.

O'lkani o'rganishni asosiy usullaridan biri o'lka tabiatini bevosita turistik sayoxat yoki o'lkashunoslik maqsadlarida olib boriladigan ekspeditsiyalarda tadqiq qilishdir.


O'lka tabiatini o'rganishda dastlab quyidagi ishlar bajariladi: joy xaritasi o'rganiladi; kompos yordamida azimut bo'yicha yurish o'rganiladi; osmon jismlariga qarab joy tomonlari aniqlanadi; xarita bilan ishlanadi; rejada maydon va uzunlik o'rganiladi; joyda nuqta va yo'nalishdar belgilanadi; topografik plan olish amalga oshiriladi; ko'z bilan chamalab masofa aniqlanadi.

Joy xaritasi bilan ishlash. Xarita o'lkani o'rganadiganlar uchun asosiy ish quroli, yo'l boshlovchi va kerakli ma'lumotlar manbai bo'lib hisoblanadi. Ammo xarita bilan ishlashda kartografik qoidalarni bilish lozim bo'ladi.

Xarita – bu er yuzasini kichraytirilgan va umumlashtirilgan yassi tasviridir. Xaritada joydagi ob'ektlar shartli belgilar bilan tasvirlanadi.

Xaritalarning juda ko'p turlari mavjud, ammo o'lkashunos uchun eng aniq va doimo ishlatiladigan xarita topografik xaritalardir. Umumgeografik va ma'muriy xaritalardan ham o'lkashunoslar ko' foydalanishadi, ammo ular tabiiy ob'ektlar va aholi manzilgohlari haqida umumiy tasavvur beradi, hamda katta maydondagi joylarni tasvirini ko'rishga imkon beradi. Turistik xaritalarning aniqligi va chuqurligi kam bo'lsa ham o'lkashunos uchun zarur bo'lgan ekskursiya ob'ektlari va diqqatga sazovor joylar haqida qimmatli ma'lumotlar beradi.

Ammo sayoxat davomida yo'nalish bo'yicha amaliy harakat qilish uchun yirik masshtabli xaritalardan foydalanish lozim bo'ladi. Shuning uchun amaliy mashg'ulotlarda va sayoxatlarga tayyorlanganda tegishli xaritalarni ko'pytirishga ko'proq e'tibor berish zarur.



1-rasm. Kompas.Kompas bilan mo'ljal olish.

Kompas bilan ishlash. Kompas yordamida joy tomonlari aniqlanadi. Kompas yordamida joy tomonlari aniqlanganda magnet og'ish burchagi xisobga olinishi

lozim. Chunki kompas ko'rsatkichi haqiqiy geografik meridian bo'yicha emas, balki magnit meridiani bo'yicha o'rnatiladi va xisob olinadi. Geografik va magnit meridianlari orasida hosil bo'ladigan burchakka magnit og'ish deb ataladi. (1-rasm)

Agar kompas ko'rsatkichining shimoliy uchi geografik meridiandan sharqqa og'sa magnit og'ish sharqiy (musbat), g'arbga og'sa g'arbiy (manfiy) bo'ladi. Magnit og'ishning o'lchamlari va ishorasi turli joylarda turlichadir. Ma'lum bir joyda magnit ko'rsatkichini og'ishi bilgan holda haqiqiy (geografik) meridianni osongina aniqlash mumkin. Masalan, joyda magnit og'ishi sharqiy Q100 bo'lsin, kompasni mazkur holda shunday aylantirish lozimki uning ko'rsatkichining shimoliy uchi 00 ro'parasida emas, balki 100 ro'parasida tursin. Bunday holda kompas aylanasidan olinadigan hisob geografik meridianga to'g'ri keladi, ya'ni 100. Agar og'ish g'arbiy (manfiy) bo'lsa kompas ko'rsatkichining shimoliy uchi 3500 ro'parasida bo'ladi (360-10q3500).

Azimut va azimut bo'yicha yurish. Azimut – bu berilgan nuqta bilan shimoliy yo'nalish o'rtasidagi burchakdir. Azimut darajalarda 00 dan 3600 ga o'lchanadi. Agar asosiy yo'nalish sifatida geografik meridian olinsa azimut haqiqiy hisoblanadi, agar magnit meridiani olinsa azimut magnit azimuti deb ataladi.

Azimut bilan yurish uchun ufq tomonlarini va ularga mos keladigan azimut qiymatlarini bilish lozim (2-rasm). Ufqning asosiy va oraliq tomonlari mavjud. Ufqning asosiy tomonlari shimol, sharq, janub va g'arb hisoblanadi. Ular orasida ufqning oraliq tomonlari joylashadi. Masalan, shimol bilan sharq o'rtasida shimoli-sharq, sharq bilan janub o'rtasida janubi-sharq, janub bilan g'arb o'rtasida janubi-g'arb, g'arb bilan shimol o'rtasida shimoli-g'arb joylashgan. Mazkur yo'nalishlarning azimutlari quyidagicha.(1-jadval)

1-jadval. Ufq tomonlari va ularning qiymatlari.

Ufq tomonlari (yo'nalishi)	Azimut
Shimol	$0^0, 360^0$
Sharq	90^0
Janub	180^0
G'arb	270^0
shimoli-sharq	$0^0 - 90^0$
janubi-sharq	$90^0 - 180^0$
janubi-g'arb	$180^0 - 270^0$
shimoli-g'arb	$270^0 - 360^0$

Azimut bilan yurganda doimo mazkur jadvaldagi yo'nalish va o'lchamlardan foydalaniladi. Masalan, turistlar o'rmonda avval 900 azimut bo'yicha 2 km yurishlari, so'ngra 1800 azimut bo'yicha 1 km yurib daryoga chiqishlari lozim. Buning uchun kompas ko'rsatkichi 900 ro'parasiga olib boriladi va shu yo'nalishda ya'ni sharqiy yo'nalishda 2km yurilgandan so'ng, kompas

ko'rsatkichi 1800 ro'parasiga kelguncha aylantiriladi va shu yo'nalishda, ya'ni janubiy yo'nalishda 1 km yurilgandan so'ng daryo qirg'og'iga chiqiladi.

Ufq tomonlarini osmon jismlariga qarab oraliq aniqlash. Ufq tomonlari turistik sayohatlarda osmon jismlariga qarab ham aniqlanadi. Sayoxatlar davomida ufq tomonlari Quyoshga, qutb yulduziga va oyga qarab aniqlanadi.

Ufq tomonlari Qo'yoshga qarab shimoliy yarim sharda quyidagicha aniqlanadi:

- Quyosh ertalab sharqda bo'ladi, ya'ni sharqdan chiqadi, shuning uchun quyosh chiqqan tomon sharq, yoki sharqiy yo'nalish bo'lib hisoblanadi, uning azimuti 900;

- Quyosh janubda tush paytida bo'ladi (soat 1300), uning azimuti 1800 ga teng;

- Quyosh g'arbga botadi, ya'ni kechki payt (soat 700) quyosh g'arbda bo'ladi. Demak, quyosh botodigan tomon g'arbiy yo'nalish bo'ladi, shuning azimuti 2700 ga teng.

Ufq tomonlarini qutb yulduziga qarab aniqlash. Qutb yulduzi shimolda, ya'ni shimoliy yo'nalishda joylashgan. Shuning uchun qutb yulduzini joylanishi topilsa, shimol tomon topilgan bo'ladi. Qutb yulduzi quyidagicha aniqlanadi (3-rasm).

Qutb yulduzini joylanishi katta ayiq yulduzi to'plamiga qarab aniqlanadi. Katta ayiq yulduzi turkumidagi «cho'mich»ning chekkada joylashgan ikkita yulduz orasidagi masofani hayolan besh marta uzaytirib qaralsa, kichik ayiq yulduzi turkumidagi eng yorug' yulduzga borib taqaladi. Ana shu yulduz qutb yulduzi hisoblanadi. Qutb yulduzi kichik ayiq yulduzlar turkumi cho'michining sopini eng oxiridagi juda yaraqlab turadigan yulduzdir.

Ufq tomonlarini oyga qarab aniqlash. Ufq tomonlarini oyga qarab taxminan aniqlash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- yozda Oyning birinchi choragida soat 2000da oy janubda bo'ladi. Kechasi 200da g'arbda bo'ladi;

- yozda Oyning oxirgi choragida oy kechasi soat 200da sharqda, soat 800da janubda bo'ladi;

- to'lin Oy davrida ufq tomonlari Quyoshga qarab aniqlangan tartibda aniqlanadi. Bunda Quyosh o'rniga Oy olinadi.

Ufq tomonlarini maxalliy belgilarga qarab aniqlash. Xavo aynib turganda va kompas bo'lmagan hollarda ufq tomonlarini maxalliy belgilarga qarab aniqlash mumkin.

Ufq tomonlarini maxalliy belgilarga qarab aniqlash. Xavo aynib turganda va kompas bo'lmagan hollarda ufq tomonlarini maxalliy belgilarga qarab aniqlash mumkin.

Agar yakka daraxtni Quyosh nurlaridan hech narsa to'smasa, uning shimol tomonida shoxlari kamroq, janub tomonidan ko'proq bo'ladi. Agar mazkur daraxt kesilsa, uning to'ngagi yuzasidagi aylanalar markazi shimol tomonga yaqinroq joylashadi. Demak ochiq joydagi yakka daraxt yordamida ham ufq tomonlarini aniqlasa bo'lar ekan.

Yirik, qari daraxtlarning soyali, ya'ni shimol tomonida lishayniklar qalin o'sadi.

Baxorda tepaliklarning, jarlarning va chuqur zovurlarning janubga qaragan yonbag'rida qor tez erib ketadi, shimolga qaragan yonbag'rida esa qor qoplami ancha vaqtgacha erimay yotadi.

O'zbekistonda qadimdan uylarning old tomoni sharqqa, ya'ni kun chiqar tomonga qarab qurilgan.

Yo'nalishlarni chizmada tasvirlash. Yo'nalishlarni chizmada tasvirlash uchun bir varaq qog'oz olinadi va uning yuqori qismi shimol, pastki qismi janub, o'ng tomoni sharq va chap tomoni g'arb deb hisoblanadi. Varaqning chap tomoniga ko'rsatkich (strelka) chiziladi. Ko'rsatkichning o'tkir uchi tepaga shimolga qaragan bo'ladi, uning tepasiga Sh (shimol) xarfi, pastki qismiga J (janub) xarfi yozib qo'yiladi.

Agar bir varaq qog'oz olib, unga nuqta qo'yib, mazkur nuqtadan tepaga qarab chiziq tortilsa, shimol yo'nalishini tasviri xosil bo'ladi; mazkur nuqtadan pastka tomon tortilgan chiziq janubga bo'lgan yo'nalishni; o'nga tortilgan chiziq – sharqiy yo'nalishni; chapga tortilgan chiziq – g'arbiy yo'nalishni tasvirlaydi. Mazkur yo'nalishlar o'rtasida ufqning oraliq tomonlari tasvirlanadi. (4-rasm).

Yo'nalishlari qaday tasvirlashni bilgan holda joydagi narsalarga bo'lgan yo'nalishni bir varaq qog'ozda osongina tasvirlash mumkin. Masalan, biz zavod, daryo va maktab ko'rinib turadigan joyda turibmiz. Mazkur joylarga, yoki zavod, daryo va maktabga bo'lgan yo'nalishlarni belgilaymiz (5- rasm).

Demak zavod bizning nuqtamizdan, shimolda, daryo sharqda, maktab g'arbda joylashgan ekan. Mazkur predmetlarni chizmada tasvirlash uchun bir varaq qog'oz olamiz va uning o'rtasiga o'zimiz turgan nuqtani belgilaymiz. Varaqning chap tomonining yuqori qismiga ko'rsatkich chizamiz va unda shimol hamda janubni belgilaymiz. Varaqning o'rtasidagi nuqtaning shimol tomoniga elektrostantsiya, sharqiy tomonga daryo va g'arb tomoniga maktabning shartli belgisini tushiramiz. Varaqning chap tomondagi pastki burchakka zavod, maktab hamda daryo shartli belgilarini tushiramiz.

Topshiriq:

Daftaringizning varag'iga ikkita nuqta qo'ying: bittasini varaqning yuqori qismiga, ikkinchisini pastki qismiga. Ularning bittasidan shimoli – g'arbg'a, ikkinchisidan janubga tomon chiziq o'tkazing.

3. Masofani o'lchash. Masshtab, masofani chizmada tasvirlash.

Masofani o'lchash. Masofa turli usullar yordamida aniqlanadi: ruletka (7- rasm), o'lchovli arqon, er o'lchaydigan sirkul (8-rasm), maxsus priborlar – o'lchagichlar yordamida. Masofani qadam bilan ham o'lchasa bo'ladi.

Masofani qadamlab o'lchash. Odamlarning qadamlarining uzunligi turlicha bo'ladi. Shuning uchun masofani qadamlab o'lchashda, o'z qadamining uzunligini bilish lozim.

O'z qadamini uzunligini aniqlash uchun, avvalo ruletka yordamida 100m masofa o'lchab ajratiladi, so'ngra mazkur masofa necha qadam ekanligi aniqlanadi. Buning uchun mazkur masofadan piyoda yurib o'tiladi va qadamlar soni xisoblanadi. Masalan, 100m masofa 200 qadam bo'ldi deylik. Unda bir qadamning uzunligi yarim metr, yoki 50sm ni tashkil qiladi.

O'z qadamini uzunligini bilgan holda, har bir kishi masofani osongina aniqlashi mumkin. Masalan, turgan joyingizdan maktabgacha bo'lgan masofa 180 qadam chiqdi, bir qadamning uzunligi esa 0,5m ga teng, unda o'lchangan masofa 90m.

Savol va topshiriqlar.

1. Masofa qanday usullar yordamida aniqlanadi?
2. O'z qadamingizning uzunligini o'lchang?
3. Uyingizdan maktabgacha bo'lgan masofani qadamlab o'lchang?

Masshtab. Joyda o'lchangan masofa bir varaq qog'ozga sig'maydi, shuning uchun shartli ravishda masofa odatda kichraytirib tasvirlanadi. Masalan, joydagi 100sm masofani chizmada tasvirlash uchun 100sm ya'ni 1 m uzunlikdagi qog'oz kerak bo'ladi, 1km li masofani tasvirlash uchun esa 1 km uzunlikdagi qog'oz kerak bo'ladi. Shuning uchun joydagi masofalar chizmada ma'lum miqdorda kichraytirib tasvirlanadi. Masalan, chizmadagi 1 sm oraliq joydagi 100sm (1m) masofaga teng deb olish mumkin. Bunday sharoitda chizmada joydagi masofa 100 marta kichraytirib tasvirlanadi. Ko'p hollarda chizmada masofani 100, 500, 1000 va undan ko'proq kichraytirib tasvirlashga to'g'ri keladi. Joydagi masofa chizmada necha marotaba kichraytirilganini masshtabdan bilib olsa bo'ladi.

Masshtab – joydagi masofa chizmada necha marta kichraytirib tasvirlanganini ko'rsatadi.

Masshtablar sonli, chiziqli va so'zli bo'lishi mumkin. Sonli masshtab kasr ko'rinishida ifodalanadi, masalan 1:100, 1m ga teng ekanligini bildiradi. Mazkur masshtabni so'z bilan ham ifodalash mumkin, unda u quyidagicha yoziladi 1 sm da 1m. Demak, chizmadagi 1sm oraliq necha metr ga yoki kilometr ga teng ekanligini ko'rsatuvchi ifoda so'zli masshtab deb atalar ekan. Chiziqli masshtab teng bo'laklarga bo'lingan to'g'ri chiziqdan iboratdir. Har bir bo'lakning tepasiga tegishli masofa yozib qo'yiladi (10 rasm).

Katta masofalarni chizmada tasvirlashda ular bir necha barobar kichraytiriladi. Masshtab odatda masofani uzunligiga qarab topiladi.

Sonli (masshtab): 1:1000

Soʻzli (masshtab): 1 sm da 10m.
Chiziqli (masshtab):

9-rasm. Masshtablar turlari.

Chizmada masofalarni tasvirlash. Masshtab yordamida har qanday masofani tasvirlash mumkin. Faraz qilaylik 200 m masofani chizmada tasvirlash lozim. Chizmaning masshtabi esa 1 sm da 20m ga teng. Unda 200m li masofa chizmada 100sm oralikda tasvirlanadi.

Masofaning uzunligiga qarab masshtab tanlanadi. Agar 5km masofani chizmada tasvirlamoqchi boʻlsak, uni yuqoridagi 1 sm da 20 m li oʻlchovda tasvirlab boʻlmaydi, chunki uni mazkur oʻlchovli chizmada tasvirlash uchun 250 sm uzunlikdagi qogʻoz kerak boʻladi. Buning uchun 1 smda 1kmli masshtab qulay boʻladi, shunda mazkur masofa chizmada 5 sm uzunlikda tasvirlanadi.

Chizmada masofani oʻlchash. Chizmada masshtab orqali har qanday masofani aniqlash mumkin.

Savol va topshiriqlar:

1. Masshtab nimani koʻrsatadi ?
2. Masshtab qanday turlarga boʻlinadi?
3. Quyidagi sonli masshtabni 1:10000 soʻzli va chiziqli masshtablarda ifodalang.

4. Joyning surati, rejasi, rejalash usullari.

Joyning surati erning bir kismini tepadan kurinishini tasvirlaydi va samolyot xamda kosmik kemalar yordamida olinadi. Samolyotlar yordamida aerosuratlar, kosmik kemalar yordamida esa kosmosuratlar olinadi.

A E R O S U R A T - samolyotlar yoki boshqa uchuvchi apparatlar yordamida olingan erning yuzasi yoki bir kismining tasviridir (10-rasm).

Aerosuratlar yordamida joyning tuzilishi, rejasi, oʻsimlik koplami, yullar kentlarning joylashishi va turli xil korxonalarni joylanishi aniklanadi va oʻrganiladi.

K O S M O S U R A T - kosmik apparatlar yordamida olingan erning yoki bir kismining tasviridir (11-rasm) Kosmosuratlar fanning yoki xoʻjalikning turli tarmoklarida keng foydalaniladi. Ular yordamida erning tabiiy boyliklari, okeanlar va atmosfera oʻrganiladi, qishloq xoʻjalik ekinlarni oʻsishi va rivojlanishi va atrof muxitni ifloslanishi kuzatiladi.

Joy rejasi. Joy rejasi xoʻjalikda juda katta ahamiyatga ega. Xar bir xoʻjalikka va korxonaga oʻz erining rejasi zarur. Quruvchilar uy, fabrika va zavodlar qurishdan avval joy rejasini yaxshilab oʻrganishadi. Demak maʼlum bir joyni oʻzlashtirish uchun yaʼni u erda ekinzor yoki yaylovlar barpo qilish, zavod va fabrikalarni joylashtirish, turli xil inshootlar qurish, yoʻl yoki kanallar oʻtkazish uchun oʻsha joyning rejasi zarur ekan.

J O Y N I N G R E J A S I deb er yuzasining kichik bir qismini yuqoridan koʻrinishini kichraytirib tasvirlovchi chizmaga aytiladi.

Joy rejasining yuqorigi chekkasi-shimolni, pastki chekkasi-janubni, o'ng chekkasi-sharqni va chap chekkasi-g'arbni ko'rsatadi.

Shartli belgilar. Joy rejasida narsa va xodisalar shartli belgilar bilan tasvirlanadi.

Shartli belgilar tushunarli bulishi uchun ular narsa va xodisalarning o'ziga o'xshagan qilib tasvirlanadi. Masalan daryo va ko'llar suv rangiga o'xshash xavo rangga bo'yaladi, kumlar jigarrang nuqtalar

Joy rejasini olish usullari. Joy rejasi uch xil usulda olinadi: ko'z bilan chamalab reja olish, qutbiy reja olish va marshrut buyicha reja olish.

Reja olish uchun tayyorgarlik ishlari. Reja olish uchun birinchi navbatda kog'oz, faner, kompas kerak bo'ladi. Qog'oz fanerga yopishtiriladi, fanerning chekkasiga kompas maxkamlanadi. Qog'oz yopishtirilgan va kompas maxkamlangan faner PLANSHEET deb ataladi. Bulardan tashqari yana reja olish uchun vizirli jazvar (lineyka), qalam, igna va o'chirg'ich kerak. Fanerga yopishtirilgan qog'ozning yuqori chap burchagiga yo'nalish chizig'i chiziladi (13-rasm).

Ko'z bilan chamalab reja olish. Ko'z bilan chamalab reja olish quyidagi tartibda amalga oshiriladi.

1. Planshet tayyorlanadi

2. Reja masshtabi aniqlanadi

Rejaning masshtabi joyning katta kichikligiga bog'lik. Kichik maydonlarni rejasini olganda yirikroq masshtab tanlanadi. Masalan sport shaxarchasini rejasini 1 sm da 3 m va undan xam yirikroq chizish mumkin. Kattarak maydonlarning rejasini kichikroq masshtablarda chizish mumkin, uni 1 sm da 100 m va undan xam maydaroq.

3. Planshetni mo'ljallash va yo'nalishni aniqlash. Planshet tanlangan nuqtaga o'rnatiladi va planshetni kompas shkalasidagi «Sh» shimol xarfi magnit ko'rsatkichining shimoliy uchi tagiga to'g'ri kelguncha aylantiriladi, shundan keyin vizir tazvarni mazkur nuqtadan joyning boshqa nuqtasiga yo'naltiriladi.

4. Masofani o'lchash.

Qutbiy reja olish. Qutb deb atalgan bir nuqtadan turib reja olish qutbiy reja olish deb ataladi. Mazkur usul kuproq ochiq joylarni rejasini olishda qo'llaniladi. Reja olinadigan qutb xamma joy ko'rinib turadigan joydan tanlanadi. Planshet qutb deb atalgan nuqtaga o'rnatiladi, mo'ljallanadi, masshtabi tanlanadi, planshetning o'rtasiga qutb nuqtasi tushiriladi. Mazkur nuqtaga joydagi narsalarga vizir lineykasi yordamida chiziq tortiladi va xar bir nuqttagacha bo'lgan masofa o'lchanadi, planshetda masshtabga muvofiq ravishda belgilanadi (16-rasm).

Marshrutli reja olish. Marshrut bo'yicha reja olish ko'pincha sayoxat va ekskursiyada bosib o'tilgan yo'lni tasvirlashda qo'llaniladi. Demak, cho'zilgan joylarni rejasini olish marshrut bo'yicha reja olish deb ataladi. Marshrut bo'yicha reja olganda ma'lum bir nuqtalarda to'xtab, xar bir to'xtagan nuqtada quyidagi ishlar bajariladi: planshet mo'ljallanadi; to'xtagan joydagi nuqta planshetga tushiriladi; vizirli lineyka yordamida keyingi nuqtaga yo'nalish aniqlanadi; joydagi

narsalar shartli belgilar bilan chiziladi (16-rasm) .Reja olib bo'lgandan u rasmiylashtiriladi ya'ni shartli belgilar bilan oqqa ko'chiriladi.

5. Joyning geologik tuzilishi, foydali qazilmalari va relefni o'lkashunoslik maqsadlarida o'rganish.

Joyning geologik tuzilishi asosan tog' jinslari ochilib qolgan joylarda o'rganiladi.

Tog' jinslari ko'pincha daryo qirg'oqlarida, jarlarda, tog' yonbag'irlarida, ochiq usulda qazib olinadigan konlar (karerlar)devorlarida ochilib qoladi. Bunday joylar geologik ochilmalar deb ataladi.

Geologik ochilmalarda tog' jinslari quyidagi tartibda o'rganiladi: (18-rasm).

- geologik ochilma nuragan jinslardan yoki o'simliklardan tozalanadi;
- geologik ochilmada mavjud bo'lgan tog' jinslari nomlari aniqlanadi;
- aniqlangan tog' jinslari qatlamlarining joylanishi va qalinligi aniqlanadi;
- tog' jinslari qatlamlarining morfometrik o'lchamlari aniqlanadi, ya'ni qiyaligi, yo'nalishi va x.k.
- ochilmadagi tog' jinslarining xolati o'rganiladi: darzsimonligi, namligi, qattiqligi, zarralarning o'lchamlari;
- ochilmadagi tog' jinslarining turlari aniqlanadi: magmatik, cho'kindi, metamorfik;
- agar ochilmada asosan cho'kindi tog' jinslari joylashgan bo'lsa ularning xam genetik turlari aniqlanadi(chaqiq, ximik, organik). Agar chaqiq tog' jinslari tarqalgan bo'lsa ular shag'al, qum, gil va qumtoshlarga bo'linadi. Ximiyaviy tog' jinslari qatlamlari mavjud bo'lsa ular turli xil tuzlardan iborat bo'ladi, organik tog' jinslari esa oxaktosh, bo'r va boshqalar;
- moboda ochilmada tektonik yoriqlar mavjud bo'lsa ularning soni, xar birining uzunligi, kengligi, yunalishi va zichligi aniqlanadi.

O'lkadagi foydali qazilmalar joyning geologik tuzilishi bilan chambarchas bog'langan. Foydali qazilma konlari metalli va nometal guruxlarga bo'linadi. Metall foydali qazilmalar o'z navbatida qora va rangli metallarga bo'linadi. Nometal foydali qazilmalar esa quyidagi guruxlarga bo'linadi: qurilish xom-ashyosi (oxaktosh, maramar, qum, g'isht xom-ashyosi, granit va x.k.); tog' – kimyo xom-ashyosi (fosforitlar, tuzlar, flyuorit va x.k) va boshqalar.

Qurilish xom – ashyosi foydali qazilmalari juda keng tarqalgan xamda er yuzasida va er yuzasiga yaqin joylashadi. Shuning uchun ularni o'rganish metalli foydali qazilma konlariga nisbatan osonroq.

Joyning relefning o'rganish xam o'lkashunoslarning ma'suliyatli ishlaridan biri xisoblanadi. Relefni kelib chiqishi va rivojlanishi va tarqalishini geomorfologiya fani o'rganadi.

Relif shakllarini ikki xil sinflashtirish mavjud: a) tashqi tuzilishi va o'lchamlari bo'yicha (morfologik sinflashtirish); b) kelib chiqishi va rivojlanishi xususiyatlariga ko'ra (genetik sinflashtirish).

Relief tashqi tuzilishi va o'lchamlariga ko'ra ikkita yirik guruxga bo'linadi: tog'li o'lkalar va tekisliklar. Tog'lar yassi, o'rtacha va baland tog'larga bo'linadi. Bundan tashqari tog'li o'lkalar, tog' massivlari, tog' zanjirlari, tog' tizmalari va tog'liklarga bo'linadi. Tekisliklar quruqlikning 200 metrdan baland bo'lgan eng yirik qismlaridir. Mazkur morfologik birliklar o'z navbatida yanada kichikroq o'lchamdagi relief shakllariga bo'linib ketadi.

Relief shakllarining genetik sinflari ularni xosil bo'lish sabablari va sharoitlari bilan belgilanadi. Erning ichki kuchlari (zilzilalar, tektonik xarakatlar, vulkanlar) ta'sirida tog'lar ko'tariladi, botiqlar xosil bo'ladi. Erning tashqi kuchlari (shamol, suvlar, muzlar) ta'sirida tog'lar emiriladi, botiqlar to'ldiriladi. Erning tashqi kuchlari ekzogen kuchlar deb ataladi, ular ta'sirida mavjud relief shakllari o'zgaradi va yanada maydaroq relief shakllari vujudga keladi. (18-rasm.)

Relief shakllari kelib chiqishiga ko'ra quyidagi guruxlarga ajratiladi: Eol, ya'ni shamol ta'sirida xosil bo'lgan relief shakllari; er osti suvlari ta'sirida xosil bo'ladigan relief shakllari; oqar suvlar ta'sirida xosil bo'ladigan relief shakllari; muzlar ta'sirida xosil bo'ladigan relief shakllari; nurash natijasida xosil bo'ldigan relief shakllari; inson faoliyati ta'sirida xosil bo'ladigan relief shakllari.

Shamol ta'sirida xosil bo'lgan relief shakllari Eol (gerekcha –shamol) relief shakllari deb ataladi. Shamol olib kelayotgan zarralar (qumlar) asta – sekin qoyalarni silliqlab ularni emira boshlaydi. Turli xil qattqlikka ega bo'lgan qoyalarda turli xil shakllar xosil bo'ladi. Masalan, kovaklar, «tosh bezaklari».

Qora daryo vodiysini toraygan qismi Kampirrovot deb ataladi, xozir bu erda Andijon suv omborining to'g'oni joylashgan. Vodiyning ushbu toraygan joyida shamol tezligi va kuchi katta bo'ladi. Buning natijasida qoya silliqlanib va emirilib kampir shakliga kelgan. Uni Xonabodda axoli «Kampirtosh» deb atashadi, Kampirrovot so'zi xam shundan kelib chiqqan.

Cho'llarda shamol olib kelayotgan zarralar miqdori va shamol tezligi katta bo'lgani uchun qoldiq tog' reliefi xosil bo'ladi.

Doimiy shamollar yo'llarida barxanlar, dengiz qirg'oqlarida esa dyunalar xosil bo'ladi.

Relief shakllarining ikkinchi guruxi er osti suvlarining faoliyati bilan bog'liq. Er osti sularining faoliyati ta'sirida surilmalar va karst xodisalari sodir bo'ladi. Er osti suvlari tog' jinslariga shimilib suv o'tkazmaydigan qatlamgacha tushadi va mazkur qatlam ustida to'plana boshlaydi. Buning oqibatida tog' jinslarining og'irligi ortadi, mustaxkamligi kamayadi, suv o'tkazmaydigan qatlam ustida sirpanchiq surilish chizig'i vujudga keladi, natijada tog' yon bag'rilarida surilmalar shakllanadi. Bunday surilmalarga misol qilib Oxangaron vodiysidagi Otchasoy, Jigariston va boshqalarni misol keltirish mumkin. Otchasoy surilmasining maydoni 8 km², xajmi 800-900 mln. m³ bo'lgan. Surilma oqibatida 20 ming axolisi bo'lgan teshiktosh posyolkasi ko'chirildi. Oxangaron daryosi o'zani ko'chirildi. Oqibatda jamiyatga juda katta moddiy va ma'naviy zarar keltirildi. Er osti suvlari suvda eriydigan tog' jinslari orasidan o'tganda ularni eritib olib ketadi, natijada er ostida turli uzunlikdagi va xajmdagi bo'shliqlar, ya'ni g'orlar xosil bo'ladi.

Relief shakllarini uchunchi genetik turini oqar suvlar ta'sirida xosil bo'lgan relief shakllari tashkil qiladi. Oqar suvlar ta'sirida reliefni erozion va akkumliativ turlari xosil bo'ladi.

Erozion relief shakllari oqar suvlarni emirish ishi natijasida vujudga keladi. Ularga tor daralar, daryo vodiylari, jarlar va yorlar (tik jar) kiradi.

Daralar asosan tog'larda, qattiq va mustaxkam qoyalarni oqar suvlar ta'sirida emirilishi oqibatida xosil bo'ladi. Daryolar yuqori oqimida qoyali yonbag'irlar tarqalgan xududlarda tor vodiylar xosil qiladi, tekislikda esa keng vodiylarni xosil qiladi. Oqar suvlar yumshoq jinslar tarqalgan joylarda ularni emirib ariqchalar xosil qiladi. Ariqchalar asta sekin kattayib jarlarga aylanadi. Jarlanish xosildor erlarni ishdan chiqishiga olib keladi.

Akkumliativ relief shakllari daryolar va soylar olib kelgan yotqiziqnlarni yotqizilishi natijasida xosil bo'ladi. Ularga konussimon yoyilmalar va deltalar kiradi. Yoyilma va deltalarda unumdor tuproqlar tarqalganligi uchun qishloq xo'jaligi yaxshi rivojlangan. Masalan, Amudaryoning qadimgi deltasida Xorazm voxasi, hozirgi deltasida esa Qoraqalpog'iston Respublikasining asosiy dehqonchilik rayonlari joylashgan. So'x daryosi yoyilmasida esa Qo'qon voxasi joylashgan.

Relief shakllarining to'rtinchi guruxi muzlarning faoliyati ta'sirida vujudga keladi. O'rta Osiyoda va O'zbekistonda muzliklar asosan tog'larda tarqalgan. Eng yirik muzliklar pomir va Tyanshan tog'larida tarqalgan. Muzlar doimo xarakatda bo'ladi, ular o'z og'irlik kuchi ta'sirida tog'lardan pastga tomon xarakat qilishadi. Buning oqibatida ular qoyalarni silliqalaydi, yumshoq jinslarni surib olib ketadi, vodiylarni kengaytiradi. Natijada muz xosil qilgan vodiylar, turli xil shaklga ega bo'lgan qoyalar vujudga keladi. Masalan, «qo'y peshonalar», «jingalak qoyalar» va x k.

Relief shakllarini beshinchi guruxini nurash natijasida vujudga keladigan relief shakllari tashkil qiladi. Nurash deb tog' jinslarini xarorat va namlikni sutka va fasllar davomida o'zgarishi oqibatida emirilishiga aytiladi. Nurash uch turga bo'linadi: fizik yoki mexanik, ximik va biologik. Fizik yoki mexanik nurash xarorat va namlikni sutkalik o'zgarishi natijasida xosil bo'ladi. Kechasi xarorat past bo'ladi, kunduzi esa xarorat yuqori bo'ladi. Buning natijasida kechasi xarorat paysayganda tog' jinslarining xajmi torayyadi, kunduzi esa xarorat ko'tarilishi bilan ularning xajmi kengayadi. Muntazam ravishda tog' jinslarining xajmini torayib va kengayib turishi turli xil yoriqlarni shakllanishiga va tog' jinslarini emirilishiga olib keladi. Nuragan jinslarni olib ketilishi oqibatida qoldiq relief shakllari vujudga keladi.

Relief shakllarini oltinchi guruxiga inson faoliyati ta'sirida xosil bo'lgan relief shakllari kiradi.

Foydali qazilmalarni qazib olish jarayonida chuqurligi 500 metr bo'lgan botiqlar, balandligi 100 metrgacha bo'lgan do'nklar vujudga keladi.

Reliefni o'lkashunoslik maqsadlarida o'rganishda faqat relief shakllarini, ularni kelib chiqishini xamda regional tavsiflab qolmasdan, ularning o'ziga xos va eng qiziqarli shakllarini xam to'la va xar tomonlama tavsifini tuzish lozim.

Savol va topshiriqlar

1. Joyning geologik tuzilishini qaerlarda o'rganish mumkin?
2. Morfologik jixatdan relief qanday sinflarga bo'linadi?
3. O'lkada qanday foydali qazilmalar keng tarqalgan bo'ladi?
4. O'zingiz yashab turgan joyda qanday foydali qazilmalar mavjud, ularni tavsifini tuzing.
5. Yashab turgan joyingizda qanday tog' jinslari tarqalgan, ularni jadvalini tuzing.
6. Genetik jixatdan relief qanday guruxlarga bo'linadi?
7. O'z yashab turgan joyingizda qanday relief shakllari tarqalgan ularni tavsifini tuzing.

6. O'lka iqlimini o'rganish.

Iqlim deb ma'lum bir joy uchun xos bo'lgan va asrlar davomida o'zgarmaydigan ob-havoning ko'p yillik me'yoriga aytiladi.

Har qanday o'lkani iqlimini tavsifini tuzish quyidagi uchta iqlim hosil qiluvchi omillarni baholashga asoslanadi: radiatsion, atmosfera harakatlari va er yuzasini tuzilishi.

Radiatsion (Quyosh issiqligi) omil o'lkani ekvatorga nisbatan joylanishiga, ya'ni geografik kenglikka bog'liq. Turli geografik kengliklarda Quyosh nurlarini Er yuzasiga tushish burchagi turlicha bo'ladi. Ekvatordan qutblarga tomon Quyosh nurlarining er yuzasiga tushish burchagi kamayib boradi. Quyosh nurlarining tushish burchagi qancha katta bo'lsa er yuzasiga shuncha ko'p issiqlik keladi. Iqlimning radiatsion ko'rsatkichlari yalpi radiatsiya va radiatsion muvozanat bilan belgilanadi. Yalpi radiatsiya to'g'ri (bevosita Quyoshdan keladigan) va sochma (atmosfera va fazodan keladigan radiatsiya) radiatsiya yig'indisidan iborat. Radiatsion muvozanat deganda yalpi radiatsiya va erga singan erdan qaytgan radiatsiyalar ayirmasidan iborat. Radiatsion muvozanat manfiy (qish va kechasi), musbat (yoz, kunduzi) bo'lishi mumkin.

Atmosfera (havo massalari) harakatlari muxim iqlim xosil qiluvchi omil bo'lib hisoblanadi. Mazkur omil joydagi atmosfera bosimini me'yorini siklon va antitsiklonlarning vujudga kelishi va almashinishi, asosiy havo massalarining turlarini, rivojlanishini, shamollarning yo'nalishini va kuchini belgilab beradi. Er yuzasi tuzilishi ham iqlim hosil qiluvchi asosiy omillardan hisoblanadi. Tog' tizmalari havo massalarini yo'lini to'sib qoladi va ularni harakat yo'nalishini o'zgartiradi. Masalan, Avstraliyani sharqiy qismida joylashgan Katta suv ayirg'ich tizmasi Tinch okeandan kelayotgan nam havo massalarini to'sib qoladi, natijada Avstraliyaning katta qismida cho'llardan iborat. O'rta Osiyoni katta qismini cho'llar tashkil qiladi, yozda qumlar qizib havoni haroratini ko'tarib yuboradi va tropik havoni vujudga kelishiga olib keladi.

Iqlimni o'lkashunoslik maqsadlarida o'rganish quyidagi tartibda olib borilishi mumkin:

1. Iqlim hosil qiluvchi omillarni o'lka iqlimiga ta'sirini o'rganish. Bu esa iqlim ko'rsatkichlarini ilmiy asoslashga, ularni tabiiy geografik jarayonlar bilan aloqasini aniqlashga imkon beradi. Buning uchun joyni geografik kengligi aniqlanadi va

uning asosida Quyosh nurlarini er yuzasiga tushish burchagi hisoblanadi. Havo massalarini harakatini o'rganish uchun o'rganilayotgan qaysi iqlim mintaqasining qaysi qismida joylashganligi aniqlanadi. Masalan, Toshkent shaxri mo''tadil iqlim mintaqasining janubida joylashgan. Bu erda doimo mo''tadil xavo massalari xukmron, qish sovuq bo'ladi.

2. Joyning iqlimini tavsifini tuzish. Buning uchun joyning issiqlik sharoitini ko'rsatkichlarini taxlil qilmoq lozim: havo xarorati o'rtacha yillik, o'rtacha oylik, eng sovuq va eng issiq, oylarning xaroratlari; yillik va oylik maksimal va minimal xavo xarorati. Iqlimni qishloq xo'jalik maqsadlarida baholanadi effektiv haroratlar yig'indisi aniqlanadi.

3. Joydagi atmosfera yog'inlari miqdori aniqlanadi. Yillik, oylik atmosfera yog'inlari miqdori, ularni xudud bo'yicha taqqoslanishi, qor qoplarning qalinligi va turish muddati aniqlanadi. Qor qoplarning qalinligi o'lchov tayog'i bilan aniqlanadi.

4. O'lka fasllari iqlim tavsifi tuziladi. Bunda mazkur joy uchun xos bo'lgan atmosfera va iqlim xodisalari aniqlanadi: sel, do'l, chaqmoq, jala, bulutlar, Afg'on shamoli, Bekobod shamoli, Qo'qon shamoli.

5. O'lka iqlimini o'rganish davomida iqlimni qishloq xo'jaligi va rekreatsiya maqsadlarida ham baholanadi. O'lka iqlimini turi O'zbekiston yoki O'rta Osiyo iqlim xaritasi yordamida aniqlanadi. O'z o'lkasini iqlimi turini aniqlagandan so'ng tegishli ilmiy manbaalar, iqlimiy va agrometeorologik ma'lumotlar asosida joyning iqlimini asosiy jixatlari va ko'rsatkichlarini aniqlash mumkin.

O'lka iqlimini yanada aniqlashtirish uchun o'lkashunos joy ob-xavosi haqida to'plagan ma'lumotlaridan foydalanish mumkin: xarorat me'yori, yog'inlar va ularning turlari, shamollarning yo'nalishi va kuchi; bulutlik va bulutlar shakli.

Savol va topshiriqlar

1. Iqlim deganda nimani tushunasiz?
2. Iqlim xosil qiluvchi omillarni aniqlang?
3. Relef o'lka iqlimiga qanday ta'sir qilishini aniqlang?
4. O'z yashab turgan joyingiz iqlimini tavsifini tuzing.
5. O'lkashunoslar iqlimini qanday tartibda o'rganishlari lozim?

7. Ob-havoni o'rganish

Ob-xavoni o'rgnash o'lkashunoslik ishlarida katta ahamiyatga ega, chunki o'lkashunoslik tadqiqotlari uchun sayohatga yoki turistik marshrutga chiqish ob-xavoga bog'liq. Ob-xavoni o'zgarishini maxalliy belgilarga qarab oldindan aniqlash sayoxatni amalga oshirishni, tadqiqot ishlarini olib borish, muddatlarini belgilab boradi.

Ob-havoni kuzatish quyidagi qismlardan iborat: meteorologik kuzatishlar; bulutlarni kuzatish; shamolni o'rganish; barqaror bulutsiz yaxshi ob-havoni belgilarni aniqlash; ob-havoni aynish beliglarin aniqlash; barqaror aynigan ob-havo belgilarini yaxshi tomonga o'zgarishi belgilarini o'rganish.

Meteorologik kuzatishlar. Meteorologik stantsiyalarda (19-rasm) ob-havoni kuzatish har olti soatda olib boriladi: 1,7,13 va 19 da. Shuning uchun o'lkashunoslik ekspeditsiyalarni va turistik sayoxatlarda ob-havoni kuzatish aynan shu soatlarda olib borilsa yaxshi bo'ladi. Tungi kuzatishlarni olib borilmasa ham bo'laveradi.

Kuzatish vaqtlari belgilangandan so'ng albatta shu belgilangan vaqtlarda harorat, namlik, bosim va boshqa meteorologik ko'rsatkichlar aniqlanib jurnalga qayd qilib borilishi lozim. Kuzatish jurnalini «ob –havo kundaligi» deb atalsa ham bo'ladi. Kuzatishni iloji boricha ochiq joyda olib borgan yaxshi. Turistik sayoxatlarda ob-xavo ko'pincha meteorologik asboblarsiz olib boriladi. Shuning uchun kuzatish natijalari aniq bo'lishi uchun ikki guruhga bo'linib kuzatish maqsadga muvofiq bo'ladi. So'ngra kuzatish natijalari solishtiriladi va o'zgarishlar kiritiladi yoki o'rtachasi olinadi.

Turistik sayohatlarda atmosfera bosimi faqat asboblar yordamida, palatkani ichida yoki yopiq joyda aniqlanadi. Atmosfera bosimi sayoxat davomida barometr – aneroid bilan yoki aneroid – vo'sotomer bilan aniqlanadi. Bosimni o'lchash ishlari aneroid gorizontol holda turganda olib boriladi. Aneroiddan bosim o'lchami haqida ma'lumot olinayotganda uning oynasiga chertiladi, aneroid strelkasi siljigandan so'ng hisob olish mumkin. (20-rasm)

Haroratni aniqlash faqat salqinda olib boriladi. Turistik sayoxatlarda ko'proq prahch-termometridan foydalanish qulay. Termometr ipi yordamida 1-2 minut davomida boshdan yuqori ko'tarib aylantiriladi, so'ngra tezlik bilan hisob olinadi. Agar prahch-termometri bo'lmasa oddiy termometrdan foydalanish mumkin. Xavo haroratini va namligini birdaniga aspiratsion psixrometr bilan ham aniqlasa bo'ladi. Psixrometr komplektida 2 ta termometr mavjud. O'ng tomondagi termometrning rezervuari batist materiali bilan o'ralgan, kuzatish oldidan yozda 4 minut, qishda 15 minut batist distillangan suv bilan namlanadi. Bunda paletkali rezinali balonchadan foydalaniladi. So'ngra asta aspirator yurgiziladi, 3 minutdan so'ng quruq va nam termometrlardan uch marotaba xisob olinadi. So'ngra olingan xisoblarni o'rtachasi chiqariladi. Quruq tarometrdan olingan xisoblarni o'rtachasi havo haroratini beradi, namlangan termometrdan olingan xisoblarni o'rtachasi chiqariladi. Quruq tarometrdan olingan xisoblarni o'rtachasi havo haroratini beradi, namlangan termometrdan olingan xisoblar asosida «Psixrometrik jadvallar» orqali xavoning namligi aniqlanadi.

Shamolni kuzatish uning yo'nalishini va tezligini aniqlashdan iborat. Shamol qaysi tomondan essa uning yo'nalishi ara tomon bilan aniqlanadi. Masalan, shimoldan esayotgan shamollarning yo'nalishi shimoliy, janubdan esayotganniki esa janubiy bo'ladi. Shamollarni yo'nalishini belgilash uchun meteorologik stantsiyalarda maxsus belgilardan foydalaniladi. Bunda shamollarni yo'nalishi, o'sha yo'nalishning bosh xarfi bilan belgilanadi. Masalan, shimoliy yo'nalishdagi shamol – Sh, sharqiy yo'nalishdagi shamol – Shq, janubiy yo'nalishdagi shamol – J, g'arbiy yo'nalishdagi shamol – G', janubi-g'arbiy shamol – JG', shimoli-g'arbiy shamol – ShG', shimoli-sharqiy shamol – ShShq va x.k. (21-rasm)

Turistik sayoxatlarda shamolni tezligi anemometr asbobida aniqlanadi. Shamol tezligini aniqlashdan oldin asbobni ko'rsatkichidan xisob olinadi. So'ngra

anemometr ko'tariladi, hamda sekundometr yurgiziladi. 100sekunddan so'ng schetchik yurgiziladi va uning ko'rsatishi yoziladi. Shamolni tozaligini aniqlash uchun anemometrni oxirgi ko'rsatkichidan dastlabki ko'rsatkichi ayriladi va 100 ga bo'linadi (kuzatish davri 100 sekund). Agar shamolni tezligini aniqlaydigan asbob bo'lmasa, Bofortning 12 – balli shkalasidan foydalanish mumkin. mazkur shkala yordamida shamolni kuchini chamalab aniqlash mumkin.(22-rasm.)

O'lkashunoslik maqsadlarida olib boriladigan turistik sayoxatlarda meteorologik asboblarsiz olib boriladigan oddiy kuzatishlar ham amalga oshiriladi. Masalan, bulutlikni, bulutlarni shaklini o'zgarishini, ayrim atmosfera xodisalarini kuzatish mumkin, ob – havoni o'zgarishini oldidan aytish mumkin. Shamolni kuchini aniqlash.

Bulutlarni kuzatish. O'lkashunoslik ishlarida dala sharoitida odatda bulutlarning shakli va bulutlilik aniqlanadi. Meteorologiya fanida qabul qilingan bulutlarning sinflashtirishiga binoan bulutlar xosil bo'lish balandligiga ko'ra uch qatlamga bo'linadi. Yuqori qatlam bulutlari Er yuzasidan 6000 m balandlikda joylashadi. Ularning barcha shakllari sof oq rangda, ko'lankalarsiz, yarim shaffof (ular orqali quyosh, oy, osmon va yulduzlar ko'rinib turishi mumkin) ular patsimon, patsimon qatlamli va patsimon to'p-to'p shakllarga bo'linadi.(23-rasm.)

O'rta qatlamdagi bulutlar 2000-6000 m balandliklarda hosil bo'ladi. Ular uchun yuqori zichlik, massasining tarkibiy qismlarining yirikligi, markazida oqish tus va ko'lankalarni mavjudligi xos. Mazkur bulutlar baland to'p-to'p va baland qat-qat turlarga bo'linadi. Quyi qatlamdagi bulutlarni hosil bo'lishi er yuzasidan boshlanadi va 2000m ga davom etadi. Ular turli xil yirik elementlardan iborat bo'ladi va asosan qora rangda bo'ladi. Ularning quyidagi shakllari ajratiladi: qat-qat-to'p-to'p; qat-qat va qat-qat yomg'irli.

Bo'ylama yo'nalishda rivojlanadigan bulutlar alohida ajratiladi. Ular bir necha yarusni kesib o'tishi mumkin. ularga to'p-to'p, to'p-to'p yomg'irli va qorli bulutlar kiradi. Bulutlarni rangi va shakli haqida to'la ma'lumotlar olish uchun «Bulutlar atlasidan» foydalanish mumkin.

Bulutlikni aniqlash uchun 10 ballik shkaladan foydalaniladi. Bunda osmonni bulut bilan qoplanganlik darajasi aniqlanadi. Agar osmon toza bo'lsa, bulutlar bo'lmasa bulutlik «0» ball bo'ladi. Agar osmon bulutlar bilan to'la qoplangan bo'lsa bulutlik 10 ballga teng bo'ladi.

Atmosfera yog'inlarini kuzatganda quyidagilarga e'tibor beriladi: yog'in turi, ularni sur'ati, boshlanish va to'xtash vaqti. Eng oson aniqlanadigan yog'in turi yomg'ir, jala tomchilari, qor, paxta qor, xo'l qor, qor donalari, do'l, shudring, qirov, mayda yomg'ir, sirpanchiq.

Bundan tashqari quyidagilar kuzatilishi va kundalikka yozib qo'yilishi lozim: qor bo'roni, er bag'irlab esadigan shamol, chaqmoq, qutb yog'dusi, tuman, yashin, momoqoldiroq, g'ira-shira. Optik xodisalar: quyosh va oy atrofidagi toj, sarob va x.k.

Savol va topshiriqlar.

1. Atmosfera bosimi turistik sayoxat davomida qanday asbob yordamida aniqlanadi?
2. Havo namligi qanday asbob yordamida aniqlanadi?
3. Shamolni tezligi va kuchi asboblarsiz qanday o'rganiladi?
4. Osmonni yarmini bulutlar qoplagan bo'lsa bulutlik necha ballga teng bo'ladi?
5. Bulutlar hosil bo'lishiga ko'ra qanday qatlamlarga bo'linadi?
6. Yashab turgan joyingizda bahorda qanday bulutlar hosil bo'lishini gapirib bering.

8. Ob –havoni oldindan aytib berish.

Ob –havoni o'zgarishini oldindan aytib berish qator belgilarni namoyon bo'lishiga qarab amalga oshiriladi. Odatda ob –havoning quyidagi holatlari oldindan aytib beriladi: barqaror ochiq havo belgilari; xavoni aynishi belgilari; barqaror aynigan ob –havoning belgilari; aynigan ob –havoni ochiq havoga o'zgarishining beligalari.

Barqaror ochiq ob –havo belgilari:

1. Atmosfera bosimi. Xavo bosimi yuqori, kun davomida deyarli o'zgar olmaydi yoki asta-sekin va bir tekis bir necha sutka davomida ko'tarilib boradi.

2. Havo harorati: kunduzi issiq, kechki payt va tunda salqin. Tunda past va ochiq joylarda o'rmon yoki do'nga nisbatan sezilarli darajada sovuqroq. Bahor va kuzda tuproq muzlaydi, sutkalik harorat bir tekisda: yozda kunduzgi issiq, kechasi salqin. Qishda kechasi qattiq sovuq. O'rmonda va balandliklarda botiqlarga qaraganda iliqroq.

3. Shamol: kechasi tinch, kunduzi kuchayadi, kechga tomon yana to'xtaydi. Turli xil yo'nalishda bo'lishi mumkin, odatda bulutlarni harakat yo'nalishi bilan mos keladi.

4. Bulutlik: Osmon tiniq va bulutsiz. Qishda kech tomon shamolsizlik tufayli osmon past qatlam-qatlam bulutlar bilan qoplanadi. Bahor, yoz va kuzda kunduzi to'p-to'p bulutlar hosil bo'lib tushdan so'ng ko'payadi va kechga tomon yo'qolib ketadi. Bulutlar shamol qaysi tomonga esa shu yo'nalishda xarakat qiladi. Ba'zida ertalab baland patsimon bulutlar ko'rinadi, kechga tomon ular ham yo'qoladi.

5. Yog'inlar: yomg'ir yog'maydi, kechasi kuchli shudring tushadi, u ertalab bug'lanib ketadi (baxor va kuzda o'simliklar ustida qirov tushadi). Tundan ertalabgacha pastqamlarda tuman hosil bo'ladi, kuzda esa mayda yomg'ir hosil bo'ladi.

6. Havo namligi: kunduzi quruq, kechasi namlik ko'payadi.

7. Optik xodisalar: Osmon ko'k rangda, oy atrofidagi bulutlardagi tojlar diometri katta. Tun qisqa, yulduzlar xira, zangori somon nur taratadi. Kechki shafaq sariq rangda, Quyosh botayotganda osmon bulutsiz bo'ladi.

8. Boshqa belgilar: gulxan va mo'rilardan chiqayotgan tutun tik ko'tariladi, qaldirg'ochlar baland uchad.

Ob –havoni aynishining belgilari

1. Atmosfera bosimi: xavo bosimi to'xtovsiz pasayadi yoki o'zgarib turadi. Bosim qancha tez pasaysa ob-xavo shuncha tez ayniydi.

2. Xavo xarorati: kunduzgi va kechki xaroratlar farqi kamayadi. Ertalabga nisbatan kech iliqroq. Yomg'irdan so'ng xavo sovimaydi.

3. Shamol: shamol kuchayadi, tekis bo'lib qoladi, kunduzgi va kechasi xam esadi. Yo'nalishi bulutlar xarakati bilan mos tushadi.

4. Bulutlik: bulutlik orta boradi. Avval tez xarakat qiladigan patsimon bulutlar paydo bo'ladi. Ular G'arbdan yoki Janubdan polosa, ot yollari, olov turlari shaklida xarakat qilishadi. Ularning soni ortib boradi, chegaralari yo'qolib boradi, asta – sekin osmonni xamma qismi patsimon-qatlamli bulutlar bilan qoplanadi, so'ngra zich va past bulutlar bilan qoplanadi. Ularning xarakat yo'nalishi er yuzasidagi shamollar yo'nalishiga mos tushmaydi. Agar kunduzgi to'p-to'p bulutlar kechga tomon tog', baland minora shaklida to'plansa, xamda ularning pastki qismi pastga tushsa momoqaldiraq yaqinlashayotgan bo'ladi.

5. Yog'inlar: shudring kechasi kuchsiz yoki yo'q, tumanlar pastqamlarda ko'rinmaydi. Tumanlar, qirov tushgan bo'lsa quyosh chiqquncha yo'qoladi. Past bulutlarni paydo bo'lishi bilan yomg'ir yog'a boshlaydi.

6. Havo namligi: xatto kunduzi xam xavo nam bo'ladi.

7. Optik xodisalar: kunduz osmon xiralashadi. Oyning tojlari kichrayadi. Qorong'ilik uzoqroq davom etadi. Ertalab yulduzlarni miltillashi kuchayadi. Ular qizil yoki ko'k rangda tovlanadi. Ertalabki shafaq qizil, kechkisi – to'q- qizil rangda. Quyosh botishi bulutlar bilan to'silgan bo'ladi.

8. Boshqa belgilar: gulxan va murilardan chiqayotgan tutun er bag'irlab yoyiladi, gullar, o'tlar va oqar suvlar kuchayadi. Qaldirg'ochlar pastlab uchadi.

Barqaror aynigan xavo belgilari.

1. Atmosfera bosimi: xavo bosimi doimo past yoki bir necha sutka davomida pasayishda davom etadi. Bosim tez pasayganda qisqa, ammo shiddat bilan xavo aynishi ro'y beradi.

2. Xavo xarorat: kunduzgi va kechasi xavo xaroratlar kam farq qiladi.

3. Shamol: doimo mo'ta'dil va kuchli, ko'proq janubi-g'arbiy, ba'zan shimoliy-sharqiy. Yo'nalishi kam o'zgaradi.

4. Bulutlik: Osmon to'la past zich qatlam – qatlam yoki qatlam yomg'irli bulutlar bilan qoplangan. Er yuzasi bo'ylab esayotgan shamollar tomon yoki ularga ko'ndalang ravishda xarakat qiladi.

5. Yog'inlar: kuchsiz, ammo to'xtovsiz yomg'ir. Agar to'xtab-to'xtab yog'sa kuchli yog'adi. Er bag'irlab xosil bo'ladigan tumanlar, shudiring va qirov xosil bo'lmaydi.

6. Xavo namligi kechasi va kunduzi davomida sezilib turadi.

7. Optik jarayonlar: bulutlar orasidan ko'rinib turadigan osmon xira, oqish, oydagi toshlar juda kichik. Qorong'ilik uzoq davom etadi. Tunda bulutlar orasidan yulduzlar kuchli miltillab turadi, ko'k va qizil rang taratib turadi. Osmon past bo'lib tuyuladi, uzoq yaxshi ko'rinadi.

8. Boshqa belgilar: aloxida va kuchsiz tovushlarni aniq eshinishi.

Aynigan ob-xavoni yaxshi tomonga o'zgarish belgilari

1. Atmosfera bosimi. Sekin-asta va muntazam ortib boradi. Agar bosim keskin ortsa ob-xavo qisqa vaqt davomida ochiq bo'ladi.

2. Xavo xarorati kunduzi va kechasi keskin farq qiladi. Baxor va kuzda tunda sovuq tushadi.

3. Shamol shiddatli, sovuqroq bo'ladi, yo'nalishini o'zgartiradi, kuchi kamayadi. Uni sutkalik me'yori tiklanadi (kunduzi kuchli –kechga tomon kuchsiz). 4. Bulutlik kamayadi, o'zgaruvchan bo'lib qoladi. Erdan bulutlar ko'tariladi va to'p-to'p bulutlarga aylanadi, er bag'irlab esayotgan shamollar yo'nalishida xarakat qiladi, so'ngra kuzatuvchi ko'z o'ngida «erib», butunlay yo'qoladi.

5. Yog'inlar. Yomg'ir faqat alohida bulutlardan yog'adi va to'xtaydi. Kechga tomon pastkamlarda tuman, o'tlarda esa shudring xosil bo'ladi (kuz va baxorda – qirov).

6. Xavo namligi sezilarli kamayadi. Uning sutkalik o'zgarishi yaqqol namoyon bo'ladi.

7. Optik xodisalar: kunduzgi bulutlar orasidan ko'rinib turadigan osmon toza va tiniq bo'ladi. Oy tojlari kattalashadi, qop-qorong'i davr qisqaradi.

8. Boshqa belgilar: ayrim tovushlarni eshinish darajasi kamayadi. Gulxan va mo'rilardan tutun tik ko'tariladi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Barqaror ochiq ob-xavoda bosim va xarorat qanday o'zgaradi?
2. Shudring va qirov qanday obqxavoda xosil bo'ladi?
3. Bosim to'xtovsiz pasaysa qanday ob-xavo bo'ladi?
4. Xarorat kechasi va kunduzi bir xil bo'lsa qanday ob-xavo bo'lishi mumkin?
5. O'zingiz yashab turgan joyda quyosh botayotganda shavaqning rangini qanday bo'lishini tasvirlab bering.

9. O'lkani gidrologik sharoitini o'rganish

Gidrosferadagi suvlarni gidrologiya (gidro-suv, logos-fan) fani o'rganadi.

O'lka suvlarini o'rganishda tabiiy suv ob'ektlarini barcha turlari tatqiq qilinadi: dengizlar, ko'llar, daryolar, soylar, buloqlar, botqoqliklar, muzloqlar va x.k.

O'lka suvlari ikkita katta guruhga bo'linadi: er usti suvlari; er osti suvlari. Er usti suvlari daryolar, ko'llar, botqoqliklar, muzlar va doimiy qorlardan iborat. Er osti suvlarini turistik sayyohatlarda bevosita o'rganib bo'lmaydi, chunki ular er ostida geologik yotqiziqlari orasida bo'ladi. Agar joyda buloq chiqib turgan bo'lsa, buloqni o'rganish orkali er osti suvlari xakida fikr yuritish mumkin.

Daryolarni o'rganish. O'lkashunoslik maqsadlarida olib boriladigan turistik sayyohatlarda daryolarni o'rganish muhim ahamiyatga ega bo'lgan tatqiqotlardan biri hisoblanadi.

Daryolarni o'rganish quyidagi tartibda olib boriladi: joylashgan havza nomi; manbai va mansabining joylashgan joyi; daryo vodiysi morfologiyasi; gidrologik ko'rsatkichlari (tezligi, qiyaligi, nishabi, suv sarfi, yillik oqim, to'yinishi, me'yori(sathini fasllar bo'yicha o'zgarishi), daryoni muzlashi va muzlarni erishi, daryoning ishi (chuqurlashishi va yonlama eroziya), o'zanni xususiyatlari, ostonalar, sharsharalar, hayvonot dunyosi (baliqlar), ilgarigi, hozirgi va kelajakda xo'jalik maqsadlarida foydalanilishi, daryo suvlaridan oqilona foydalanish va suv resurslarini muhofaza qilish.

O'lka daryolarini o'rganishdan oldin o'rganilayotgan daryo hakida ma'lumotlarni yig'ib tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Daryo joylashgan havzaning nomi xaritadan aniqlanadi. Xaritadan asosiy daryo aniqlanadi. Masalan, o'rganilayotgan joy Ohangaron vodiysida joylashgan bo'lsa, u Sirdaryo havzasiga kiradi. Chunki Ohangaron daryosi Sirdaryoni o'ng irmog'i hisoblanadi. O'rganilayotgan joy Sirdaryoning o'ng irmog'i bo'lgan Chirchiq daryosi havzasida joylashgan bo'ladi. Daryoning havzasi aniqlangandan so'ng daryo havzasiga umumiy ta'rif beriladi: o'zlashtirish darajasi, aholining va aholi manzilgohlarining zichligi va joylanishi, yo'llar va ularning turlari aniqlanadi; o'simlik qoplamini baholashda daraxtlar, butalar, o'tlar alohida ta'riflanadi, o'rmonlarni turlari va ularni qaerlarda tarqalgani tavsiflanadi; vodiya tarqalgan tuproq turlari o'rganiladi. (24-rasm)

Daryo vodiysining morfologik tuzilishi quyidagi tartibda o'rganiladi:

- vodiyning toraygan va kengaygan qismlari aniqlanadi. Vodiyning yuqori qismlari ko'pincha qattiq jinslar tarqalgan joylarda joylashganligi uchun tor va yonbag'irlari tik bo'ladi. Bu erda asosan chuqurlatish eroziyasi sodir bo'ladi. Bu erlarda o'zan ham tor bo'ladi, uning qiyaligi katta bo'lganligi uchun suv tez va shovqinli okadi. Daryo terrassalari umuman bo'lmaydi, bo'lsa ham juda tor bo'ladi;
- daryo tekislikka chiqqach vodiysi kengayadi, o'zan ham kengayadi, daryo ba'zi joylarida to'g'ri, ba'zi joylarida egri-bugri bo'lib oqadi. Turistik sayyohatlarda daryo qaerlarda to'g'ri va qaerlarda aylanish (meandra hosil qilib) oqayotgani kundalikka qayd etiladi. Daryo vodiysining kesmasi ma'lum bir nuqtalarda tuziladi;

-ostonalar va sharsharalar alohida o'rganiladi. Ularning joylashgan joyi, soni, morfologik o'lchamlari (kengligi, balandligi) alohida qayd etiladi. Iloji bo'lsa ularning ko'ndalang va bo'ylama kesmalari tuziladi. Rasmlari olinadi;

-daryoning o'zani alohida o'rganiladi. O'zanning kengligi, chuqurligi, qanday jinlardan tuzilganligi kundalikda alohida qayd etiladi. O'zanning kengligi ko'z bilan chamalab aniqlanadi. O'zanning chuqurligi santimetrlarga bo'lingan tayoq bilan aniqlanishi mumkin. O'zanni toraygan, kengaygan chuqur va sayoz joylari o'rganib, ularni o'rtacha o'lchamlari chiqariladi va kundalikka qayd etiladi;

-daryo yoki soy suv satxi quyidagi tartibda aniqlanadi: a) o'zan, ya'ni suv oqimini ko'ndalang kesimining maydoni aniqlanadi. Masalan, o'zanning kengligi 3 m, chuqurligi 1,2 m. bulsa, uning maydoni $Fq_{1,2q3,6} m^2$ bo'ladi; b) suv oqimining tezligi (V)aniqlanadi. Buning uchun daryo yoki soy kirg'og'idan 10m masofa belgilanadi. Masofani boshlanish joyidan suvga qog'oz yoki boshqa engil narsa tashlanadi. Narsa 10m. masofani qancha vaqtda bosib o'tganligi sekundamer yoki soat sekundameri yordamida aniqlanadi. Masalan, 10m. masofani narsa 20 sek.da bosib o'tdi. Bosib o'tilgan masofani shu masofani bosib o'tish uchun ketgan vaqtga bo'lamiz.

Ya'ni $VqSq_{10q0,5} mG`sek.$

t_{20}

v) oqim tezligini ($Vq_{0,5} mG`sek$), oqimning ko'ndalang kesimi maydoniga ko'paytirsak suv sarfi kelib chiqadi, ya'ni

$QqF \cdot Vq_{3,6} m^2 \cdot 0,5 mG`sekq_{1,8} m^3G`sek.$

Demak, soydan yoki daryodan bir sekunda 1,8 m³ suv oqib o'tayotgan ekan. Mazkur ko'rsatkichni 60ga (1 minutq60 sek.) ko'paytirsak bir minutda oqib o'tayotgan suv sarfini topamiz.

$Qq_{108 \cdot 60q6480} m^3G`soat.$

Xuddi shu tahlitda sutkalik, oylik, yillik suv sarfini aniqlashimiz mumkin.

O'lka ko'llarini o'rganish. Agar joyda ko'llar bo'lsa yoki sayyohat yo'nalishida ko'l uchrab qolsa u quyidagi tartibda o'rganiladi: (25-rasm)

-ko'lning nomi aniqlanadi. Ko'lning nomini topografik yoki turistik xaritadan aniqlash mumkin. Agar ko'lning nomi xaritaga tushirilmagan bo'lsa maxalliy aholidan so'rab bilish mumkin;

-ko'lning geografik o'rni aniqlanadi. Ko'lning geografik o'rni qishloqning yoki shaharning markaziga, daryo vodiysining joylanishiga va boshqa belgilariga qarab aniqlanadi. Masalan, ko'l qishloq markazidan shimolda, daryo vodiysining o'rta oqimida, daryoning chap yoki o'ng qirg'og'ida bo'lishi mumkin;

-ko'lning morfologik o'lchamlari aniqlanadi: uzunligi, kengligi, maydoni, chuqurligi, hajmi. Masalan, ko'lni maydoni uning uzunligi va kengligini ko'paytmasidan iborat, uni ko'lning chuqurligiga ko'paytirsak ko'lning hajmi kelib chiqadi: Ko'lning uzunligi 500m, kengligi 100m, chuqurligi 10m. bo'lsa uning maydoni $500 \cdot 100q50000 m^2$ hajmi $50000m^2 \cdot 10mq_{500000} m^3$ bo'ladi;

- ko'l botig'ining kelib chiqishi aniqlanadi.

-qirg'oqlari relefi o'rganiladi. Tik, yotiq va plyajli qirg'oqlar ajratiladi.

- ko'lning to'yinishi va me'yorlari aniqlanadi. To'yinishi er osti suvlaridan, daryolaridan, soylaridan bo'lishi mumkin. Ko'lga daryo yoki soy oqib kirib, boshqa tomondan oqib chiqib ketsa, u oqar ko'l bo'ladi, agar ko'lga daryo yoki soy quyilib birorta daryo yoki soy oqib chiqib ketmasa u oqmas ko'l bo'ladi;

- ko'lni suvi o'rganiladi: oqimlari, sathini tebranishi, muzlashi, muzdan xalos bo'lishi, suvning harorati, tiniqligi, sho'rliigi, rangi v x.k.

- ko'lni o'simlik va hayvonot dunyosi o'rganiladi. Ko'lni xo'jalik ahamiyatiga baho beriladi. Uni muhofaza qilish masalalari ko'rib chiqiladi.

Botqoqlarni o'rganish quyidagi tartibda olib boriladi: uning nomi, geografik joylanishi, kelib chiqishi, botqoqning turi, hosil bo'lish sharoiti va tuyinishi, uzunligi, chegaralari, maydoni, o'lka suv resurslarini hosil bo'lishidagi ahamiyati, o'simligi, hayvonot dunyosi va xo'jalikdagi ahamiyati.(26-rasm)

Muzliklar o'rganilayotganda ularning quyidagi o'lchamlari aniqlanadi; geografik joylanishi, mutloq balandligi, uzunligi, chegaralari, maydoni, hajmi, vujudga kelish sharoiti, turi (vodiy, osma va x.k), xarakter tezligi va yo'nalishi, fasliy me'yori, muzning ishi. (27-rasm)

O'lkadagi buloqlar o'rganilganda quyidagilarga e'tibor beriladi: nomi, geografik joylanishi, hosil bo'lish sharoiti, oqib chiqayotgan suv miqdori. Harorati, tarkibi, davolash xususiyatlari, xo'jalikda foydalanilishi va x.k.

O'lka ichki suvlarining umumiy xususiyatlarini aniqlash uchun o'lkaning tabiiy geografik va gidrologik xaritalarini ko'rib chiqish lozim. Ular va boshqa manbaalar asosida o'lka gidrologik sharoitining asosiy tarkibiy qismlari hakida ma'lumotlar yig'ish mumkin.

Olingan ma'lumotlarni tahlili asosida o'lka gidrografik sharoitlariga atmosfera yog'inlari, joyning geologik rivojlanish tarixi, relefi, o'simlik qoplami qanday ta'sir qilishini aniqlash mumkin va o'lka tabiatini qo'riqlashni va ulardan oqilona foydalanishni dolzarb muammolarini o'rganish mumkin.

Savol va topshiriqlar.

1. Er yuzasidagi suvlarni qaysi fan o'rganadi?
2. O'lka suvlari nimalardan iborat.
3. Daryolarni o'rganish tartibini gapirib bering.
4. O'z yashab turgan joyingizdagi daryo, soy, ariq va kanalning suv sarfini aniqlang?
5. Ko'llar, botqoqlar, muzlar va buloqlar qanday tartibda o'rganishini jadvalini tuzing.

10. O'lka tuprog'i, o'simligi va hayvonot dunyosini o'rganish.

Joyning tuproq qoplami, o'simliklari va hayvonot dunyosini o'rganish ularni o'zgarishining asosiy yo'nalishlarini aniqlash va ularni muhofaza qilishning chora tadbirlarini ishlab chiqish o'lkashunoslik maqsadlarida olib boriladigan muhim tatqiqotlardan biri hisoblanadi.

Tuproq qoplamini o'rganish. O'lka tuproqlari haqidagi ma'lumotlar ni tuproq xaritasidan, adabiyotlardan va bevosita dalada olib borilgan tatqiqotlar natijalaridan olish mumkin.

Ma'lum bir joydagi tuproqlarni o'rganish o'sha joydagi tuproq qatlamlarini o'rganish, ularni tavsiflash va namunalar olishdan iborat.

Tuproqlarni o'rganish quyidagi tartibda olib boriladi:

- joyda tarqalgan asosiy tuproq turlari aniqlanadi;
- joydagi tuproq turlarini alohida relef shaklida tarqalishi va ularni er osti suvlari sathiga bog'liq ravishda o'zgarishi aniqlanadi;
- tuproq qoplamini o'simlik turlari bilan bog'liqligi baholanadi;
- tuproqlarning hosildorligi va xo'jalikda foydalanish darajasi o'rganiladi;
- eroziyadan, sanoat va maishiy chiqindilar bilan ifloslanishdan muhofaza qilish yo'nalishlari aniqlanadi;
- olib borilgan ishlar natijasida joyning tuproq xaritasi tuzila O'simlik qoplamini o'rganish. O'simlik qoplamini o'rganish tabiiy sharoitga umumiy baho berishni asosini tashkil qiladi. Chunki o'simliklarni o'zgarishiga qarab tabiiy sharoitni ifloslanganlik darajasini aniqlash mumkin. O'simliklar tabiat komplekslarini xolatini indikatorini hisoblanadi. Shuning uchun o'lkani o'simlik qoplamini muntazam kuzatib turish lozim.

O'lkashunoslar o'simliklarni ma'lum bir tajriba maydonlarida o'rganishi mumkin. tajriba maydonchalari vaqtincha va doimiy bo'lishi mumkin (ko'p yil davomida kuzatish uchun). Maydonchalar bir xil o'simliklar tarqalgan joylardan tanlanadi, bunda joyning relefi, grunt suvlari, tuprog'i bir xil bo'lmog'i lozim.

O't o'simliklarni o'rgananda maydonchani o'lchami 100m² (10x10), o'rmonlarni o'rgananda 400m² bo'lishi zarur.

O'simlik qoplami quyidagi tartibda o'rganiladi:

1. O'simlik qavatlarini (yaruslari) aniqlanadi: daraxtlar; butalar; butachalar; o'tlar, moxlar, lishayniklar.
2. O'simliklar turlari aniqlanadi (maydoncha doirasida). Keng tarqalgan turlar bilan bir qatorda, juda kam turlar ham aniqlanadi. Aynan ana shu kam uchraydigan turlar o'simliklarni kelajakda rivojlanish yo'nalishi yoki ularni degradatsiyasini ko'rsatib berishi mumkin. Mabodo ayrim o'simliklarni nomini sayyohat davomida aniqlash mumkin bo'lmasa, ular raqamlanadi va xuddi shu raqamda gerbariy olinadi va so'ngra aniqlovchi ma'lumotnomadan yoki biologiya o'qituvchisi yordamida aniqlanishi mumkin.

O'simlik turlarini ro'yhati tuzilganda, avval eng keng tarqalgan o'simlik turlaridan boshlanadi, so'ngra kamroq tarqalganlari qo'shiladi. Har bir tur o'simlik jamoasi tarqalgan maydonda uning ko'p yoki ozligi yozib qo'yiladi. Buning uchun nemis olimi Drude tomonidan tavsiya qilingan olti ballik shkaladan foydalanish mumkin. bunda o'simliklar turini tarqalish darajasi ballarda quyidagicha aniqlanadi: 1-juda kam; 2-kam; 3-onda-sonda; 4-ko'p; 5-juda ko'p; 6-serob.

3. Joyni o'simlik bilan qoplanganlik darajasi. Agar tuproq qatlami ko'rinmasa, hamma joy o'simlik qoplangan bo'lsa, joyni qoplanganlik darajasi 100% bo'ladi.
4. O'simliklarni uchrash darajasi-har bir o'simlik turini joylanishi (bir xil yoki guruhsimon).

5. Hayotiyliги-Usimliklarni rivojlanish darajasi yoki o'simliklarni «sog'ligi» darajasi. Quyidagi ko'rsatkichlarda aniqlanadi: yaxshi; qoniqarli; yomon.
6. O'simliklarning fenologik fazalari-ularni fasliy rivojlanish bosqichlari. O't o'simliklarini rivojlanishida quyidagi fazalar ajratiladi: unishi; vegetativ xolati; kurtaklanish; gullashi; g'o'ralarni tugishi; pishishi; mevalarni va urug'larni to'kilishi; o'lishi.
7. O'simliklarni rangini aniqlash.
8. O'simliklarning hosildorligini aniqlash. 1m² maydondagi o'simliklar o'riladi, ular tortiladi, so'ngra quritilib, yana tortiladi. Ho'l va quruq o'simliklar og'irligi gektar hisobida aniqlanadi. Shu yo'l bilan yaylov yoki pichanzor sifatida foydalanish uchun tavsiya etiladi.

Kuzatish natijalari maxsus blankalarga yozib boriladi va kelajakda bo'ladigan tadqiqotlar natijalari bilan solishtirish uchun saqlab qo'yiladi.

Hayvonot dunyosini o'rganish. O'lka xayvonot dunyosini nashriy manbaalar asosida o'rganish mumkin. Mazkur nashriy manbaalar asosida o'lka hayvonot dunyosi haqida umumiy ma'lumotlar olinadi. Ma'lum bir hududdagi hayvonot olami zootsenozlar deb ataladi.

Hayvonot dunyosini o'rganish quyidagi tartibda olib boriladi:

- hayvonning nomi (ilmiy va maxalliy);
- zoologik tavsifi(otryad, oila, tur);
- hayvonni tashqi ko'rinishini tavsifi;
- o'lkada tarqalish areali, boshqa hayvonlar bilan munosabati, hayot sharoiti, ovqatlanishi, ko'payishi, bolasining parvarishi, ko'chib yurishi;
- amaliy ahamiyati va turdan foydalanish, turlarni muxofaza qilish va sonini tiklash masalalari.

Joyda bevosita hayvonlarni o'rganish ko'p xollarda amalga oshmaydi, shuning uchun hayvonot dunyosining izlarini o'rganish ham muhim ma'lumotlarni beradi (ini, daraxt kovagi), ovqatlanish joylari, ko'chish yo'llari, so'qmoqlar va x.k.

Hayvonlarni qo'riqxonalarda, bog'larda va dam olish zonalarida bevosita o'rganish mumkin.

Suv hayvonlari alohida o'rganiladi. Bunda baliqlar, ilonlar, baqalar va boshqa suv hayvonlari va ularning turlari alohida jurnalda qayd etiladi.

11. Fenologik kuzatishlar

Fenologiya – amaliy bilishlar sohasi bo'lib tabiatni fasliy rivojlanish qonuniyatlarini va uning barcha tarkibiy qismlarini dinamik bog'liqligini o'rganadi.

Maxalliy fenologik kuzatishlar natijalari qishloq xo'jalik ishlarini to'g'ri olib borishga, o'rmonlarda, erlardan, bog'lardan, suv xavzalaridan to'g'ri foydalanishga yordam beradi.

Fenologik kuzatishlar quyidagilardan iborat:

- Atmosferada, suv havzalarida, o'simlik va xayvonot olamida va aholiga xo'jalik faoliyatidagi, fasliy xodislarni bilishni, davomiyliги va tugash sanalarini

aniq belgilashdan iborat. Buning uchun o'lkaga uchun eng xos bo'lgan landshaftlar, suv xavzalari, o'simlik va xayvonot turlari tanlaniladi;

- Kuzatish natijalari kundalikka qayd etib boriladi, ular orasida fenologik kalendar tuziladi. Bir necha yillar davomidagi kuzatishlar natijalarini qiyoslash asosida joy tabiatidagi fenologik fazalarining boshlanishi va tugashi o'rtadagi muddatlarini aniqlash mumkin.

Fenologik kuzatishlar quyidagi qismlardan iborat: gidrometeorologik xodisalarni kuzatish; daraxtlar va butalarning fenologik fazalarini kuzatish; donli ekinlarni rivojlanishini kuzatish; qushlarni fenologik fazalarini kuzatish; qishloq xo'jalik ishlarini borishini kuzatish.

Gidrometeorologik xodisalarni kuzatish

1. Dastlabki qor erishini boshlanishi.
2. Qorni tez erishini boshlanishi.
3. Qor qoplamini yo'qolishi.
4. Daryolarni muzdan xoli bo'lishi.
5. Bahordagi to'lin suv davrini boshlanishi.
6. Ko'llardagi va xavzalardagi muz qoplamini yo'qolishi.
7. O'rmonlarda qorlarni batamom erib ketishi.
8. Dastlabki to'p-to'p bulutlarni paydo bo'lishi.
9. Bahordagi birinchi yomg'ir.
10. Bahordagi ilk momoqaldiraq.
11. Havodagi ohirgi sovuq urush (00dan past bo'lgan oxirgi kun).
12. Tuproqni oxirgi muzlashi.

Daraxtlarni va butalarni fenologik rivojlanish davrini kuzatish.

1. Daraxt tanalarida dastlabki suv xarakatini boshlanish davri. Daraxt tanasini kungay tomonida qilingan kavakdagi havo harorati Q50 bo'lganda kuzatish natijalari asosida aniqlanadi.
2. Kurtaklarni hosil bo'lishi.
3. Dastlabki barglarni chiqishi.
4. Daraxtlarni gullashini boshlanishi.
5. Daraxtlarni yoppasiga gullashi.
6. Mevalarni va urug'larni etilishini boshlanishi.
7. Kuzda daraxt barglarini sarg'ayishi.
8. Daraxt barglarini to'kilishini boshlanishi.
9. Daraxt barglarini to'la sarg'ayishi.
10. Daraxt barglarini to'la to'kilishi.
11. Daraxtlar va butalarni qayta gullashi.

Donli ekinlarni rivojlanishini kuzatish.

1. Ilk unub chiqishi.
2. Yoppasiga unib chiqishi.
3. Uchunchi bargni paydo bo'lishi.
4. Novdalarni yoyilishi.
5. Boshq olishni boshlanishi.
6. Boshqolanishi.
7. Gullashi.
8. Sutli donni hosil bo'lishi.
9. Hamirli donni hosil bo'lishi.
10. To'la pishib etilishi.

Qushlarni hayotdagi fenologik fazalarni kuzatish.

1. Qushlarni bahorgi uchib o'tishi (qishlab qolgan qushlarni uchib ketishi).
2. Qushlarni bahorgi uchib kelishi.
3. In qurishni boshlanishi.
4. Dastlabki bolalarni ochib chiqishi.
5. Qushlarni kuzgi galalarini paydo bo'lishi.
6. Kuzda uchib o'tish.

Qishloq xo'jalik ishlarini borishini kuzatish.

1. Erni baxorgi ishlovini boshlanishi (shudgorlanishni, boronalashni, kultivatsiya qilishni boshlanishi).
2. Dala ishlarini boshlanishi (ekishni va ko'chat o'tkazishni boshlanishi).
3. Ekinlarni parvarishlashni boshlanishi.
4. Kuzgi shudgorlanishni boshlanishi.

Savol va topshiriqlar

1. Fenologiya fani nimani o'rganadi?
2. Fenologik kuzatishlar qanday qismlardan iborat?
3. O'z yashash joyingizda qorlar qachon batamom etib ketid?
4. O'z yashab turgan joyingizda birinchi qaldirg'och qachon uchib keladi?
5. O'z yashab turgan joyingizda barhorda qanday atmosfera hodisalari sodir bo'ladi (momqaldiraq, chaqmoq, do'l, jala, sel), ular haqida gapirib bering?
6. Oxirgi besh yilda yashab turgan joyingizda sovuq urushlar yoki qurg'oqchiliklar sodir bo'lgan bo'lsa ular qanday meva va ekinlarga zarar etkazgani haqida gapirib bering.
7. Yashash joyingizdan kuzda qanday qushlar va qachon uchib ketadi?
8. Yashab turgan joyingizda qanday ekinlar qachon ekilishi haqida so'zlab bering?

9. Kuzda qanday ekinlar ekiladi?

12. O'lka tabiatini muxofaza qilishni o'rganish.

Hozirgi davrda fan va texnikaning yuksak suratlarda rivojlanishi munosabati bilan XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, jamiyatni tabiatga bo'lgan ta'siri kuchayib ketdi.

Natijada atmosfera havosi, suv, tuproq va o'simlik qoplami ifloslandi, ancha erlarni katta miqiyosda o'zlashtirilishi, foydali qazilmalarni qazib olishi oqibatida madaniylashgan o'zgartirilgan va buzilgan landshaftlar vujudga keldi.

O'lka tabiatini muxofaza qilishni o'rganish quyidagi tartibda olib boriladi:

1. Joydagi xo'jalikning asosiy tarmoqlari o'rganiladi. Ularga qishloq xo'jalik korxonalarini (fermer xo'jaliklari), suv xo'jaligi inshootlari (kanallar, suv omborlari va x.k.), sanoat va transport korxonalarini kiradi. Har birini tabiatga bo'lgan ta'siri baxolanadi.

2. Tabiatni bevosita ifloslaydigan manbaalari aniqlanadi. Ularga maishiy chiqindilar tashlanadigan joylar, sanoat chiqindilar tashlanadigan joylar, atmosfera va gidrosferani ifloslovchi manbaalar aniqlanadi.

3. Tabiat komponentlari halatiga baho beriladi. Mazkur ish quyidagi tartibda bajariladi:

- tuproqlarni sho'rlanganlik darajasini aniqlash. Sho'rlangan joylarning yuzasi oqarib tuzlar bilan qoplanib yotadi. O'simliklar va ekinlar o'smaydi.

Botqoqlashgan joylarni aniqlash. Shamol va suv eroziyasiga uchragan joylar aniqlanadi. Sho'rlangan, botqoqlashgan va eroziyaga uchragan joylar maydoni aniqlanadi va ularni umumiy maydondagi ulushi aniqlanadi;

- tabiiy o'tloqlar, pichanzorlar, va yaylovlarni holatiga baho beriladi. Ularda o'simliklarning turi, qalinligi, foydali va begona o'tlarning nisbati aniqlanadi;

- tabiiy suv xavzalarining ifloslanganlik darajasi aniqlanadi. Buning asosiy beligisi bo'lib, ulardan ichimlik suvi sifatida foydalanish darajasi hisoblanadi;

- joyda tabiiy va antropogenlandshaftlar nisbati aniqlanadi.

Antropogen landshaftlarga quyidagilar kiradi: qishloqlar, shaxarlar, qishloq xo'jalik erlari, bog'lar, uzumzorlar va x.k. Ularning umumiy maydoni aniqlanadi, so'ngra tabiiy landshaftlar maydonni solishtiriladi. Agar antropogen landshaftlar maydoni umumiy maydoni 50-75% ni tashkil qilsa o'lka tabiati kuchli o'zgargan, 30-50%ni tashkil qilsa o'rtacha, 30% dan kamini tashkil qilsa kam o'zgargan bo'ladi.

So'ngra joyning geoeologik haritasi tuziladi, unda kuchli o'zgargan, o'rtacha o'zgargan, kuchsiz o'zgargan, madaniylashgan landshaftlar ko'rsatiladi. Tabiatni ifloslantiruvchi manbaalar alohida ko'rsatiladi.

Savol va topshiriqlar

1. O'lka tabiatini o'zgarishiga va ifloslanishiga ta'sir etuvchi manbaalarni aniqlang?
2. Tuproqni ifloslanishi qanday o'rganilishini gapirib bering.
3. Antropogen landshaftlarga nimalar kiradi va ularning qaysi turlari sizni yashayotgan joyingizda uchraydi?
4. Geoekologik xaritada nimalar ko'rsatiladi?
5. Yashayotgan joyingizda tabiatni qanday tarkibiy qismlari ko'proq o'zgarishga uchragan (xavo, suv, tuproq, o'simlik, xayvonot dunyosi, landshftlar)?

13. O'lka tabiiy resurslarni o'rganish.

Tabiiy resurslar deganda insonni xo'jalik faoliyatida foydalanadigan tabiiy sharoit va tabiat komponentlari tuziladi.

Tabiiy resurslarni geografiya faning tabiiy resurslar geografiyasi tarmog'i o'rganadi.

Tabiiy resurslar quyidagi guruhlariga bo'dinadi: iqlimiy resurslar, suv resurslari, er resurslari, mineral resurslar, biologik resurslar, rekreatsion resurslar va x.k. Ma'lum bir xududda u yoki bu resurslar tarqalgan bo'lishi mumkin. Ammo er resurslari barcha hududda albatta bo'ladi.

O'lka tabiiy resurslari quyidagi tartibda o'rganiladi:

1. Joyning iqlimiy resurslari asosan iqlimiy haritalar hamda meteorologik ma'lumotlar orqali aniqlanadi. Iqlimiy resurslarga baxo berilganda quyidagi ko'rsatkichlarga e'tibor beriladi: yillik o'rtacha harorat; yillik o'rtacha yog'in miqdori; effektiv harakatlar yig'indisi (Q100dan yuqori bo'lgan yillik haroratlar yig'indisi). Faslarning boshlanishi va tugash davrlari. Dastlabki va oxirgi sovuq urushlar. Yillik quyosh radiatsiyasining miqdori. Qor qoplami, uning qalinligi va erish davri. Shamollar, ularning yo'nalishi va tezligi. Falokatli atmosfera hodisalarini qaytarilish (do'l, jala, sel, sovuq urushi, qurg'oqchilik).
2. Joyning suv resurslari quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: a) er usti suvlari – daryolar, ko'llar, botqoqlar, muzlar; b) er osti suvlar – grunt va qatlamli suvlar. Joyda suv tarkiblarining qaysi qismi tarqalgan bo'lsa o'sha resurs to'la o'rganiladi. Daryolar, ko'llar, botqoqlar, muzlarni o'rganilish tartibi tegishli bo'limlarda to'la yoritilgan.

Shuning uchun suv resurslarini o'rgangandi va ularga baxo berganda quyidagilarga e'tibor beriladi:

- ulardan xo'jalikning qaysi soxalarida foydalanilmoqda;
- ularning qancha qismi sug'orishda va aholini suv ta'minotida ishlatiladi;
- ularni ifloslanish darajalari qay ahvolda ;
- ulardan samarali foydalanilmoqda yoki isrofgarchilikka yo'l qo'yilmoqdami.

3. Er resurslari, ularni sifati va maydoni har qanday o'lkani asosiy tabiiy boyliklaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Davlat, viloyat, tuman yoki ma'lum bir ma'muriy birlik hududdagi erlar er fondi deb ataldi.

Er resvrlari quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: qishloq xo'jalikda foydalaniladigan erlar, o'rmonlar, yaylovlar foydalanilmaydigan erlar, turli tashkilotlar ixtiyorida erlar.

Joyni er resurslariga baxo berilganda ishlov beriladigan erlarga ko'proq e'tibor beriladi. Ular hamma joyda eng qimmat baho erlar hisoblanad. Ishlov beriladigan erlar sug'oriladigan va sug'orilmaydigan (lalmi) bo'lishi mumkin. ishlov beriladigan erlarning maydoni va ularni o'lkaning umumiy maydonidagi ulushi hamda maxsuldorligi aniqlanadi.

4. Mineral resurslar nashr qilingan manbaalardan olingan ma'lumotlar hamda bevosita o'lka xududida olib borilgan tadqiqot ishlari asosida o'rganiladi. Mineral resurslar ko'pincha foydali qazilmalar deb tariflanadi.

Foydali qazilmalar uch ta katta guruhga bo'linadi: metali va nometall foydali qazilmalar, hamda yoqilg'i - energetika foydali qazilmalari.

Metali foydali qazilmalarni o'zi rangli va qora metallarga bo'linadi.

Nometall foydali qazilmalar o'z navbatida qurilish xomashyosi kvartslar, tog'-ximiya xomashyosi va boshqa guruhlarga bo'linadi.

Yoqilg'i - energetika foydali qazilmalarga ko'mir, neft, gaz va yonuvchi slanetslar kiradi.

Mineral resurslarni o'rganishda quyidagilarga e'tibor beriladi:

- joyda qanday foydali qazilmalar qazib olinadi va qachondan buyon;
- foydali qazilma koni qaysi usulda qazib olinadi (ochiq yoki yopiq (shaxta));
- qurilish xomashyosidan qanday turlari tarqalgan (g'isht xomashyosi, shag'al, qum, oxaktosh, marmar, granit va x.k.) va ularni qaysilari qazib olinadi va qaerlarga jo'natiladi.

Ma'lumotlar etarli bo'lgan taqdirda o'lka foydali qazilmalar xaritasini tuzish mumkin.

Mineral resurslar o'rganib bo'lingandan so'ng joy yoki o'lka foydali qazilmalar haqida xisobod yoziladi va iloji bo'lsa u maxalliy matbuotda nashr qilinishi mumkin.

5. Biologik resurslarga yaylovlar, tabiiy pichanzorlar, o'rmonlar, yovvoyi xayvonlar xo'jalikda ishlatiladigan dorivor o'simliklar, hayvonlar kiradi.

Joydagi yaylovlar, pichanzorlar o'rganilganda ularni maydoni, maxsuldorligi, o'simliklarning turlari aniqlanadi.

O'rmonlarni o'rganilganda ham ularni maydoni, daraxtlar turlari, ularni zichligi, balandligi aniqlanadi va har bir gektarga yoki 1 km² ga to'g'ri keladigan yog'och zaxirasi (m³da) aniqlanadi.

Agar joyda dorivor o'simliklar bo'lsa ularning tarqalgan maydoni, gullash, etilish davri aniqlanadi. Masalan, isiriq, rovoch, do'lana va x.k.

Xayvonot dunyosi biologik resurslarning muxim qismi bo'lib ularga mo'yna beradigan (ondatra, qunduz), go'sht beradigan (sayg'oq, to'ng'iz, baliqlar, qushlar) xayvonlar kiradi.

6. Rekreatsiya resurslariga dam olish maskanlari kiradi.

Tabiiy va madaniy rekreatsiya resurslari ajratiladi. Tabiiy rekreatsiya resurslariga xushmanzara tabiat go'shalari kiradi: daryo soxillari, tog'lar, ko'l soxillari,

vodiylar, to'qaylar, o'rmonlar, sun'iy bog'lar, tabiiy yodgorliklar va ajoyib relef shakllari, shifobaxsh buloqlar kiradi.

Madaniy rekreatsiya resurslarga quyidagilar kiradi. Tarixiy shaxarlar, tarixiy binolar, tarixiy joylar, dam olish bog'lari, teatrlar kiradi.

Rekreatsiya resurslari o'rganilganda joyda tabiiy yoki rekreatsiya ob'ektlaridan qaysi turlari va qaerlarda tarqalgani aniqlanadi va ularni tavsifi tuziladi. Ular asosida joyni yoki o'lkani turistik xaritasi tuziladi. Turistik xarita topografik xaritaga yoki joyni tabiiy xaritasiga tushirilishi mumkin. turistik xaritada ajoyib tabiat yodgorliklari (g'orlar, turli xil relef shakllari, xushmanzara joylar va x.k.), tarixiy va madaniy yodgorliklari, vokzallar, aeroportlar (agar mavjud bo'lsa) avtostantsiyalar, turistik bozorlar, dam olish zonalari va boshqa ob'ektlar tasvirlana

Savol va topshirqlar

1. Tabiiy resurslar deganda nimani tushunasiz?
2. Tabiiy resurslarni geografiya fanini qaysi tarmog'i o'rganadi?
3. Tabiiy resurslar qanday guruhlarga bo'linadi?
4. Yashab turgan joyingizda qanday foydali qazilmalar tarqalgan? Ularni jadvalini tuzing.
5. O'lkamizda suv resurslarining qanday turlari mavjud?
6. Biologik resurslar deganda nimani tushunasiz?
7. Yashash joyingizda dorivor o'simliklarning qanday turlari tarqalagan?
8. O'lkamizda qanday tarixiy va madaniy yodgorliklar mavjud?

14. O'lka axolisini o'rganish

Axolini geografiya fanini axolii geografiyasi tarmog'i va demografiya fani o'rganadi.

Har qanday o'lka yoki joyning aholisini o'lkashunoslik maqsadlarida o'rganilganda quyidagi ko'rsatkichlar aniqlanadi: soni, tabiiy o'sishi, migratsiya, ijtimoiy-demografiya tarkibi, joylashishi, ma'orif va madaniyatni rivojlanishi.

Axolini soni deganda o'lkadagi barcha axolii manzilgohlari aholisi sonini yig'indisiga aytiladi.

Turli yillardagi axolii soni ko'rsatkichini qiyoslash asosida o'lka axolisini dinamikasini (o'sishi yoki kamayishini) aniqlash mumkin.

O'lka axolisi sonini uning maydoniga nisbati zichlik deb ataladi va quyidagi ifoda orqali aniqlanadi.

Masalan, o'lka axolisi 10000 kishi, o'lka maydoni 5000 km² bo'lsa uning zichligi quyidagicha aniqlanadi:

Demak, o'lka aholisining zichligi 1 km² ga 2 kishi ekan. Ya'ni bir kvadrat kilometrda 2 kishi yashashi mumkin.

Axolining tabiiy ko'payishini o'lkada ma'lum bir vaqtda (bir yilda) tug'ilganlar va o'lganlar nisbatiga qarab aniqlanadi. Masalan, o'lkada bir yilda 10000 bola

tug'ildi, shu yildagi o'lganlar soni 6000 kishi, unda tabiiy ko'payish 10000-6000q4000 kishi. Demak, o'lka axolisi bir yilda 4000 kishiga ko'paygan. Tug'ilish deganda o'lkada bir yilda 1000 kishiga to'g'ri keladigan tug'ilgan soni tushiniladi.

O'lim deganda o'lkada bir yilda 1000 kishiga to'g'ri keladigan o'lganlar soni tushiniladi. Agarda tumanda axoli soni 45 ming kishi bo'lsa, bir yilda tug'ilganlar soni 675 ta, o'lganlar soni 495 kishi bo'lsa, tug'ilish bir yilda 1000 kishiga 15 kishi (675:45q15), yoki 1,5%, o'lim darajasi bir yilda 1000 kishiga 11 kishi (495:45q11), yoki 1,1%. Demak, o'lka bo'yicha axolining tabiiy o'sishi bir yilda 1000 kishiga (tug'ilganlar va o'lganlar farqi 15-11q4) 4 kishi, yoki 4%.

O'lka axolisi faqat tug'ilish hisobiga emas, balki aholini ko'chib kelishi yoki ko'chib ketishi natijasida ham o'zgarib turadi. Agar bir yilda o'lkaga 500,0 kishi ko'chib kelsa, o'lka aholisi 500,0 kishiga ko'payadi. Masalan, tabiiy o'sish o'lkada bir yilda 4000 kishi bo'lsa, axolining umumiy ko'payishi 4000Q500,0q4500 kishini tashkil qiladi.

Axolining ijtimoiy – demografik tarkibiga jinsiy, yosh, milliy, sotsial, kasbiy tarkibi, shaxar va qishloq aholisi kiradi.

Axolining jinsiy tarkibi deganda o'lkadagi erkak va ayollar sonining nisbatiga aytiladi. Aholining yosh tarkibi deganda turli yoshdagi kishilar soning nisbati tushuniladi. Yosh tarkibiga qarab yoshlarga (1-16 yoshgacha), ishga yaroqlilarga (ayollar 16-54, erkaklar 16-59yosh) va qariyalarga bo'linadi (60 va undan katta yoshdagilar).

Axolining milliy tarkibi deganda o'lka aholisini sonida turli millat vakillarining ulushi tushiniladi. Axolining onalalik darajasi o'lkadagi oilalar soni bilan belgilanadi. Oilalar sonini axolining umumiy soniga nisbati oilalarning o'rtacha kattaligini belgilab beradi.

Axolini o'lkashunoslik maqsadlarida o'rganishda shaxar va qishloq aholisining nisbati ham muxim ahamiyatga ega. Agar o'lkada shaxar axolisini salmog'i katta bo'lsa urbanizatsiya darajasi yuqori bo'ladi, qishloq aholisining soni ko'p bo'lsa, urbanizatsiya darajasi past bo'ladi.

Urbanizatsiya – bu o'lkada shaxar axolisi sonini ortishi darajasini ko'rsatadi. Agar o'lkada shahar aholisi 50% dan ortiq bo'lsa urbanizatsiya darajasi yuqori, 50% dan past bo'lsa urbanizatsiya darajasi past bo'ladi deb xisoblash mumkin.

Bundan tashqari aholining o'qimishlilik darajasini o'rganish ham muhim ahamiyatga ega. Axolining o'qimishlilik darajasi uni sifat ko'rsatkichini aniqlab beradi.

Aholining umumiy sonida oliy ma'lumotlilarning ulushi uni sifat ko'rsatkichini belgilab beradi.

O'lkashunoslik maqsadlarida aholi quyidagi tartibda o'rganiladi:

1. Aholining soni, o'sishi, o'lkani mintaqa axolisining umumiy sonidagi ulushi. Tug'ilish, o'lim, tabiiy o'sish, oilaviylik.
2. Axolining jinsiy va yosh tarkibi. Mexnatga yaroqli axolii soni. Uzoq-umr ko'ruvchilar soni.
3. Axolining milliy tarkibi, turli millatlarning o'lka bo'ylab joylashishi va soni.

4. Aholining ijtimoiy tarkibini o'zgarishi; Axolining halq xo'jaligi tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishi. Ulkaning mexnat resurslari va ulardan foydalanish.
5. O'lkadagi shaxarlar va qishloqlar, ularni joylanishi. Shaxar aholisining ulushi. Shaxarlarning turlari. Qishloqlarning turlari va tarqalishi.
6. Axolining o'lka xududi bo'yicha tarqalishi. O'rtacha zichligi, turlicha zichlikning sabablari.
7. Aholining ma'lumotlilik darajasi. Ularni umumiy axolii sonidagi ulushi.
8. Aholini ko'chib yurishi, ularni sabablari va ko'chish yo'nalishi.

Savol va topshiriqlar

1. Aholini qaysi fan o'rganadi?
2. Aholi soni deganda nimani tushunasiz?
3. O'lkada aholining umumiy soni 50000 kishi, o'lka maydoni 4000 km² bo'lsa, aholining o'rtacha zichligini aniqlang.
4. O'lkada tug'ilganlar soni 1438, o'lganlar soni 535 kishini tashkil qilsa aholining tabiiy o'sishini aniqlang.
5. Qaysi yoshlarda ayollar va erkaklar mexnatga yaroqli hisoblanadi?
6. O'rbanizatsiya deganda nimani tushunasiz?

15. O'lka shaxar va qishloqlarini o'rganish.

Shaxar va qishloqlar axolini zich to'plangan va asosiy yashash makonidir.

Har qanday axolii manzilgoxi, ya'ni shaxar va qishloqlar kelib chiqishi, rivojlanishi va joylanishi bilan boshqa joylardan keskin farq qiladi.

Shaxarlarni o'lkashunoslik maqsadlarida o'rganishda ularning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga asosiy e'tibor beriladi. Shaxarlar joylashgan muxit, uni arxitekturasi, ko'chalarini tuzilishi, sanoat korxonalarini, madaniy va maishiy ob'ektlarini joylashishi aloxida o'rganiladi.

Qishloqlarni o'lkashunoslik maqsadida o'rganilganda ularning soniga, zichligiga, joylanish sharoitiga, tuzilishiga, ixtisosligiga, arxitekturasiga, suv va energiya ta'minotiga katta e'tibor beriladi.

O'lkadagi shaxarlar quyidagi tartibda o'rganiladi:

1. Geografik joylanishi: matematik geografik joylanishi, ya'ni uning kengligi, uzunligi, geografik koordinatasi xarita yordamida aniqlanadi; tabiiy geografik joylanishi, yirik daryolarga, tog'larga, ko'llarga, tekisliklarga nisbatan joylanishi; iqtisodiy geografik joylanishi – davlat, viloyat, tuman markaziga, yirik sanoat markazlariga, transport tugunlariga nisbatan joylanishi.

Masalan, yuqoridagi ko'rsatkichlarni Andijon viloyatidagi Xonobod shaxri misolida ko'rib chiqamiz. (29-rasm)

Xonobod shaxri O'zbekistonni eng sharqiy chekkasida joylashgan. U deyarli 410 shimoliy kenglikda va 730 sharqiy uzunlikda joylashgan. Xonobod shaxri tabiiy geografik jixatdan Qoradaryoning o'ng qirg'og'ida adir oldi terrasalarda, Farg'ona vodiysining sharqiy qismida joylashgan. Uning sharqiy qismida Andijon (Kampirrovot) suv ombori qurilgan. Xonobod shaxri viloyat markazi Andijondan 50-60 km sharqda joylashgan, Tuman markazi Qo'rg'ontepa shaxridan 20km

masofada joylashgan. Xonobod shaxridan temir yo'l o'tgan, mazkur temir yo'l shaxarni Andijon, Toshkent shaxarlari bilan bog'laydi. Shaxarlardan Bishkek-O'sh avtomobil yo'li o'tgan.

2. Vujudga kelish tarixi, mazkur joyda joylanish sababi, nomini kelib chiqishi, rivojlanish bosqichlari, yirik va mashxur namoyondalar.

Masalan, Xonobod shaxri Andijon suv omborini qurilish munosabati bilan Xonobod, Qorobog'ish qishloqlari o'rnida XX asrning 70-yillarida Sovetobod nomi bilan tashkil qilindi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng Xonobod shaxri deb atala boshladi. Shaxarni rivojlanish bosqichlari bevosita Andijon suv ombori va boshqa sanoat korxonalarini barpo etilishi bilan bog'liq. Xonobod shaxridan mashxur kishilar etishib chiqqan, O'zbekiston xalq artisti Soib Xo'jaev Xonobodda tug'ilgan.

3. Axolining soni va tarkibi. Axolini o'rganish tartibi 12§ berilgan.

4. Sanoatining asosiy tarmoqlari. Sanoat korxonlari va ularning aloqlari.

5. Uy-joy qurilishi va shaxarni obodonlashtirilishi. Shaxar transporti, aloqa va savdo tizimi, umumiy ovqatlanish korxonalari, bozorlari, sog'liqni saqlash muassasalari.

6. Ma'orif, madaniy oqartuv va sanoat muassasalari.

7. Tarixiy va diqqatga sazovor joylari.

8. Kelajakda rivojlantirish istiqbollari.

Qishloqlarni o'rganish tartibi quyidagi bandlardan iborat:

1. Qishloqning geografik joylashishi: yaqin shaxar, tuman markazi, yo'llarga nisbatan joylashishi, tabiiy ob'ektlarga nisbatan joylanishi (daryo, soy, ko'l, suv ombor, tog', tekislik va x.k.);

2. Qishloqning vujudga kelish tarixi, nomini mazmuni va mohiyati;

3. Aholisining soni va tarkibi, qishloqning ishlab chiqarish bo'yicha ixtisoslashganligi (markaz, bo'lim, fermer xo'jaligi);

4. Aholining bandligi: qishloq xo'jaligida, noqishloq xo'jaligida, ovchilikda, baliqchilikda band aholi. Aholining ish joylari (korxonalar, muassasa va x.k.);

5. Aholiga madaniy-maishiy va transport xizmat ko'rsatish: bolalar bog'chalari, maktablar, kasb-xunar kollejlari, madaniy oqartuv va tomosha tashkilotlari; kasalxonalar, tibbiy xizmat punktlari, aptekalar, savdo xizmat punktlari. Maishiy xizmat uylari, bozorlar, oshxonalar, tamirlash ustaxonalari, pochta telegraf, telefon, radio va televidenie, obodonlashtirish, suv ta'minoti, gaz ta'minoti, elektr ta'minoti, yo'llar (temir yo'l, avtomobil va suv yo'llari), transport vositalari bilan ta'minlanganligi;

6. Qishloqning tuzilishi, ko'chalar qiyofasi, ko'kalamlashtirish;

7. Qishloqni kelajakda rivojlantirish istiqboli.

Savol va topshiriqlar

1. O'lkadagi shaxarni geografik joylanishini tavsifini tuzing.

2. Shaxringizdagi sanoat korxonalarini jadvalini tuzing.

3. Shaxar yoki qishlog'ingizdagi dam olish va istiroxat bog'lari ro'yxatini tuzing.

4. Qishlog'ingizdagi fermer xo'jaliklari jadvalini tuzing.
5. Qishlog'ingizdagi ma'orif muassasalari jadvalini tuzing.
6. Shaxar yoki qishlog'ingizdagi transport tizimiga baxo bering.

16. O'lka xo'jaligini o'rganish

O'lka xo'jaligini o'lkashunoslik maqsadlarida uning barcha tarmoqlari to'la va har tomonlama o'rganiladi.

Xalq xo'jaligi o'lkadagi barcha ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tarmoqlarining yig'indisidan iborat: sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, aloqa, uy-joy va maishiy xo'jalik, savdo, sog'liqni saqlash, madaniy-oqartuv va sanoat korxonalarini. O'z navbatida yuqorida sanab o'tilgan har bir tarmoq yanada maydaroq tarmoqlarga bo'linib ketadi. Masalan, sanoat quyidagi tarmoqlardan iborat: yoqilg'i-energetika, mashinasozlik, ximiya, qora va rangli metallurgiya, o'rmon, oziq-ovqat, to'qimachilik va x.k.

Qishloq xo'jaligi quyidagi tarmoqlardan iborat: dehqonchilik, sabzovotchilik, bog'dorchilik, uzumchilik, chorvachilik. Transport tarmog'i quyidagi guruhlariga bo'linadi: quruqlik (temir yo'l, avtomobil), havo, suv va quvur transporti.

O'lka xo'jaligi quyidagi tartibda o'rganiladi:

1. O'lkaning yoki joyning iqtisodiy geografik o'rni: ya'ni uni respublika, viloyat, tuman markazlariga, xomashyo bazalari, transport tizimiga, yirik sanoat markazlariga nisbatan joylanishi.
2. O'lka xo'jaligini rivojlanishining asosiy bosqichlari, etakchi tarmoqlari, ixtisosligi, o'lka iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlar va siljishlar.
3. O'lka sanoati, uning tarkibi va rivojlanishi, muxim sanoat korxonalarini, ularning xomashyo va energetika manbaalari, texnik iqtisodiy ko'rsatkichlari, ishlab chiqarish aloqlari. O'lkaning energetika ta'minoti. Sanoatni joylanishi.
4. O'lka qishloq xo'jaligi, uning rivojlanishi va ixtisoslashuvi. Fermer xo'jaliklar va ularning kursatkichlari. Xosildorlik. Chorvachilik va uning tarmoqlari (qoramolchilik, qo'ychilik, yilqichilik, parandachilik va x.k.). Qishloq xo'jaligini texnika vositalari bilan ta'minlanganligi, Shaxsiy xo'jaliklar va ularni o'ziga xos xususiyatlari.
5. Transportning asosiy turlari. Hozirgi transport turi va uning qiyofasi, asosiy yuk va yo'lovchi tashish yo'nalishlari.
6. O'lkada aloqa xizmatini rivojlanishi, radio, televideniya, telefon aloqasi bilan ta'minlanganlik darajasi.
7. O'lkada savdo tizimini rivojlanishi, savdo tizimining tuzilish, bozor, maxalliy xomashyolarni tayyorlash, umumiy ovqatlanish korxonalarini.
8. Uy-joy qurilish va uni fondini o'sishi, obodonlashtirish va gaz bilan taminlashni rivojlanishi, maxalliy yo'lovchi transportini rivojlanishi. Tibbiy xzmatni tashkil qilishi va madaniy xizmati muassasalarini joylanishi. Dam olish va turizm korxonalarini rivojlanishi va ularni joylanishi.
9. O'lkada xalq ma'orifini rivojlanishi: ta'lim muassasalari (maktablar, kasb-xunar kollejlari, Oliy o'quv yurtlari) va ularning yo'nalishi.

10. Madaniyat muassasalarining rivojlanishi: Saroylar, kutubxonalar, muzeylar, teatrlar, kino-teatrlar, sportni rivojlanishi, sport inshootlari.

11. O'lkani rivojlanish istiqboli

Olib borilgan tadqiqotlar asosida xisoblab tuziladi. Ma'lumotlar etarli bo'lsa o'lkani iqtisodiy xaritasi tuziladi.

Savol va topshiriqar

1. Halq xo'jaligi qanday tarmoqlardan iborat?
2. O'lka yoki yashash joyingizda xalq xo'jaligining qanday tarmoqlari rivojlangan?
3. Shaxringizda yoki qishlog'ingizda transportning qanday turlari yaxshi rivojlangan?
4. Yashab turgan joyingizda non va non maxsulotlari ishlab chiqaradigan korxonalar jadvalini tuzing.
5. Yashab turgan joyingizda qanday sanoat korxonalari mavjud, ularni jadvalini tuzing.
6. Yashab turgan joyingizda aloqa xizmati bormi?
7. Yashab turgan joyingizda qanday qishloq xo'jalik ekinlari etishtiriladi?

17. Ishlab chiqarish korxonalarini o'rganish.

O'lka yoki joydagi ishlab chiqarish korxonalarini o'rganish o'lkashunoslik maqsadlarida xo'jalikni tadqiq qilishning asosiy qismlaridan biri xisoblanadi. Ishlab chiqarish korxonasi o'lkashunoslik maqsadlarida asosan o'quv ekskursiyalarida va turistik sayoxatlarda o'rganiladi. Ishlab chiqarish korxonalari 2 ta katta guruhga bo'linadi: sanoat korxonalari; qishloq xo'jalik korxonalari. Sanoat korxonalarini o'lkashunoslik maqsadlarida quyidagi tartibda o'rganish mumkin:

1. Korxonaning barpo etilish vaqti, sabablari, rivojlanishning asosiy bosqichlari.
2. Korxonaning iqtisodiy geografik o'rni; tabiiy ob'ektlarga nisbatan joylanishi (joy reliefi, suv xavzalari, o'rmonlar, foydali qazilma konlari va x.k.); transport yo'llariga boshqa axolii manzilgohlariga va yirik xo'jalik ob'ektlariga nisbatan joylanishi. Xom-ashyo manbaalariga nisbatan joylanishi.
3. Korxonani qaysi vazirlikka bo'ysinishi; tuzilishi; texnologik jarayonini o'ziga xos xususiyati; texnologik jihatdan qurollanganligi va avtomatlashtirish darajasi; korxonani ishlab chiqarish aloqalari; fan-texnika yutuqlarini qullanilishi.
4. Korxonani ixtisoslashuvi va uni asoslash; maxsulot turlari; foydalanadigan xom-ashyo, yoqilg'i va materiallar turlari va ularni tejash; elektrotexnika ta'minoti; chiqindilardan foydalanish.
5. korxonadagi ishchilar soni va ularni mehnat kategoriyalari, kasblar va malakalar bo'yicha tarkibi; ishchilarni ma'lumotlik darajasi; mehnat va hayot sharoiti, va ularni yaxshilash choralari.
6. mehnat unumdorligini o'sishi; mahsulot sifatini oshirish va tan narxini pasaytirish.

7. Korxonani rivojlantirish istiqbollari.

Qishloq xo'jalik korxonalarini quyidagi tartibda o'rganiladi:

1. Qishloq xo'jalik korxonasini (fermer xo'jaligi) vujudga kelish vaqti va sabablari. Tabiiy sharoitining o'ziga xos xususiyatlari. Tabiiy va iqtisodiy ob'ektlarga nisbatan geografik joylanishi: tekislikda, yonbag'rida, suv ayirg'ichda, vodiya, botiqda, terrasada, yoyilmada joylanishi; yo'llarga (asosiy, ikkinchi darajali, temir yo'llar va x.k.) va axoli punktlariga nisbatan joylanishi.
2. Qishloq xo'jalik korxonasining o'lchamlari: ekin maydoni, axolisi va uning zichligi (1km² ga)
3. Fermer xo'jaligining er fondi, ularni o'lchamlari va turlari. Foydalanilayotgan erlar; yaxshilangan erlar (sug'orish, quritish, sho'r yuvish, jarlarni tekislash).
4. Fermer xo'jalini ixtisoslashuvi (don, sabzavot, texnika ekinlari, bog'dorchilik, uzumchilik).
5. Chorvachilikka ixtisoslashgavn fermer xo'jaliklari: ixtisoslashuvi (qoramolchilik, qo'ychilik, echkichilik, yilqichilik, parandachilik va x.k). Em-xashak ta'minoti.

Savol va topshiriqlar:

1. Ishlab chiqarish korxonalarini qanday guruhlarga bo'linadi?
2. Sanoat korxonalarini o'lkashunoslik maqsadlarida o'rganish tartibini aniqlang?
3. O'lkangizdagi sanoat korxonalarini jadvalini tuzing?
4. Yashash joyingizdagi fermer xo'jaliklari jadvalini tuzing. Jadvalda ularni ixtisosligi va ekin maydonini ko'rsating?

18. Transport korxonalarini o'rganish.

Transport korxonalarini o'rganish o'lkashunoslik tadqiqotlarida muhim ahamiyatga ega. Chunki turistik sayohatlarda tadqiqot ishlarining muvaffaqiyatli chiqishi transport yo'llarini joylanishi va ulardan ekspeditsiya a'zolarini qanday foydalanish darajasiga bog'liq.

Transport korxonalarini quruqlik, suv, havo, quvur turlariga bo'linadi.

Quruqlik transporti o'z navbatida quyidagi guruhlarga bo'linadi: temir yo'l avtomobil.

Transport korxonalarini o'rganilganda quyidagi xolatlarga e'tibor beriladi.

1. Tabiiy sharoitni transportni turli xillarga ta'siri. Tekislik, tog'lar, qumlar, daryolar, botqoqlar, o'rmonlar va boshqa tabiiy sharoitlar transport korxonalarini rivojlanishiga turlicha ta'sir ko'rsatadi.
2. Transport korxonalariga tarixiy-geografik tavsif berish. Bunda quyidagilar e'tibor beriladi:
-transport korxonalarini qurilish tarixi va ularni sabablari;

-transport korxonalarini iqtisodiy vazifalari. Mazkur vazifalar xalq xo'jaligini turli tarmoqlari orasidagi aloqalarni amalga oshirishda namoyon bo'ladi. Masalan, yuklarni tashish, yo'lovchilarni tashish;

-transport korxonalarini tashish vazifalari, yuklarni bir transport turidan ikkinchi transport turiga ortishdan iborat. Masalan, kemalardan, poezdlarga, poezdlardan avtomobillarga va x.k.;

-transport korxonalarining texnik vazifalari harakatdagi transport vositalarini texnik ta'minotini amalga oshirishdan iborat:

Transport korxonalarini o'rganishni temir yo'l stantsiyalari misolida ko'rib chiqamiz. (30-rasm)

Bajariladigan vazifalarga ko'ra temir yo'l stantsiyalari va tugunlari quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Murakab tugunlar. Ularning vazifalari turlicha bo'ladi. Har bir tugun alohida vazifalarni bajaradigan stantsiyalarga bo'linib ketadi.

2. Iqtisodiy vazifalarni bajaruvchi stantsiyalar va tugunlar. Ular quyidagi guruhlariga bo'linadi:

-sanoat markazining tugunlari va stantsiyalari;

-tog'-kon sanoatiga xizmat qiluvchi stantsiyalar;

-sanoat va qishloq xo'jaligi bilan bog'langan stantsiyalar;

-asosan qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan stantsiyalar.

3. Texnik vazifalarni bajaradigan stantsiyalar. Bunga lokomotiv va vagonlar depolari bor stantsiya va tugunlar kiradi.

4. Kurortga xizmat qiluvchi stantsiyalar.

5. Halqaro savdo va madaniy aloqalarga xizmat qiluvchi stantsiyalar.

6. Shahar atrofida yo'lovchi tashuvchi stantsiyalar.

Temir yo'l stantsiyalari quyidagi tartibda o'rganiladi:

1. Temir yo'l stantsiyasining geografik joylanishi. Stantsiya atrofidagi yo'llar, yo'llar soni va yo'nalishini tavsifini tuzish.

2. Stantsiyadagi inshootlar va ularning vazifalari.

3. Platformalar, ularning vazifalari va o'lchamlari.

4. Stantsiya atrofidagi temir yo'llar, relslar, ularni yog'ochli yoki betonli shpallarga yotqizilishi va ularni mustahkamlanishi, relslarini o'lchamlari.

5. Stantsiya darvozasi va uning ahamiyati.

6. Yo'lovchi va yuk tashiydigan poezdlarni shakllantirishni tashkil qilish.

7. Stantsiyalarning ish faoliyati: poezdlarni qabul qilishi va jo'natish, yuklarni saqlash va berish ishlarini tashkil qilish.

8. Yuklarni qabul qilish va jo'natish, yuklash va yuk tushirish ishlarini tashkil qilish. Ishlarni mexanizatsiyalash darajasi.

9. Stantsiyaga kelayotgan va stantsiyadan ketayotgan asosiy yuk turi.

10. Yo'lovchi oqimi o'lchamlari. Kelayotgan va ketayotganlar soni.

11. Stantsiya ishchi xodimlari. Mutaxassisliklar bo'yicha tarkibi. Xizmatchilarning umumiy soni.

12. Madaniy-oqartiruv muassasalari.

13. Korxonaning rivojlanish tarixi.

Savol va topshiriqlar:

1. Transport qanday turlar bo'linadi?
2. Quru klik transport turlari haqida gapirib bering?
3. Yashab turgan joyingizda qanday transport korxonalari bor, ularni tavsifini tuzing?
4. Yashab turgan joyingizda yo'llarni qanday turlari bor?
5. Yashab turgan joyingizdagi transport korxonalarini vujudga kelish tarixini aniqlang va tavsifini tuzing?

19.Tarixiy o'lkashunoslik, uning mazmuni va ahamiyati.

O'lka tarixini umumiy o'lkashunoslikning tarmog'i bo'lgan tarixiy o'lkashunoslik o'rganadi.

Tarixiy o'lkashunoslikni ikkita muhim xususiyati mavjud: tarixiy va madaniy yodgorliklarida moddiylashgan tarixiy yodgorliklarni ma'lum bir joyda joylashuvi va ularni o'rtacha faolligi.

Demak, o'lka tarixi ilmiy tarixiy bilimlarni o'rganish sohasi emas, balki o'lkashunoslarni ham o'rganish ob'ekti hisoblanadi. Chunki, o'lkashunoslik tadqiqotlarida o'quvchilar ham, talabalar ham, katta yoshdagi tadqiqotlar ham o'lka tarixini va tarixiy yodgorliklarini chuqur va har tomonlama o'rganishadi. Tarixiy o'lkashunoslik maktabda, kasb-hunar kollejlarida o'quvchilarni shaxs sifatida shakllanishida muhim rol yo' naydi. Tarixiy o'lkashunoslik tadqiqotlarida o'quvchilar quyidagi faoliyatlarni amalga oshirishadi.

O'lkashunoslarni bilish faoliyati.Mazkur faoliyat davomida o'lkashunoslar o'lka to'g'risidagi alohida tarixiy voqealar va ma'lumotlar qida bilimlarga ega bo'lishadi.

Mazkur faoliyat ma'naviy yo'nalishga ega va turli xil murakkablikka ega bo'lgan darajalardan iborat. Masalan, o'lka haqida oddiy bilimlardan tortib ekspeditsiyalardan olingan murakkab bilimlarga ega bo'ladilar.

O'zgartiruvchi faoliyati. Mazkur faoliyat davomida amaliy-manaviy qadriyatlar barpo qilinadi (ko'rgazmalar, tarixiy o'lkashunoslik burchaklari, maktab muzeylari, memorial taxtalarni tashkil qilish).

Qadriyatlarga yo'naltirilgan faoliyat ham asosan ma'naviy xususiyatga ega.

Mazkur faoliyat natijasida har qanday shaxs o'zi uchun va jamiyat uchun u yoki bu tarixiy ma'lumotlarni, voqealarni, kishilarni qaxramonligini ahamiyatini anglaydi.

Qadriyatlarga yo'naltirilgan faoliyat ma'naviy qadriyatlarni ishlab chiqaruvchi shaklida a ularni iste'molchisi sifatida ham namoyon bo'ladi. Masalan, urf-odatlarini avloddan-avlodga o'tishi. Bunda kata avlod ma'naviy qadriyatlarni ishlab chiqadi, yosh avlod esa uni iste'mol qiladi.

Mazkur faoliyat o'lka tarixi haqida yangi bilimlarni olish jarayonida juda katta ahamiyatga ega bo'ladi. O'lka tarixi haqida topilganlar qanday yangi ma'lumot o'lkaga qidagi yangi bilim hisoblanadi.

Kommunikativ faoliyat o'lkashunoslarda o'zaro aloqa, munosabat. Ko'nikma va malakalarni shakllantiradi va rivojlantiradi. Hayotni har qanday bosqichida mustaqil ravishda shaxsiy aloqalarni o'rnatishga imkon beradi.

Yuqorida keltirilgan tarixiy-o'lkashunoslik faoliyatining hamma turlari bir-biri bilan chambarchas o'zaro bog'langan va yaxlit faoliyat turi sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, maktabda yoki joyda o'lkashunoslik muzeyini tashkil qilish davomida memorial taxta o'rnatish o'zgartirish faoliyatiga kiradi, uni o'rnatish uchun yangi bilimlar olish bilish faoliyatiga kiradi, mazkur bilimlar ichidan eng muhimini tanlab olish qadriyat faoliyatiga, shaxslar bilan bo'ladigan muloqotlar esa kommunikativ faoliyatga kiradi.

O'lka tarixi o'lkashunoslikning murakkab faoliyatiga kiradi. Bunda tarixiy materiallarning xajmi katta, katta tarixiy davrni o'z ichiga oladi.

Tarixiy o'lkashunoslikning asosiy ob'ektlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- o'lkaning qadimgi davrlardagi tarixiy voqealari;
- o'lkada o'rta asrlarda sodir bo'lgan tarixiy voqealari;
- o'lkani mustamlaka yillaridagi tarixiy voqealari;
- o'lka arxeologik sharoiti;
- o'lkani etnografik sharoitini o'rganish.

O'lkashunoslikdagi arxeologik yo'nalish joydagi yoki o'lkadagi arxeologik yodgorliklar o'rganiladi. Arxeologik yodgorliklarni joylanishi, saqlanish sharoiti, turi aniqlanadi. Topilgan moddiy ashyolar asosida o'lkani qadimgi tarixi tiklanadi. Etnografik o'lkashunoslikni ob'ekti bo'lib, o'lkaning madaniy va turmushiy xususiyatlari hisoblanadi.

Savol va topshiqalar:

1. Tarixiy o'lkashunoslik nimalarni o'rganadi?
2. Tarixiy o'lkashunoslik tadqiqotlarida qanday faoliyatlar ajratiladi?
3. Bilish faoliyatida qanday ishlar amalga oshiriladi?
4. Qadriyatlarga yo'naltirilgan faoliyatning maqsadlari nimalardan iborat?
5. Kommunikativ faoliyat deganda nimani tushunasiz?
6. Tarixiy o'lkashunoslikning ob'ektlari nimalardan iborat?
7. Arxeologik o'lkashunoslikda qanday tadqiqot ishlari amalga oshiriladi?

20. Tarixiy va madaniy yodgorliklarni o'rganish.

O'lkadagi tarixiy va madaniy yodgorliklar o'lka tarixini o'rganishda muhim moddiy dalillar bo'lib xizmat qiladi.

Madaniy yodgorliklar- bu ijtimoiy voqealar qatoriga kiradi va ijtimoiy rivojlanish jarayonini aks ettiradi. Madaniy yodgorliklarda tarixiy voqealarning izlari saqlanib qolgan bo'ladi, ular qadimgi avlodlar haqida ma'lumotlar beradi.

Madaniy va tarixiy yodgorliklar davlat tomonidan quriqlanadi va muxofaza qilinadi va ular quyidagi turlardan iborat.

Tarixiy yodgorliklarga inshootlar, binolar, tarixiy joylar va predmetlar kiradi. Ular o'lkadagi muhim tarixiy voqealar bilan bog'langan bo'ladi. (31-rasm)

Arxeologiya yodgorliklariga shahar va shaharchalar, qadimgi axolii manzilgohlari, qal'alar, ishlab chiqarish, kanallar, yo'llar qoldiqlari, qadimgi qabrlar, toshdan yasalgan buyumlar, qoyadagi rasmlar, qadimgi predmetlar, qadimgi aholi yashagan joylarni tarixiy va madaniy qatlamlari kiradi.

Arxetektura va shaharsozlik yodgorliklari arxetektura ansablari va komplekslari, tarixiy markazlar, kvartallar, maydonlar, ko'chalar, shaharlarni qadimgi qismlari, fuqaro, sanoat, harbiy, diniy arxitektura, xalq san'ati qoldiqlari kiradi. Albatta ular bilan bog'liq bo'lgan manumental tasviriy, amaliy-dekorativ, tabiiy landshaft asarlari ham kiradi.

San'at yodgorliklariga manumental, tasviriy, amaliy-dekorativ va boshqa san'at asarlari kiradi.

Xujjatli yodgorliklarga davlat xujjatlari, yozma va chizma xujjatlar, kino foto xujjatlar, ovoz yozilgan tasmalar, qadimgi qo'l yozmalar, arxivlar, musiqa va folklor, nodir kitoblar kiradi.

Kelib chiqishiga ko'ra tarixiy yodgorliklar ikki guruhga bo'linadi: zamonaviy tarixiy yodgorliklar; tarixiy voqealarni abadiylashtirish maqsadida yaratilgan yodgorliklar.

Zamonaviy yodgorliklarga quyidagilar kiradi:

-yozma va nashriy xujjatlar- yilnomalar, qonuniy xujjatlar, yorliqlar, aktlar, protokollar, jinoiy-qidiruv materiallari, hisobotlar, bildirgilar, statistik ma'lumotlar, yozishmalar, matbuot, varaqalar, shaxsiy xujjatlar va x.k.

- haqiqiy fotorasmlar, xujjatli kinokadrlar, yozib olingan ovozlar;

-moddiy yodgorliklar (predmetlar-mehnat qurollari, hunarmandchilik va sanoat buyumlari, turmush buyumlari, qurollar, kiyimlar, taqinchoqlar, tangalar, muxrlar, amaliy san'at asarlari, tarixiy voqea ishtirokchilarining shaxsiy narsalari (ordenlar, medallar, shaxsiy quroli, bayroq va x.k., grajdan va xarbiy texnika predmetlari;)

-tarixiy joylar (xalq ommasining chiqishi, namoyishlar bo'lgan, urush bo'lgan va mashhur kishilar ko'milgan joylar);

-turli xil inshootlar: gidrotexnik (to'g'onlar, shlyuzlar, kanallar); harbiy injenerlik (kremlar, qal'alar, bistonlar, xandaklar, akoplar, devorlar, erto'lalar, mudofaa chizig'i, minoralar va x.k.).

Tarixiy yodgorliklarning ikkinchi turiga quyidagilar kiradi memorial komplekslar, aloxida yodgorliklar, manumentlar, byustlar, obelisklar, memorial taxtalar; arxetektura inshootlari, nikropollar, shon-shuxrat balandliklari.

Etnografik yodgorliklar xalqning etnik va madaniy hayoti jarayonlarini aks etdiradi. Etnografiya bu tarix fanining tarmog'idir. Mazkur fan etnografik yodgorliklarni tadqiq qilish asosida qabilalar, xalqlar va millatlarning kelib chiqishi, tarqalishi, ular madaniyati va turmushini o'iza xos xususiyatlarini, tarixiy va madaniy-hayotiy aloqalarini o'rganadi.

Etnografik yodgorliklar quyidagi guruhlar bo'linadi:

-manzilgohlar, ularni tashqi ko'rinishi, uylari, turli xil inshootlar, kundalik hayot predmetlari;

-mehnat qurollari va maxsulotlari;

- kiyimlar va taqinchoqlar;
- hunarmandchilik va xalq amaliy san'ati predmetlari;
- diniy marosimlar, urf-odatlarda ishlatiladigan predmetlar.

O'lka tarixini o'rganish tadqiqod maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib turlicha bilish mumkin, har bir tadqiqot turi ma'lum bir tartibda olib boriladi. O'lkashunoslik maqsadlarida ko'pincha ma'lum bir ko'chani, mavjeni yoki qishloqni tarixi o'rganiladi. Aloxida ko'chani tarixini o'rganish quyidagi tartibda olib boriladi:

- ko'chaning yoki mavzening nomi, kelib chiqish tarixi;
- mazkur ko'chada sodir bo'lgan tarixiy voqealar;
- ko'chaning qurilish tarixi va rivojlanish istiqboli;
- ko'chada, qishloqda yoki mavzeda joylashgan sanoat korxonalarini va turli xil tashkilotlarni vujudga kelish va rivojlanish tarixi;
- ayrim binolar va inshootlar tarixi;
- mazkur ko'chada yashagan yoki yashayotgan mashhur va dongdor kishilar biografiyasi;
- ko'chada joylashgan tarixiy va madaniy yodgorliklar.

Savol va topshiriqlar:

1. Tarixiy yodgorliklarga nimalar kiradi?
2. Madaniy yodgorliklar deganda nimani tushunasiz?
3. Arxetektura ansanblari va komplekslari qanday yodgorliklarga kiradi?
4. Xujjatli yodgorliklar nimalardan iborat?
5. Kelib chiqishiga ko'ra tarixiy yodgorliklar qanday guruhlariga bo'linadi?
6. Zamonaviy yodgorliklarga nimalar kiradi?
7. Moddiy yodgorliklar deganda nimani tushunasiz?

21. Arxeologik tadqiqotlar o'tkazish.

Arxeologiya tarix fanining asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Mazkur fan insoniyatni qadimgi tarixini yozma manbalar keng tarqalgan davrgacha bo'lgan qismini o'rganadi.

Insoniyatni qadimgi tarixini arxeologiya fani qadimgi manzilgohlarning, qal'alarning, uylarning, ustaxona va ishlab chiqarish korxonalarining, ibodatxonalar va dafn qilish inshootlari qadimgi rasmlar qoldiqlari asosida o'rganadi. Mazkur yodgorliklar arxeologik qidiruv va qazilmalar yordamida o'rganiladi.

Arxeologik tadqiqotlar ikkita katta guruhga bo'linadi:

- dala ishlari. Dalada asosan arxeologik qidiruv va qazish ishlari oxirida xisobot yoziladi. Mazkur xisobotlar tarixiy manbaa xisoblanadi;
- tadqiqot jarayonida olingan ma'lumotlarni taxlil qilish ishlari.

Arxeologik tadqiqotlarning asosiy manbai bo'lib arxeologik yodgorliklar xisoblanadi.

Arxeologik yodgorliklarga quyidagilar kiradi: qadimgi odamlarni manzillari; qadimgi odamlarni doimiy turar joylari; qadimgi shaxarchalar, shaxarlar, qal'alar va saqlanish joylari; shaxtalar; ustaxonalar, qadimgi qabrlar; ibodat joylari va

binolari; qoyalardagi rasmlar, tasvirlar va yozuvlar, qadimgi inshootlar (ko'priklar, to'g'onlar, kanallar, quduqlar), xazinalar (tangalar, turli xil taqinchoqlar).

Arxeologik qidiruv ishlari dalada olib boriladigan asosiy tadqiqot ishlari xisoblanadi. Arxeologik qidiruv ishlari tugagandan so'ng arxeologik qazish ishlari olib boriladi.

Arxeologik qidiruv ishlarining asosiy maqsadlaridan biri joydagi barcha arxeologik yodgorliklarni aniqlashdan iborat.

Odatda bunday keng qamrovdagi arxeologik qidiruv ishlari joyda yirik qurilish ishlarini boshlanish munosabati olib boriladigan (GES, sanoat korxonasi, milioratsiya ishlari va x.k.).

O'rta Osiyoda qadimgi odamlari manzillarini qidirish qadimgi sug'orish tizimlari tarqalgan joylarda olib boriladi. Chunki ko'pgina qadimgi manzilgohlar sug'orish tizimlari bo'ylab joylashadi.

Arxeologik yodgorlik topilgan taqdirda u quyidagi tartibda o'rganiladi: yodgorlikning maxalliy nomi; yodgorlik topilgan joyning nomi; yodgorlikning geografik joylanishi (eng yaqin qishloq, daryo, ko'l, yo'l, topografik punkt va x.k. nisbatan joylanishi). Har bir oreintirgacha bo'lgan azimut beriladi; yodgorlikning o'lchamlari aniqlanadi; madaniy qatlamni tarqalish chegarasi aniqlanadi; yodgorlikning hozirgi holati tasvirlanadi; madaniy qatlamidan o'ra kavlanadi va unda uchragan topilmalar har bir 20sm qatlamdan olinadi; yodgorlik topilgan joyning ko'z bilan chamalab plani olinadi.

Axoli manzillarini arxeologik ovlash dalada olib boriladigan asosiy arxeologik ish xisoblanadi.

Manzillarda kavlash ishlari olib borishdan oldin aniq bir ob'ekt tanlab olinadi.

Kavlashni boshlashdan oldin tadqiq qilinadigan yodgorlik joylashgan joyning plani tuziladi.

Katta yodgorliklar qator kuzatish ishlari natijasida tadqiq qilinadi. Qazish 100m² maydonda olib boriladi. Qaziladigan joy tomonlari 2 m dan bo'lgan kvadratlarga bo'linadi. Shunday qilib har bir qazish 25 ta kvadratdan iborat bo'ladi. Kvadratlar shimoldan janub tomon raqamlanadi, g'arbdan sharqqa tomon esa xarflar bilan belgilanadi.

Shundan so'ng tadqiqot ishlari quyidagi tartibda olib boriladi:

1. Qazish joyidan chuqurlikni o'lchash uchun nuqta tanlanadi. Mazkur nuqtadan qazish ishlari boshlangunga qadar barcha kvadratlarning burchaklarini chuqurligi aniqlanadi. Shunday qilib qazilma bo'ladigan joy yuzasi makronivelerlanadi. Qazish ishlari boshlanishdan avvalgi joy yuzasi hozirgi joy yuzasi deb ataladi.
2. Har bir qatlam uchun plan tuziladi va unda aniqlangan topilmalar belgilanadi va inshootning qoldiqlari chiziladi. Topilmalar raqamlanadi va ularning ro'yxati planning yon tomoniga yozib qo'yiladi. Har bir topilma qaysi kvadratdan va qaysi chuqurlikdan topilgani yozib qo'yiladi.
3. Har bir topilma o'raladi, etiketka yopishtiriladi, etiketkadan yodgorlikning nomi, yili, raqami, kvadrat raqami, chuqurligi yozib qo'yiladi.
4. Kvadratlar orasida hajmi 20 sm bo'lgan devorlar qoldiriladi. Ular yordamida qazilma joyini stratigrafiyasi aniqlanadi. Kundalikda har bir qatlamning tavsifi beriladi.

Qabrlar quyidagi tartibda o'rganiladi: (32-rasm)

1. Qabr topilgan joy plani tuziladi. Topilgan qabr plani juda ham to'la bo'lishi, har bir relief elementi tasvirlangan bo'lmog'i lozim. Plan doimiy oreintirlarga bog'langan bo'lishi, ufq tomonlarga nisbatan joylanish aniqlangan bo'lmog'i, qabr nomi joylashgan tuman va viloyati yozilgan etiketga yoki taxtacha bo'lmog'i lozim. Qabr plani odatda 1:20 yoki 1:40 masshtabda tuziladi.

2. Qazish ishlari boshlanishdan oldin, qidiruv zovuri kovlanadi. Qidiruv zovurining kengligi 2m bo'ladi. Qidiruv zovuri o'lchami 2x2m bo'lgan kvadratlarga bo'lingan bo'ladi. Kvadratlar raqamlanadi. Mazkur zovurlar planda tasvirlanadi. Agar qabr karer bilan buzilgan bo'lsa zovurni karer devori bo'ylab qaziladi. Karer devorida qadimgi qabrning qoldiqlari ko'rinib turishi mumkin. zovur qabrning laxatini ko'rish chuqurligigacha kovlanadi.

3. Qabr laxati topilgandan so'ng kvadratsimon chuqur qaziladi (o'lchami 2x2m) va har kvadart raqamlanadi. Chuqurlik qazilayotgan joydan qabr topulguncha qatlamlar kovlab olinadi. Shundan so'ng qabrdagi alohida dafnalar tadqiq qilinadi. Qadimgi qabristonlardagi qabrlar orasidagi joylardan ko'pincha qadimgi inshootlar qoldiqlari topiladi. Ular asosan qabr to'siqlari, nazr qilingan narsalar qoldiqlaridan iborat bo'ladi. Ularning barchasi qabr planiga tushirilishi lozim.

4. Qabrni ochish jarayoni to'la va har tomonlama kundalikda yozilishi lozim. Qabr chizmasida qabr laxatning chegaralari tushirilishi zarur, laxatning tubida esa dafn qilingan odam suyaklari yoki suyaklar to'plami tasvirlanadi. Odatda dafn qilishda juda ko'p jixozlar ham ko'miladi. Ularning kiyimlarning metall qisimlari va alohida buyumlardan iborat bo'ladi. Chizmada har bir topilmaning joyi belgilanadi va raqamlanadi.

Lahatdan barcha topilmalar olingandan so'ng, dafn qilingan odamning suyaklari olinadi, agar u juda yaxshi saqlangan bo'lsa paleoantropologlarni beriladi. Har bir suyakni tadqiq qilish davomida u albatta foto rasmga olinishi lozim. Har suyakni rasmga olayotganda suyak yoniga «Shimol-janub»ni ko'rsatadigan reyka qo'yilishi lozim.

5. Qo'rg'onli qabrlar bronza davridan o'rta asrlarni ohirigacha bo'lgan davrlarda keng tarqalgan. Qo'rg'onli qabrlar quyidagi tartibda o'rganiladi:

- dastlab qo'rg'onli qabrlarni planini tuzish lozim. Planda qo'rg'onli qabrlarning soni va o'lchamlari ko'rsatilgan bo'lmog'i lozim;

- har bir qo'rg'onning diammetri aniqlanadi va qo'rg'on atrofidagi xandak yoki zovurning (agar bo'lsa) tasviri tushiriladi. Plan ufq tomonlarga nisbatan oreintirlanadi;

- Har bir qo'rg'onning qazish ishlari uning tepasidagi tuproqni tadqiq qilish bilan boshlanadi. Agar qo'rg'onni plani 1:500, 1:1000 masshtabda tuzilgan bo'lsa, tekshirilayotgan qabr plani 1:30, 1:50 masshtabda tuziladi. Qazish ishlari boshlanishdan oldin qo'rg'onning tepasi (eng baland joylari) aniqlanadi, va mazkur nuqtaga nisbatan barcha chuqurlik o'lchovlari olib boriladi.

- Qo'rg'on ustidagi laxat va undagi topilmalar aniqlangandan so'ng, laxat plani 1:10 masshtabda tuziladi. Ushbu planga laxatdagi odam suyagi va uning narsalari tushiriladi. Laxatdagi odam suyagi ufq tomonlariga nisbatan oreintirlangan bo'lmog'i lozim;

- agar qo'rg'on ostidagi laxatda murda kudirilgan bo'lsa, planda u ko'rsatilgan bo'lishi lozim (murda laxatdami yoki boshqa erda kuydirilganmi), kuygan suyaklar to'plangan joy, hok solingan idish, va jixozlar ham planda tasvirlanadi.

Yukorida qabrlarni arxeologik o'rganishni umumiy metodik tomonlari beriladi.

Aslida har bir arxeologik yodgorlik alohida yondashishni talab qiladi.

O'lka tarixini o'rganib bo'lgandan so'ng, xisobot tuziladi. Mazkur xisobotda qo'yidagi holatlar hisobga olinishi zarur:

1. O'lka yoki maxalliy joy tarixi mamlakatdagi tarixiy voqealar bilan qanday bog'langan va lurani umumtarixiy joylarini o'rni va axamiyati qanday.
2. O'lka yoki joy tarixidagi voqealar va dalillar qanday o'ziga xos xususiyatlarga ega, ularning o'ziga xos xususiyatlari nimalarda namoyon bo'ladi. Mazkur masala umumdavlat miqiyosidagi tarixiy voqealarni o'ziga yoki maxalliy joy tarixidagi tarixiy voqealar bilan solishtirish asosida xal qilinadi.
3. O'lka yoki joy tarixidagi o'ziga xosligini qanday omillar, sabablar va sharoitlar bilan asoslash mumkin.

Savol va topshiriqlar

1. Arxeologiya fani nimani o'rganadi?
2. Arxeologiya qaysidavrdagi tarixiy voqealarni o'rganadi?
3. Arxeologiya fani insoniyat tarixini nimalar asosida o'rganadi va aniqlaydi?
4. Arxeologik tadqiqotlar qanday qismlardan iborat?
5. Arxeologik yodgorliklar qanday guruxlarga bo'linadi?
6. Arxeologik qidiruv ishlarining maqsadi nimalardan iborat?
7. Arxeologik kuzatish ishlari qachon boshlanadi?
8. Arxeologik yodgorliklar qanday tartibda o'rganiladi?
9. Qadimgi qabrlar qanday o'rganiladi?
10. Yashab turgan joyingizda arxeologik yodgorliklar bo'lsa ularni tavsifini tuzing?

22. San'at o'lkashunosligi.

O'lka yoki joyning san'atini hamda xalq xunarmandchiligini o'rganish umumiy o'lkashunoslikni ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. San'at yodgorliklarida mamlakatning zamonaviy va qadimiy tarixi aks etgan bo'ladi.

Odatda arxetiktura va skulptura yodgorliklari tarixiy o'lkashunoslik ob'ekti sifatida ham qaraladi. Bu ham san'at o'lkashunosligining tarixiy o'lkashunoslik bilan chambarchas bog'liqligini ifodalaydi. Ma'lum yodgorliklar o'lkashunoslikni bir necha tarmog'ini ob'ekti bo'lishi mumkin. Masalan, o'ymakorlik va naqqoshlik san'ati, memorial skulpturi bir paytni o'zida ham tarixiy ham san'atshunoslik o'lkashunoslik ob'ekti bo'lib, badiiy xunarmandchilik maxsuloti san'atshunoslik va iqtisodiy o'lkashunoslikni ob'ekti bo'lib xisoblanadi.

San'at o'lkashunosligi ob'ektlarini barchasini ikkita katta guruhga bo'lishimiz mumkin:

- haqiqiy mustaqil qimmatga ega bo'lgan san'at asarlari. Ushbu sohada o'lkashunoslik vazifasi quyidagilardan iborat: yodgorliklarni o'zini o'rganish;

uning qiymatini aniqlash; uni o'lkada badiiy madaniyati tarixidagi ahamiyatini ochib berish;

- san'at namoyondalari hayoti va ijodi bilan bog'liq bo'lgan yoki ularni asarlarida aks etgan estalik joylar. Mazkur yo'nalishda o'lkashunoslarni asosiy vazifasi o'lkani ijtimoiy va madaniy hayoti nuqtai nazaridan badiiy merosni o'rganishdan iborat.

Mazkur ikki ob'ekt ham ikki tomonlama ko'rilishi mumkin. Birinchidan o'lkada tarixi va madaniyati bo'yicha bilimlar manbai sifatida. Ikkinchidan san'atni o'zi, uni tarixiy rivojlanishi va ahamiyati haqidagi bilimlar manbai. Chunki san'at yodgorliklari tarixiy, ilmiy qimmatdan tashqari badiiy ahamiyatga ham ega. (33-rasm)

Shu hususiyati bilan san'at o'lkashunosligi o'lkashunoslikning boshqa tarmoqlaridan keskin farq qiladi. Shuning uchun san'at o'lkashunosligini o'rganish predmeti bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- o'lkada badiiy hayotini o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish;
- maxalliy san'at yodgorliklarini o'rganish;
- maxalliy rassomlarni ijodini o'rganish;
- o'lkada yoki joy badiiy madaniyati haqidagi bilimlarni tarqalish yo'llarini o'rganish.

San'at o'lkashunosligi shaxsni ijodiy va intellektual sifatlarinigina rivojlantirib qolmasdan, balki badiiy bilimlarni mustaqil egallashiga ham imkon beradi. San'at o'lkashunosligi bilan shug'ullanish jarayonida har bir shaxs tarix, estetika, etika va boshqa fanlar bo'yicha ham bilimlar olishga sharoit yaratadi. San'atni va san'at asarlarini tushunish badiiy ijodning xususiyatlarini chuqur bilishga olib keladi. O'lkashunoslik tadqiqotlarida o'quvchilar va talabalar asta-sekin ilmiy ishlar olib borish ko'nikmasiga ega bo'ladi.

San'at o'lkashunosligi asosiy obektlari quyidagilardan iborat: xalq san'ati; badiiy adabiyot; tasviriy san'at; arxitektura; va x.k.

Savol va topshiriqlar

1. San'at o'lkashunosligini ob'ektlari qanday guruhlariga bo'linadi?
2. San'at o'lkashunosligi o'lkashunoslikni qaysi tarmog'i bilan chambarchas bog'langan?
3. San'at o'lkashunosligining predmeti nimalardan iborat?
4. San'at o'lkashunosligi shaxsni qanday sifatlarini rivojlantirishga imkon beradi?
5. O'lkadagi san'at yodgorliklari jadvalini tuzing.
6. O'lkada qanday mashhur kishilar etishib chiqqan?
7. O'lkadan etishib chiqqan mashhur kishilar san'atni yoki fanni qaysi sohalarida ijod qilishgan?
8. San'at deganda nimani tushunasiz?

23. Xalq san'atini o'rganish.

Xalq san'ati o'lkashunoslar uchun juda katta ahamiyatga ega, chunki mazkur san'at turi xalqlarning turmushi, xayot tarzi, mexnati, madaniy traditsiyalari va urf odatlari bilan bog'liq.

San'atni ilk rivojlanish bosqichlarida u bevosita odamlarni mexnat faoliyatiga ishlab chiqarish jarayoniga kirishib ketgan. Buning dalili bo'lib xalq amaliy-dekorativ san'at namunalari xisoblanadi.

Xalq san'atini o'lkashunoslik maqsadlarida o'rganishning asosiy vazifalaridan bo'lib, ularni dexqon mexnati yoki xunarmandchilik bilan bog'langanini o'rganish, buyumlarni yasashni o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish, ularni ahamiyatini va ulardan foydalanishni aniqlash, ularda utilitar va estetik sifatlarni uyg'unlashishini o'rganishdan iborat.

Xalq san'at xunarmandlari yaratishgan. Dexqonchilik bo'yicha ustalar xo'jalik va turmush uchun kerakli bo'lgan narsalarni tayyorlashgan. Ishlangan buyumlarning shakli, undagi chiziqlar ma'lum bir badiiy qimmatga ega bo'lgan. Tayyorlangan buyumlar o'roqmi, teshami, ketmonmi, ko'za yoki qozon ma'lum badiiy san'at maxsuli bo'lgan.

Badiiy xunarmandchilik markazlari shaxarlarda xomashyo manbaalari yonida vujudga kelgan: sopol buyular yasaydigan ustaxonalar gil bor joylarda rivojlangan (masalan Rishtonada), metali buyumlar tayyorlanadigan xunarmandchilik metall ishlab chiqaradigan joylarda, yog'och buyumlar ishlab chiqarish deyarli hamma joyda tarqalgan.

Xalqning hayoti tabiat bilan uyg'unlashib ketgan, tabiat odamlarga xomashyo bergan, ularni qayta ishlash usullarini bergan va tabiat san'at mazmunining manbai bo'lib hisoblangan hamda, san'atni mazmuniga va emotsional tuzilishiga ta'sir etgan. Xalq ustalari qo'lida eng oddiy xom ashyo bo'lgan: gil, metal, suyak, temir, zig'ir, yog'och. Ulardan san'at asarlari yaratilgan.

Mazkur buyumlarda moddiy qiyofa orqali xalqni madaniy hayoti ochib berilgandagina ular haqiqiy badiiy qimmatga ega bo'lishgan. (34-rasm)

Tasavvur (fantaziya) orqali kishilarning xayoti va tabiat xalq ustalari buyumlarida ertaksimon jixatlarga ega bo'la boshlagan va o'ziga xos poetik dunyoni asosi bo'lib xizmat qilgan.

Kundalik ustalar turmushni aks ettiradigan san'atda xalqni dunyoni bilishga intilishi ochib berilgan. Mazkur san'at hayotni bezamagan, balki uning organik namoyoni bo'lgan. Shuning uchun san'at yodgorliklarida xalq xayotining aksadosi va borliqni bilishni namunalarni ko'rish mumkin.

Xalq san'atida yuz yillar davomida eng yaxshi shakllar kompozitsion sxemalar, naqshlar, ranglar uyg'unligi tanlangan va shakllangan.

Xalq san'atini o'lkashunoslik maqsadlarida o'rganishda 2ta narsaga e'tibor berish zarur. Birinchisi jahondagi barcha xalq san'atining umumiyliigi, ya'ni ularni hayotni va turmushni tasvirlashi. Ikkinchidan har bir o'lkani va jahon xalq san'atini o'ziga xos xususiyatlarini mavjudligi. Masalan, gilam to'qishni Xiva, Buxoro turlarining mavjudligi, kashtachilikning turli xil turlari, me'morchilik turlari, do'ppi turlari (Chust, Andijon, Marg'ilon, Toshkent va x.k.)

O'lkashunoslik maqsadlarida zamonaviy hozirgi xalq san'ati maxsulotlarini ham o'rganishdi. Ular ilgarigi xalq san'atini davomchilari hisoblanishadi. Ular qadimgi

xalq san'atini saqlab yo'qolib ketadishdan saqlab qoladi. Masalan, pichoqchilar, etikdo'zlar, musiqa asboblari ustalari, zargarlar, do'ppido'zlar va x.k.

O'lka yoki joydagi xalq san'atini o'rganganda quyidagilarga e'tibor berish zarur:

-o'lkada aniq bir badiiy hunarmandchilik soxasini vujudga kelishiga sabab bo'ladigan o'lka tabiiy sharoiti, iqtisodi va xo'jaligini asosiy xususiyatlarini hisobga olish;

-hunarmandchilik tarixini o'rganish davomida uning o'ziga xos xususiyatlarini, foydalanadigan materialni texnika va texnologiyasini aniqlash;

-o'lka xalq san'atini o'rganishda uni o'lka hayoti, turmushi, madaniy traditsiyalari, urf-odatlarini, hunarmandlarning hayot tarzi va mehnati bilan aloqalarini ochib berish;

-hunarmandlarning buyumlarini utilitar va estetik sifatlarini, ularni yasa shva ulardan foydalanishni o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish;

-zamonaviy (hozirgi xalq san'atini rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash) yangilik va odatiy muammolar, buyumlarning xo'jalik ahamiyatini yo'qotishi va suvenir xarakteriga o'tib qolishi;

-hunarmandchilikning maxalliy xalq san'atini saqlab qolishdagi ahamiyatini aniqlash;

Xalq san'atini o'lkada yoki joyda o'rganib bo'lgandan so'ng hisobot tuziladi. Hisobotda quyidagi masalar yoritilishi lozim.

1. O'lkada tarqalgan xalq san'ati turlari.

2. Xalq san'ati turlarini rivojlanish tarixi.

3. Xalq san'ati turlaridan qandaylari xo'jalikda hozir ham foydalaniladi, qaysilari suvenir sifatida ishlab chiqiladi.

4. Xalq san'ati buyumlarini ishlab chiqarishda foydalanadigan xom-ashyo

5. xalq san'ati buyumlarini xalqaro ko'rgazmalarda qatnashganligi;

6. xalq san'ati buyumlarini ishlab chiqarishni rivojlantirish muammolari.

Savol va topshiriqlar:

1. Xalq san'ati deganda nimani tushunasiz?

2. Yashash joyingizda qanday hunarmandchilik ustaxonalari mavjud va ular nimalar ishlab chiqaridi?

3. Beshik va sandiq ishlab chiqarish xalq san'ati maxsulotiga kiradimi?

4. Zargarlik buyumlari xalq san'ati maxsuloti bo'la oladimi?

5. Samarqand nonlari (patirlari) xalq san'ati maxsuloti hisoblanadimi?

6. Kosibchilik deganda nimani tushunasiz?. O'zbekistonda do'ppilarni necha turi mavjud?

24. Adabiy o'lkashunoslik.

Hozirgi ppaytda adabiy o'lkashunoslik juda tez rivojlanmoqda va keng tarqalmoqda. Har bir o'lkada yoppasiga adabiy o'lkashunoslik ishlari olib borilmoqda.

Adabiyot kishilarga ta'sir etadigan juda kuchli vosita hisoblanadi. Adabiyot san'atning eng qadimgi turlaridan bo'lib, u dastavval og'zaki xalq san'ati sifatida vujudga kelgan, u hozir ham xalqni tafakkurini eng yuqori badiiy darajasi bo'lib hisoblanadi. So'z orqali borliqni barcha qirralarini va tomonlarini osongina tasvirlay olish mumkin. shuning uchun adabiyotda badiiy obrazning asosiy xususiyatlaridan bo'lib ko'p o'lchamlik, xayotni turli tomonlarini keng qamrab olish, borliqni tarixiy jarayon sifatida eks ettirish hisoblanadi.

Adabiyot ko'p xollarda boshqa san'at turlarini asosi bo'lib hisoblanadi: teart(dramaturgiya), kino(stsenariy), xoreografiya (libretto) va x.k.

O'zbekistonda badiiy adabiyotga qadimdan juda katta ahamiyat berilgan. Ilgari xatto davlat boshliqlari ham badiiy adabiyot bilan shug'illanishgan va o'zbek adabiyotining mashhur va buyuk namoyondalariga aylanishgan. Masalan, Zahiriddin Muxammad Bobur, Alisher Navoiy, Xusayin Boyqaro, Shayboniyxon, Sharof Rashidov va x.k.

O'zbekistonning har bir o'lkasi o'zbek adabiyoti tarixi bilan chambarchas bog'langan. Har bir o'lka yoki joy o'z adabiy traditsiyasiga, yodgorliklariga va muzeylariga ega.

Adabiy o'lkashunoslik bilan shug'illanish adabiyotni xayot bilan bog'liqligini anglashga yordam beradi, yozuvchi ijodi uchun asos bo'lgan muhitni, dalillarni va hodisalarni ko'rishga, uning ijodiy laboratoriyasini ichiga Kirishga, uning ijodiy uslubini, dunyoqarashini, qiziqadigan narsalarini, idealini o'rganishga imkon beradi.

Adabiy o'lkashunoslik o'lkani mamlakatimizni hayoti bilan tarixiy va madaniy aloqalari haqidagi tasavvurlarni mustahkamlaydi.

O'lka adabiyotini o'rganish quyidagi tartibda olib borilishi mumkin:

1. Xalq og'zaki ijodini o'rganish. Bunda quyidagi ishlar amalga oshiriladi.

-cho'pchaklar, afsonalarni, ashulalarni o'rganish. Ular qayerda va qachon aytilgan. Hozir aytiladimi, yo'qmi? Ularni kimdan o'rganishgan yoki kitobdanmi;

-ertaklar va dostonlarni o'rganish. Ertaklar va dostonlar kimlar tomonidan aytilgan. Ularni qanday turlari bor.

-oilaviy udumlar va poeziya. To'ylarda aytiladigan qo'shiqlar. Kelin uydan ketayotganda, kuyovnikiga kelganda, kelin salomda. Kuyovnavkarlarni qiznikiga borganda aytiladigan qo'shiqlar;

-fasllar, ekish va hosil yig'ish bilan bog'liq qo'shiqlar;

-latifalar;

-maqollar va matallar;

-topishmoqlar;

2. Klassik o'zbek adabiyotini o'rganish.

3. Hozirgi o'zbek adabiyotini o'rganish. O'lkadan chiqqan hozirgi adabiyot vakillari ijodini o'rganish. Ularni hayoti va faoliyatini o'rganish.

O'lkashunoslik tadqiqotlarini olib borish davomida o'quvchilar yoki talabalar turli xil manbaalar bilan ishlanadi, turli adabiyotlardan erakli ma'lumotlar yig'iladi va olingan ma'lumotlar taxlil qilinadi

Savol va topshiriqlar:

1. Nima uchun adabiy o'lkashunoslik keng tarqalgan?
2. O'lka badiiy adabiyoti qanday tartibda o'rganiladi?
3. Xalq og'zaki ijodiga nimalar kiradi?
4. Yashab turgan joyingizda qanday afsonalar mavjud?
5. Yashab turgan joyingizda to'ylarda urf-odatga aylangan qanday qo'shiqlar aytiladi?
6. Yashab turgan joyingizda aytiladigan maqollar jadvalini tuzing?
7. Bolalar o'yinlarida yashab turgan joyingizda qanday qo'shiqlar aytiladi. Masalan, Oq terakmi ko'k terak.

25. Tasviriy san'atni o'rganish.

Tasviriy san'at yodgorliklari borliqni statik (qotgan) xolda tasvirlaydi. Tasviriy san'at turlariga rang tasvir(jivopis), skulptura va grafika kiradi. Tasviriy san'at asarlari faqat ko'rish orqali idrok qilinadi.

Rang tasvirda(jivopisda) tekis yuza rasm orqali uch o'lchamli fazo illyuziyasi vujudga keltiriladi. Rang tasvirning ko'rgazmaliligi, tasvirlashning boy imkoniyatlari san'atning Ushbu turiga borliqni obrazli talqin qilishda katta muvaffaqiyatlarga erishishga imkon beradi.

Tasviriy san'at asarlari bizni tabiat, turmush, insonlar munosabati, u yoki bu davrlarda o'lkani tarixiy rivojlanish xususiyatlari haqida tasavvurlarni boyitadi. Shuning uchun u o'lkashunoslikda katta ahamiyatga ega.

Garafik san'at ham o'lkashunoslik ob'ekti sifatida qarilishi mumkin. uning demokratikligi, hamma uchun tushunarli bo'lgani, ommaviyligi (katta nusxalarda ko'paytirish imkoniyatini mavjudligi) uchun o'lkashunoslikda o'z o'rnini egallab bormoqda. O'lkashunoslar grafik san'at bo'yicha juda boy material to'plashlari mumkin. Bunday materiallarga maketlar, kitob, jurnal va gazetalardagi illyustratsiyalar, sanoat grafikasining turlari(etiketkalar, reklamalar, uramalar, upakovkalar, muqovalar va x.k.). san'atlarni ichida grafika xayot bilan chambarchars bog'langan.

O'zini quyidagi o'ziga xos xususchiyatlari bilan grafika ijtimoiy hayotda muhim ahamiyatga ega: operativligi(tezkorligi), voqealarga tezlik bilan o'z munosabatini bildirishda, harakatchanligi, ochiqligi.

Skulpturada (haykaltaroshlik) odam yoki hayvonning ma'lum bir harakat vaqtidagi obrazini tasvirlaydi. Shuning uchun skulptura tamoshabinni intellektiga yo'naltirilgan bo'ladi, emotsiyasiga esa kamroq yo'naltirilgan bo'ladi.

Haykaltaroshlik yodgorliklari, ayniqsa manumental haykaltaroshlik propogandaning kuchli vositalaridan biri hisoblanib o'lkashunoslikda katta ahamiyatga ega. Mazkur haykaltaroshlik asarlarining miqyosi ma'lum davr ruhini aks ettirgani uchun juda muxim g'oyaviy-tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Joydagi manumental haykaltaroshlik yodgorliklarini o'rganish quyidagi tartibda o'rganish mumkin:

- haykalni yaratuvchilari bilan ishlash(haykaltaroshlar va arxetektorlar);
- haykalni yaratish, uni bajarish va o'rnatish tarixi;

- haykalda aks etgan aniq tarixiy shaxslarni kidirib topish ;
- yodgorlikda tasvirlangan tarixiy sharoit va voqealarni tadqiq qilish;
- yodgorlik urnatilgan joyni geografik o'rmini tavsifini tuzish.

Bularni hammasi o'lkadagi mahalliy badiiy adabiyotdan yangi saxifalarni ochadi va turar joydan etishib chiqqan mashhur kishilar hayoti va faoliyati bilan tanishishga yordam beradi.

Tasviriy san'at tili o'ziga xos bo'lganligi uchun uni tushunish adabiy san'atga nisbatan bir oz kiyinroq.

O'lka tasviriy san'at yodgorliklari o'rganib bo'lingandan so'ng xisobot tuziladi. Xisobotda quyidagilar tavsifi keltiriladi:

- o'lka yoki joyda tarqalgan tasviriy san'at yodgorliklari turlari va ularning xaritasi;
- har bir yodgorlikning muallifi va o'rnatish vaqti;
- har bir yodgorlikda aks etgan, tarixiy voqealar va tarixiy shaxslar tavsifi;
- ulka xaqidagi rang tasvir asarlari, ularni yaratilish tarixi, muallifi, rasmda tasvirlangan joy tavsifi;
- o'lkaga tegishli grafika asarlari va ularning namunalari, nashr qilingan yillari va yo'nalishlari.

Savol va topshiriqlar:

1. Tasviriy san'at qanday turlarga bo'linadi?
2. O'lkangiz haqida qanday rang tasvir asarlari mavjud, ularni tavsifini tuzing?
3. O'lkangizda yoki yashash joyingizda qanday haykallar bor, ular qachon urnatilgan va kimlar tasvirlangan?
4. O'lkangiz haqida chiqqan grafik san'at asarlari jadvalini tuzing.
5. O'lkangizdan chiqqan rassomlar bo'lsa ularning biografiasini yozing?

26. Arxitektura yodgorliklarini o'rganish.

Arxitektura yodgorliklari hamma uchun oson va engil tushuniladigan o'lkashunoslik ob'ekti bo'lib hisoblanadi. Chunki har qanday o'lkada yoki joyda albatta u yoki bu turdagi yodgorliklar albatta mavjud. (35-rasm)

Joydagi qadimgi diniy, ijtimoiy, eski qo'rg'onlar va zamonaviy inshootlarni o'rganish o'lka tarixi uchun juda boy material beradi.

Arxitektura asarlari (yodgorliklari) bir paytni o'zida ham moddiy ham ma'naviy yodgorliklar hisoblanadi.

Arxitekturaning muhim vazifasi hayotiy jarayonlar ya'ni mehnat, turmush, ma'daniy dam olish va kishilar munosabati uchun sun'iy muht yaratishdir.

Arxitektura yodgorliklarini ma'lum turlarini rivojlanishi va barpo etilishi ijtimoiy sharoitdan kelib chiqqan holda bo'ladi. Shuning uchun ma'lum bir arxitektura yodgorliklarini o'rganish asosida o'lkaning ma'lum ir tarixiy davridagi ijtimoiy hayoti haqida fikr yuritish mumkin.

Arxitektura turlarini tabiatda analoglari(o'xshashlari) mavjud emas, shuning uchun u tabiatdagi hodisalarni qaytarmaydi va tasvirlamaydi, u faqat davrni asosiy g'oyasini ifodalaydi.

Arxitektura tarixi bu har bir o'lkada tarkib topgan arxitektura usullari va turlari tarixidir. Arxitektura inshootlari shakliga relef, geologik sharoit, iqlim, landshaft va boshqa badiiy sharoitlar muhim ta'sir o'tqazadi. Masalan, arxitektura inshootlarining asosini turlarini geologik sharoit belgilab beradi, tomni turlarini esa iqlim sharoiti belgilab beradi.

Arxitektura yodgorliklari barpo etishda maxalliy materiallarni xususiyatlari hisobga olinadi va ulardan unumli foydalaniladi.

Masalan, O'rta Osiyoda yirik arxitektura yodgorliklarini barpo etishda asosan g'ishtdan foydalanilgan, Kavkazda toshlardan, Qadimgi Rossiyada yog'ochdan foydalanilgan.

Arxitektura yodgorliklari o'lkashunoslik maqsadlarida quyidagi tartibda o'rganiladi.

1. Arxitektura inshootlari turlarini, planlarini, konstruksiyalarini, shakllarini va ularni o'lkada tarqalishini o'rganish.
2. Maxalliy qurilish materiallarini va texnikani o'rganish. Bunda Arxitektura yodgorliklarini bunyod etishda mahalliy materiallardan qay darajada foydalanganligiga katta e'tibor beriladi.
3. Arxitektura yodgorligining vazifasi o'rganiladi. Masalan, Samarqanddagi Go'ri Amir ansabli, buyuk ajdodimiz Amur Temurning maqbarasi hisoblanadi. Madrasalar, machitlar, saroylar, arklar ma'lum bir vazifani bajarish uchun qurilgan.
4. Arxitektura yodgorligini oddiy tavsifini tuzish.
5. Arxitektura yodgorligining bunyod etilish vaqti va sabablari haqida xulosalar qilish.
6. Arxitektura yodgorligini hozirgi xolatiga baho berish. Yangi saqlangan, ta'mirlangan, yodgorlikni faqat bir qismi saqlanib qolgan, tashlandiq xolatdagi yodgorliklarni aniqlash.
7. Arxitektura inshootidan hozirgi paytda foydalanish darajasi: muzey sifatida, idora, ombor, maktab, madrasa foydalanilmaydi.
8. Zamonaviy arxitektura inshootlarini o'rganish(teatrlar, kinoteatrlar, ma'muriy binova va x.k.).

Shundan so'ng o'lka yoki joy arxitektura yodgorliklari haqida xisobot tayyorlanadi. Xisobotda arxitektura yodgorliklari xaritasi va ularning rasmlari albatta bo'lishi zarur.

Savol va topshiriqlar:

1. O'rta Osiyoda qanday arxitektura yodgorliklari keng tarqalgan?
2. O'zbekistonni qaysi shaharlarida qadimgi arxitektura yodgorliklari keng tarqalgan?
3. Yashab turgan joyingizda qadimgi inshootlar bormi, agar bor bo'lsa ularni tavsifini tuzing.

4. Yashab turgan joyingizda qanday zamonaviy arxitektura inshootlari mavjud, ularni tavsifini tuzing.

27. Mashhur kishilar yashagan joylarni o'rganish.

O'lkadan etishib chiqqan mashhur kishilar yashagan joyi, biografiyasi va ijodiy faoliyatini o'rganish o'lkashunoslar uchun juda muhim ma'lumotlar beradi. (36-rasm)

Mamlakatimizning har bir o'lkasi o'zining takrorlanmas madaniy udumlariga va esdalik joylariga ega. Masalan, M.Bexbudiy, Muqimiy, Oybek, Sobir Abdulla, muxammad Yusuf kabi o'zbek adiblarining hayoti va ijodiy faoliyatlarini o'rganish muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Yoki Abdulla Qodiriyning «O'tgan kunlar» romanidagi voqealar bo'lib o'tgan joylar, A.Cho'lponni «Kecha va kunduz» romanida voqealar bo'lib o'tgan joylarni o'rganish o'lkashunoslarga qimmatbaxo malumotlar beradi.

Yozuvchilar va rassomlar yashagan va ijod qilgan joylarda bo'lish va ular bilan tanishish, ularni hayoti va ijodi bilan bog'liq bo'lgan xujjatlarni asl nusxalarini ko'rish o'lkashunoslarda unitilmas xissiyot uyg'otadi.

Mashhur kishilar yashagan joylar va ularni hayoti bilan bog'liq bo'lgan xujjatlarni o'rganish quyidagi turlardan iborat: esdalik joylar, biografik manbaalar. 1. Estalik joylarni o'rganish. Bunday joylar mashhur kishilarning biografiyasi bilan bog'liq bo'lishi mumkin yoki uning asarida sodir bo'lgan voqealar bilan bog'liq bo'lgan bo'lishi mumkin.

Biografik xarakterga ega bo'lgan joylar turli xil ahamiyatga ega bo'ladi. Mashhur kishilarni hayoti bilan bog'liq bo'lgan va memuarlarda va boshqa badiiy asarlarda aks etgan joylar alohida ahamiyatga ega. Mazkur ma'lumotlar rassomning hayoti va ijodini asosiy bosqichlari va davrlarini o'rganishga yordam beradi. Masalan, taniqli o'zbek rassomi Chingiz Axmarovning tabiat manzaralariga bag'ishlangan polotnolari va x.k.

O'lkashunoslik ishlari davomida tarixiy shaxsning hayoti va ijodiga bevosita qatnashish xissi tug'iladi, uning alohida xususiyatlari gavdalana boshlaydi, uning hayotidagi voqealar tushunarliroq bo'lib boradi.

Unitilmas yoki estalik joylar san'at yodgorliklari bo'lib hisoblanmaydi, ammo ular o'lkaning badiiy udumlarini tushunish uchun tasviriy, hayoliy va emotsional ta'surot beradi. Shuning uchun estalik joylar moddiy yodgorliklar sifatida tadqiq qilinishi va qaralishi mumkin.

Mashhur kishilar yashagan joylar ko'pincha o'lkaning madaniy hayotidagi markazlardan biriga aylanib qoladi. Masalan, «Oybek uyi», «G'afur G'ulom uyi», «Chingiz Axmarov uyi muzeiy», va x.k.

2. Estalik joylarning ikkinchi turiga rassomlar va yozuvchilar asarlaridagi voqealar sodir bo'lgan joylar kiradi. Juda ko'p iromanlarda tabiat manzaralari tavsifi berilgan bo'ladi. Estalik joylar turlicha bo'lishi mumkin. tarixiy romanlarda tarixiy janglar bo'lgan joylar. Masalan, Pirimqul Qodirovning «Yulduzli tunlar» romanidagi Bobur mirzo bo'lgan va janglar olib borgan joylar va x.k. O'zbekistonda yirik qurilish ishlariga bag'ishlangan asarlardagi estalik joylarni

o'rganish ham o'lka tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Masalan, Said Ahmadning «Qirq besh kun» romanida Katta Farg'ona kanali qurilishi tasvirlangan. O'shbu kanal hozir ham asar qaxramonlarini hayotini eslatib turadi. Yokm Said Ahmadning «Ufq» romanidagi Markaziy Farg'ona cho'llarini o'zlashtirilishi va x.k.

Demak, mashhur kishilarni hayotini o'rganishda o'lkashunoslar quyidagilarga e'tibor berishlari zarur ekan:

- yozuvchilar, rassomlar tug'ilib o'sgan joylarni o'rganish va ularni iloji bo'lsa davlat tomonidan qo'riqlanadigan joylarga aylantirish. Masalan, Abdulla Qodiriy, Muqimiy va boshqa adiblarni tug'ilgan joylari;
- o'lkadan chiqqan yozuvchilar va rassomlarning asarlarini o'rganish, ularni nushalarini topish va to'plash, biografiyasiga tegishli ma'lumotlarni yig'ish va ularni uy-muzeyini tashkil qilish bo'yicha ishlarini olib borish;
- yozuvchi va rassomlar asarlarida tarixiy voqealar sodir bo'lgan joylarni aniqlash va ularni o'rganish, hamda ular to'g'risida ma'lumotlar yig'ish;
- o'lkadan chiqqan yozuvchi va rassomlarni nomlarini abadiylashtirish bo'yicha ishlarni olib borish;
- o'lkadan chiqqan mashhur kishilarning qarindosh-urug'lari va avlodlarini qidirish, ular bilan suhbatlashish va qo'shimcha ma'lumotlar yig'ish.

Savol va topshiriqlar:

1. O'lkadan chiqqan mashhur kishilar hayoti va ijodini o'rganish qanday qismlardan iborat?
2. O'lkangizdan chiqqan yozuvchilar va shoirlar haqida ma'lumotlar yig'ing.
3. O'lkangizdan chiqqan rassomlar biografiyasini tuzing.
4. O'lkangizdan chiqqan mashhur kishilar asarlarini ro'yxatini tuzing.

II. qism. O'lkashunoslik manbaalari.

Har qanday o'lkaning yoki joyning tabiiy sharoiti, xo'jaligi, aholisi, tarixi, san'ati ma'lum bir manbaalar asosida o'rganiladi. Bunday manbaalarga quyidagilar kiradi: bibliografik; nashriy; statistik; kartografik; arxiv; og'zaki; tarixiy va madaniy yodgorliklar; tabiat ob'ektlari va jarayonlarini kuzatish natijalari.

28. O'lka bibliografiyasi.

O'lka bibliografiyasi deganda o'lka tabiati, aholisi, xo'jaligi, tarixi, madaniyati, san'ati, o'lkadan chiqqan mashhur kishilarhayoti haqida nashr qilingan barcha adabiyotlar majmuasi tushuniladi.

O'lka bibliografiyasining asosiy ob'ektlari bo'lib kitoblar, xaritalar, davriy nashriyot (gazeta jurnal va x.k.) tasviriy san'at asarlari hisoblanadi.

O'lka bibliografiyasi nashriyot turlari, vazifalari, davriyligi, ma'lum bir davrni qamrab olishiga ko'ra alohida guruxlar bo'linadi.

Nashriyot turlari bo'yicha bibliografik manbaalar quyidagi guruxlarga bo'linadi:

- bibliografik ko'rsatkichlar. Ular alohida kitob, risola tarzida nashr qilinishi mumkin. masalan, «Oxangoron vodiysi» bibliografik ko'rsatkichi va x.k;
- maxalliy kutubxonalarining alfavit yoki sistemali katalogi. Masalan, «Andijon viloyati kutubxonasining sistemali katalogi»;
- kitoblar ichidagi adabiyotlar ro'yxati: ma'lum kitobni yozishda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, satrlar ostidagi adabiyotlar(kitoblar) ro'yxati;
- jurnallar ichidagi va jurnallarda berilgan maqolalar oxirida berilgan adabiyotlar ro'yxati(ilmiy to'plamlar, davriy jurnallar, jamiyatlarning axborotnomalari va x.k.) Masalan, «Janubiy O'zbekistonda geografiya maktabining shakllanishi va rivojlanishi», «Farg'ona vodiysining regional ekologik muammolari», «Oxangoron vodiysining hogirgi ekologik sharoiti», «O'zbekiston geografiya jamiyati axborotnomasi», «O'zbekiston geologiya jurnali», «O'zbekiston Fanlar akademiyasi axboroti va .x.k.»;

-alohida maqolalardagi adabiyotlar ro'yxati, taqrizlardagi adabiyotlar tavsifi va x.k.

O'lkashunoslarning qanday kontingentiga mo'jallanganligiga ko'ra adabiyotlar turli ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Ko'p xollarda bibliografik ko'rsatkichlar, kataloglar va ro'yxatlar katta yoshdagi o'quvchilarning keng ommasiga mo'jallangan va ma'lumotnoma xususiyatiga ega. Ammo o'lkani tadqiq etuvchilar uchun maxsus mo'jallangan bibliografik adabiyotlar ham mavjud. Bolalar uchun mo'jallangan bibliografiya adabiyotlar alohida ahamiyatga ega.

Odatda o'lkashunoslikka bag'ishlab chiqarilgan bibliografik nashrlarda faqat mavjud adabiyotlar va ularning qisqa mazmuni, mualliflari ismi sharifi, nashr yili va joy, hamda sahifalar soni beriladi.

O'lkashunoslar uchun tavsiya qilinayotgan bibliografik adabiyotlarda faqat ularning mazmuni tavsifigina berilmaydi, adabiyotlar ro'yxatida berilgan manbaalar mazmuni ham beriladi.

Adabiyotlarning nashrini davriyligiga qarab hozirgi va tarixiy nashrlarga bo'lish mumkin.

Hozirgi o'lka bibliografiyasi muntazxam nashr qilinadi va ularning xronologik chegaralari nashr muddatlari bilan belgilanadi. Ularga quyidagilar kiradi: «Kitob yilnomasi»; «Jurnallar yilnomasi»; o'lka haqida maxalliy nashrlarda chiqadigan bibliografik qursatkichlar.

Tarixiy yoki ilgari o'lka haqida nashr qilingan bibliografik ko'rsatkichlar ma'lum bir davrda chiqqan adabiyotlarni o'z ichiga oladi. Masalan, maxalliy kutubxonalar tomonidan davriy nashr qilib turiladigan bibliografik ko'rsatkichlar.

O'lka bibliografiyasi turli mavzularga bag'ishlangan bo'ladi. Ularni quyidagi guruxlarga bo'lishimiz mumkin:

1. Turli xil adabiyotlarni keng qamrab olgan bibliografik ko'rsatkichlar va adabiyotlar ro'yxati. Unda o'lka har tomonlama va keng qamrovda tavsiflangan bo'ladi. Ular keng o'quvchilar ommasiga mo'jallangan bo'ladi. Ko'p xollarda bunday ko'rsatkichlar ma'lum bir sanalarga, ya'ni yubileylar munosabati bilan chop etiladi.
2. Ma'lum bir tor mavzuga, fanning ma'lum bir tarmog'iga o'lkaning xo'jalik va madaniyatini ayrim jihatlari hamda alohida muammolarga bag'ishlangan bibliografik ko'rsatkichlar. Masalan, o'lka tabiati, xo'jaligi, tarixi, ma'daniyati va san'atiga bag'ishlangan bibliografik ko'rsatlar.
3. O'lka bibliografiyasini katta qismini o'lkadan etishib chiqqan yozuvchilar, shoirlar, rassomlar, olimlar hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan bibliografik ko'rsatkichlar tashkil etiladi. Masalan, Andijon viloyati yosh shoirlari va x.k.

O'lka bibliografiyasining markazi bo'lib viloyat, shahar va tuman kutubxonalari hisoblanadi. Mazkur kutubxonalar o'zida o'lka haqidagi barcha mavjud adabiyotlarni to'plab, ular bibliografik ishlarni amalga oshirishadi, o'lka haqidagi adabiyotlar bibliografik ko'rsatkichlarni tuzishadi, ma'lumotnomani va infarmatsion ishlarni amalga oshiradi, maxalliy nashriyotlar chop etilgan kitoblarni yozishda katta ishlarni amalga oshiradi. Mazkur ishlarning asosini o'lka kutubxonasini ma'lumot-bibliografik apparati tashkil qiladi.

Kutubxonaning bibliografik apparatiga quyidagilar kiradi: kutubxona kataloglari tazimi; ko'rsatkichlar va ma'lumotnomalar; o'lka to'g'risidagi arxiv materiallar.

Barcha viloyat va tuman kutubxonalarida o'lkada nashr qilinadigan adabiyotlarni albatta olishadi hamda Markaziy matbuotda nashr qilinadigan o'lka haqidagi adabiyotlarni ham sotib olishadi.

Tuman va shahar ommaviy kutubxonalarida o'lka haqidagi adabiyotlarni juda katta fondiga ega. Ko'pchilik tuman kutubxonalarida o'lka haqidagi adabiyotlar alfavit va sistemali kataloglarga qo'shib berilgan.

Kutubxonalarining alfavit katalogida adabiyotlar ro'yxati alfavit bo'yicha beriladi. Sistemali kataloglarda esa adabiyotlar alohida predmetlar rubrikalari bo'yicha, uni ichida esa alfavit bo'yicha beriladi.

Deyarli barcha viloyat va tuman kutubxonalarida umumiy kataloglardan tashqari, o'lkaga bag'ishlangan maxsus kataloglar tashkil qilinadi.

Ularda o'lkaga bag'ishlangan kitoblar, to'plamlar, maqolalar va boshqa ma'lumotlar beriladi.

Sistematik kataloglar ichida adabiyotlar predmetlar bo'yicha guruhlashtiriladi. Masalan, «Tabiati va tabiiy resurslari», «Tarixi», «Xalq xo'jaligi», «Adabiyoti», «San'ati» va x.k. ular o'z navbatida yanada maydaroq bo'limlarga bo'linib ketadi.

O'lka haqidagi adabiyotlarga bag'ishlangan kutubxona katalogi annotatsiyalashgan bo'ladi. Annotatsiyalarda faqat asosiy nashriy ma'lumotlar (muallif, kitob yoki maqolaning nomi, nashr joyi va yili, sahifalar soni) berilibgina qolmasdan mazmuni va jihozlanishi (xaritalar, sxemalar, rasmlar, jadvallar haqida ham ma'lumotlar beriladi.)

Ayrim o'lka kutubxonalarida yakuniy katalog ham beriladi. Yakuniy kataloglarda boshqa kutubxonalarining fondlaridagi adabiyotlar ham bo'ladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Bibliografiya deganda nimani tushunasiz?
2. Nashriy manbaalar qanday turlarga bo'linadi?
3. Kutubxonalar kataloglari qanday guruxlarga bo'linadi?
4. Sistematik katalog nima?
5. Alfavit katalogi nima?

29. Bibliografik ko'rsatkichlar va kutubxona kataloglari bilan ishlash.

O'lkashunoslar o'lkani ma'lum bir qismini, alohida tarkiblarini (foydali qazilmalari, tog' jinslari, tuprog'i, o'simligi, xayvonot dunyosi, landshaftlari, relef va boshqalar), aholisi va mehnat resurslari, tabiat resurslari, xo'jaligi, tarixi, san'atni o'rganishdan oldin berilgan mavzu bo'yicha nashr qilingan adabiyotlar yig'iladi, o'rganiladi va taxlil qilinadi.

Zarur bo'lgan adabiyotlar, maqolalar va risolalar kutubxonalarning sistematik va o'lkashunoslik kataloglaridan qidiriladi.

O'lka bo'yicha ma'lum adabiyotlarni qidirishda barcha imkoniyatlardan foydalanish lozim. Masalan, joyning mineral resurslari haqida ma'lumotlarni yig'ish jarayonida quyidagi mavzular bo'yicha sistematik kataloglardan foydalanish mumkin; «Tabiat» (Foydali qazilmalar), «Tabiiy resurslar»(Mineral resurslar), «Sanoat»(Tog'-kon sanoati, undiruvchi sanoat), elektro-energetika sanoati(ko'mir, neft, gaz sanoati), «Metallurgiya sanoati»(qora va rangli metall sanoati), «Qurilish materiallari sanoati»(qurilish xom-ashyosi), «Ximiya sanoati»(mineral o'g'itlar, tuzlar)va x.k.

Sistematik va o'lkashunoslik katalogining har bir bo'limi o'zini indeksiga ega. Indekslar har katalog qutisini etiketkasida ko'rsatiladi. Kutubxonada mavjud bo'lgan har kitob, maqolaga kataloglarning tegishli bo'limlarida ma'lumotlar yozilgan kartochkalar berilgan.

Kerakli kitobni ma'lum bir mavzu bo'yicha alfavitli katalogdan ham qidirsan bo'ladi. Kutubxonadagi har bir ko'rsatkich uchun kartochkalar sistematik va o'lkashunoslik kataloglarining «Bibliografiya» bo'limida berilgan bo'ladi.

Kerakli predmetni va maxsus o'lkashunoslik ko'rsatkichlarini topib, mundarija orqali undagi bo'limlar va boblar bilan tanishiladi, va ularning qaysi biridan berilgan mavzu bo'yicha material olish mumkinligi aniqlanadi. Ko'rsatkichlardagi tegishli bo'limlarni topib va ulardagi bibliografik yozuvlar bilan tanishib, kerakli bo'lgan material topiladi va ular haqidagi ma'lumotlar yozib olinadi. Mavzuli va o'lkashunoslik ko'rsatkichlari bilan birga hozirgi bibliografik nashrlar hamda kutubxona arxividagi bibliografik ma'lumotlar bilan ham tanishish lozim.

Agar o'lkaga tegishli kitobni muallifi nomi va boshqa ma'lumotlarini bilgan holda, uni alfavit katalogidan ham qidirish mumkin.

Agar qidirilayotgan kitob yoki maqola kutubxonada mavjud bo'lmasa, uni yakuniy o'lkashunoslik katalogidan qidiriladi va qaysi kutubxonada borligi aniqlanadi va uni kutubxonalararo abonoment orqali buyurtma berib olish mumkin.

Savol va topshiriqlar:

1. O'lka haqidagi kerakli kitoblar qanday qidiriladi?
2. O'lka dehqonchiligi bo'yicha zarur bo'lgan kitob va maqolalarni kutubxona kataloglarining qaysi bo'limidan qidirish mumkin?
3. O'lka engil sanoati mavzusi bo'yicha kitob yoki maqolalarni kutubxona kataloglarining qaysi bo'limidan topish mumkin?
4. Katalog qutichasida nima bo'ladi?
5. Alfavitli kataloglardan qanday foydalaniladi?
6. Kutubxonada siz izlagan kitob bo'lmasa, uni qayerdan qidirasiz?

30. Nashriy manbaalar.

Nashriy manbaalardagi o'lka tabiati, xo'jaligi, tarixi va san'ati haqida chop etilgan kitoblar, risolalar, maqolalar va hozirgi paytda chiqayotgan ilmiy

jamiatlarning, ilmiy tekshirish institutlarining, oliy o'quv yurtlarining ilmiy to'plamlari kiradi.

Ular o'lka haqidagi asosiy ma'lumotlar manbai bo'lib hisoblanadi. Mazkur kitoblar va maqolalar dastlabki ma'lumotlarni berishi mumkin, ammo ularning ko'pchiligida dastlabki ma'lumotlar qayta ishlanib va umumlashtirib beriladi.

O'lka yoki joy haqidagi bilimlarni yoki ma'lumotlarni o'lka haqidagi maxalliy matbuotda nashr qilingan maxsus adabiyotlardan, markaziy nashrlarda chop etilgan kitob va maqolalardan olish mumkin.

Nashriy manbaalar turlicha bo'ladi. Ularga manografiyalar, to'plamlar, ocherklar, memuarlar, ilmiy va ilmiy-ommobop adabiyot, publistika va ma'lumotnomalar kiradi.

O'lka haqidagi ma'lumotlarni o'rganish va ularni to'plash quyidagi tartibda olib borilishi mumkin:

1. Entsiklopediyalar, ma'lumotnomalar, lug'atlar, staistik to'plamlar, yilnomalarni o'rganish.

Sobiq ittifoq davrida juda ko'p entsiklopediyalar nashr qilingan. Ulardan O'zbekiston uchun eng keraklisi «O'zbekiston entseklpediyasidir». Unda O'zbekistonni barcha viloyatlari, tumanlari, shaharlari tabiati, tabiy resurslari, aholisi, xo'jaligi, tarixi va san'ati haqida ma'lumotnomalar berilgan.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng «O'zbekiston milliy entseklpediyasi» nashr qilina boshlandi. Unda O'zbekistonning barcha o'lkalari va tumanlari haqida to'la ma'lumot berilgan.

O'zbekiston o'lkalari haqidagi ma'lumotlarni «Geografik nomlar lug'ati»dan ham olish mumkin. unda yirik geografik ob'ektlar va shaharlar haqida lo'nda va qisqa ma'lumotlar berilgan.

O'zbekiston va viloyat statistika boshqarmasi tomonidan ko'p yillar davomida «O'zbekiston xalq xo'jaligi» ma'lumotnomasi chop etilgan. Undan o'lkani ko'p yillar davomida xo'jaligi rivojlanishini asosiy ko'rsatkichlarini olish mumkin. Bundan tashqari O'zbekistonni er resurslari xolati, tabiat muxofazasi ishlari xolati, iqlimi haqida ma'lumotnomalar chop etib turiladi. Mazkur ma'lumotlardan daryolarning suv sarflari, harorat, atmosfera yog'inlari, shamollar, er resurslarini haqida ma'lumotlar olish mumkin.

2. O'lka tabiatiga bag'ishlangan adabiyotlar bilan ishlash. Bunda o'lkaning geologik tuzilishi va foydali qazilmalari, relefi, iqlimi, ichki suvlari, tuproqlari, o'simligi, hayvonot dunyosi va landshaftlari haqida ma'lumotlar mavzuli yo'nalishda chop etilgan kitob va maqolalardan olinadi.

O'lkaning geologik tuzilishi «O'zbekiston geologiyasi» kitobidan va o'lka geologiyasiga bag'ishlangan kitob va maqolalardan olish mumkin. Masalan, «Geologicheskoe stroenie sentralnogo Ko'zilkuma», «Ocherk geologii Angrenskogo kaolina-ugolnogo mestorojdeniya» va shunga o'xshash asarlar. O'lka geologiyasini o'rganishda «O'zbekiston geologik jurnali» juda muhim ma'lumotlarni beradi.

O'lka iqlimini o'rganishda ham chop etilgan umumiy va mavzuli kitob va maqolalardan foydalanish mumkin. Masalan, «Klimatagrafiya Sredney Azii», «Klimat goroda Tashkenta» va x.k. O'lka daryolarini o'rganishda maxsus va

umumiy adabiyotlardan foydalanish mumkin(O'rta Osiyo gidrografiyasi, Sirdaryo, Qoradaryo, Amudaryo va x.k.).

O'lka tuprog'i, o'simligi va hayvonot dunyosi bo'yicha ma'lumotlarni «O'zbekiston tabiiy geografiyasi», «O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi», va har bir o'lkaga bag'ishlangan maxsus adabiyotlardan foydalanish mumkin. Masalan, «Rastitelnost Ferganskoy dolino'», «Pochviya Ferganskoy oblasti», «O'zbekiston o'simliklari» va x.k.

O'lka landshaftlari bo'yicha ma'lumotlarni «O'zbekistonni tabiiy geografik rayonlashtirish» manografiyasi va har bir o'lkaga bag'ishlangan kitoblardan foydalanish mumkin. Masalan, «Landshafto` Surxandariyskoy dolino'» va x.k.

O'lka tabiatini o'rganishda turli xil xaritalar va atlaslardan ham keng foydalanish mumkin.

2. O'lka xo'jaligi haqidagi ma'lumotlarni (O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi, O'zbekiston Respublikasi va x.k.) va o'lkaga bag'ishlangan maxsus kitoblardan ham foydalanish mumkin («Andijon viloyati», «Samraqand viloyati», va x.k.). bundan tashqari mavzuli va kompleks iqtisodiy xaritalardan ham muhim ma'lumotlar olish mumkin.

3. O'lka tarixi, madaniyati va san'ati ham umumiy va mavzuli manbaalar orqali o'rganilishi mumkin. Masalan, O'zbekiston tarixi, O'zbekiston me'moriy yodgorliklari, O'zbekiston hunarmandchilik markazlari.

Savol va topshiriqlar:

1. O'lka haqidagi ma'lumotlarni qanday manbaalardan olsa bo'ladi?
2. O'lka tarixini o'rganishda qanday xaritalardan foydalanish mumkin?
3. O'lka tabiiy resurslari haqidagi ma'lumotlarni qanday manbaalardan olish mumkin?
4. O'lka haqidagi nashr etilgan kitoblar va maqolalar ro'yxatini tuzing?

31. Statistika ma'lumotlar.

O'lkani o'rganishda davlat statistika boshqarmasining ma'lumotlari muhim rol o'ynaydi.

Statistika ma'lumotlar quyidagi yo'nalishlarda yig'ilishi mumkin:

Aholi ro'yxatlari natijalari. Har bir davlatda ma'lum bir muddatlar davomida aholi ro'yxatlari o'tqazilib turiladi. Har bir aholi ro'yxati ma'lumotlarni aholi soni, tabiiy ko'payishi, o'lish, tug'ilish, migratsiya, milliy tarkibi, til tarkibi, yosh va jins tarkibi haqida ma'lumotlar beradi. Aholi ro'yxatini odatda 10 yilda bir o'tqaziladi. Uning orasida tug'ilganlar va o'lganlar soni, kelganlar va ketganlar soni haqidagi ma'lumotlar, mahalliy xokimiyat jamiyat bo'limlarida muntazam hisobga olib boriladi.

Korxonalaridagi ishchilar va ularni kasblar bo'yicha taqsimlanishi, o'quvchilar, talabalar, o'qituvchilar soni ham xokimiyat bo'limlarida hisobga olib

boriladi. Aholi ro'yxatlari oralig'idagi ma'lumotlarni maxalliy xokimiyat bo'limlaridan va statistika boshqarmalaridan olish mumkin.

O'lka xo'jaligining rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlarini statistika boshqarmasining quyidagi nashrlaridan olish mumkin: «O'zbekiston xalq xo'jaligi», «Sanoat», «Qishloq xo'jaligi», «Transport», «Tabiat muxofazasi». Bundan tashqari statistik ma'lumotlarni maxalliy va markaziy matbuotdan, korxonalar va maxkamalardan ham olish mumkin. Masalan, iqlim va daryolar ko'rsatkichlari bo'yicha statistik ma'lumotlar «O'zbekiston gidrometeorologiya», markazidan, o'lkada joylashgan meteostantsiyalar va gidropostlardan ham olish mumkin. Har bir fermer xo'jaligining, sanoat va transport korxonasining iqtisodiy ko'rsatkichlari haqidagi ma'lumotlarni mazkur korxonalarni o'zidan olib ularni qayta ishlash mumkin.

Statistik ma'lumotlarni o'lka haqida yozilgan manografiyalar, risolalar va maqolalardan ham olish mumkin. bundan tashqari «Gidrologik yilnomalar», «Iqlim yilnomalari», dan ham foydalanish mumkin.

O'lka tabiati va xo'jaligi haqidagi statistik manbaalar ilk ma'lumotlar hisoblanadi va ularni qayta ishlash asosida o'lka tabiat tarkiblarini va xo'jaligini rivojlanishidagi asosiy xususiyatlar va qonuniyatlar aniqlanadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Statistik manbaalar deganda nimani tushunasiz?
2. Statistik ma'lumotlarni qayerlardan olish mumkin?
3. O'lka xo'jaligi haqidagi ma'lumotlarni qayerlardan olish mumkin?
4. O'lka daryolari va iqlimi haqidagi ma'lumotlarni qanday statistik manbaalardan olish mumkin?
5. O'lka aholisi haqidagi ma'lumotlarni qanday statistik manbaalardan va ularni qayerlardan olish mumkin.

32. Kartografik manbaalar.

Kartografik materiallar ham o'lka haqidagi asosiy bilimlar manbai hisoblanadi. Kartografik manbaalardan o'lka tabiati, xo'jaligi tarixi, madaniyati, san'ati haqida turli davrlarga oid ma'lumotlarni olish mumkin.

O'lkaning ma'muriy tuzilishi haqidagi ma'lumotlarni O'zbekistonni va tegishli viloyatlarni ma'muriy xaritalaridan olish mumkin. Bunda turli davrlarda nashr qilingan ma'muriy xaritalarni taxlili asosida o'lka ma'muriy tuzilishini turli davrlarda o'rganish bosqichlarini ko'rishimiz mumkin. Masalan, ayrim yillari viloyatlar va tumanlar qo'shilib ketishi, ayrim ymlari ayrim tumanlar ikkiga bo'linib ketishi mumkin.

O'lka yoki joyning er yuzasini tuzilishini topografik xarita yordamida o'rganish mumkin. Topografik xaritalarda yirik mashtabda tekisliklar, botiqlar, balandliklar, tog'lar, vodiylar, ko'llar, daryolar, soylar, qishloqlar, ko'chalar aniq ko'rsatiladi.

O'lkaning geologik tuzilishi va foydali qazilmalari haqidagi ma'lumotlarni geologik va foydali qazilmalar xaritalaridan olish mumkin. 1980 yillarda chiqqan O'zbekiston atlasida yoqilg'i-energetika, metali va nometall foydali qazilmalar alohida sahifalarda berilgan. Bundan tashqari viloyat xaritalarida ham foydali qazilma konlari berilgan bo'ladi.

O'lka tabiiy resurslari haqidagi ma'lumotlarni ham ma'lum bir tabiiy resurslar aks etgan xaritalardan olish mumkin. Masalan. Er resurslari, rekreatsiya resurslari va agroiqlim resurslari va x.k.

O'lka iqlimi haqidagi ma'lumotlar iqlim xaritalaridan olinadi. Ular bir necha xaritalardan iborat bo'ladi: yozgi va qishki iqlim xaritalari. O'rtacha yillik harorat, atmosfera yog'inlari, bosimlar, shamollar va boshqa iqlimiy ko'rsatkichlar xaritalari.

Har bir o'lka, tuman yoki joyning tuproq xaritasi tuproqlar haqidagi ma'lumotlar manbai hisoblanadi. Asosiy tuproq turlari tuproq xaritasidan, tuproqlarni sifat ko'rsatkichlari tuproq eroziyasi va tuproq banitrovkasi xaritasidan olinadi.

O'lkaning o'simligi va hayvonot dunyosi va o'lka tabiatini muxofaza qilish, tegishli o'simlik, xayvonot va tabiatni muxofaza qilish xaritalaridan olinadi. Bunda Qizil kitobga kiritilgan o'simlik va hayvonot dunyosiga alohida e'tibor beriladi.

O'lka aholisi haqidagi ma'lumotlar aholi, aholini joylanishi va zichligi xaritalaridan olinadi.

O'lka xo'jaligi haqidagi ma'lumotlar qator iqtisodiy xaritalardan olinadi: kompleks xaritalar, sanoat, qishloq xo'jaligi, transport va boshqa xaritalardan olinadi.

O'lka tarixi turli xil tarixiy voqealar, turli davrdagi siyosiy vaziyat va hozirgi siyosiy xaritalardan olinadi. Ular turli xil tarixiy va geografik atlaslarda o'z aksini topadi.

O'lkadagi turistik komplekslar va dam olish joylari, tarixiy va madaniy yodgorliklar turistik xaritalarda berilgan bo'ladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Xarita deganda nimani tushunasiz?
2. Mavzuli xaritalar qanday bo'ladi?
3. O'lka foydali qazilmalari haqidagi ma'lumotlarni qanday kartografik manbaalardan olish mumkin?
4. Iqtisodiy xaritalar o'lkani nimasini o'rganish uchun asosiy manbaa bo'lib hisoblanadi?
5. Iqlimiy xaritalar orqali o'lkani qanday sharoitlarini o'rganish mumkin?
6. O'lka tarixi, san'ati va madaniyatini qanday kartografik manbaalar asosida o'rganish mumkin?

33. Arxiv va qadimgi yozma manbaalar.

Davlat arxivlari xalq mulkining xujjatli merosini saqlaydigan tashkilot hisoblanadi. Turli ahamiyatga ega bo'lgan xujjatlar arxiv fondlarida saqlanadi. Arxivlar markaziy, viloyat, shahar, tuman bo'limlariga bo'linadi.

Davlat markaziy arxivlarida davlat ahamiyatiga ega bo'lgan xujjatlar saqlanadi. Unda davlat qarorlari, qonunlari, farmonelari va boshqa xujjatlar saqlanadi.

Bundan tashqari har bir vazirlik, qo'mita, boshqarma, korxonalar, tashkilot va muassasalarni o'zini arxivi mavjud. Masalan, Ichki ishlar vazirligi, Mudofa vazirligi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Geologiya qo'mitasi va x.k. Ularda mazkur tarmoqqa tegishli xujjatlar saqlanadi.

Har korxonalar, muassasalar, tashkilotlar ham o'z arxiviga ega. Unda korxonalar faoliyatiga tegishli xujjatlar saqlanadi. Mazkur xujjatlarga buyruqlar, shartnomalar, hisobotlar, yozishmalar va boshqa xujjatlar kiradi. Ilmiy tadqiqot Institutlari va loyiha tashkilotlarida loyihalar, hisobotlar va boshqa xujjatlarning asl nusxalari saqlanadi.

O'lkashunoslar o'lkada joylashgan tashkilotlar arxivlaridan foydalanib o'lka tabiatini, xo'jaligini, tarixi, madaniyati va san'atini o'ziga xos xususiyatlarini saqlashlari mumkin.

Ma'muriy birliklar, ya'ni viloyat, tuman, shahar, qishloq (fuqarolar yig'ini) arxivlaridan ham foydalanishi mumkin. Ularda aholi xo'jalik va boshqalar haqida ma'lumotlar saqlanadi.

Muzeylar (davlat, jamoatchilik, o'lka, badiiy, memorial, tarix, san'at va x.k.), kutubxonalar, mahalliy tarix va madaniyat yodgorliklarini muxofaza qilish jamiyatlari va shaxsiy arxivlar ham mavjud. Ular tarixiy voqea ishtirokchilarining ustaliklari, yirik san'at namoyondalari bilan uchrashuvlar bayonnomalari, xatlar, sa'at asarlari kolleksiyalarining yozma katalogi, sotib oladigan va o'tqazadigan komissiyalarning aktlari, qadimgi xarita va planlar, rasmlar, fotolar, haykallar bo'lishi mumkin.

Qadimgi manbaalar. Qadimgi davrlar haqidagi ma'lumotlarni qadimgi ko'lyozma manbaalaridan olish mumkin. Qadimgi yozma manbalarga kitoblar, yuridik aktlar, buyruq va yorliqlar, yilnomalar, diniy kitoblar, badiiy va ilmiy asarlar kiradi. Ularni ko'pchiligi hozir o'zbek tiliga tarjima qilingan. Masalan, «Quro'ni Karim», «Avesto», «Xadislar», «Hidoyatnoma», Al-Farg'oniy, Al-Xorazmiy, Al-Beruniy, Maxmud Qoshg'ariy va boshqa allomalarning asarlari hozirgi paytda o'zbek tiliga tarjima qilinib nashr qilindi.

Arab alifbosida yozilgan juda ko'p asarlar ham hozirgi o'zbek kirilli va lotin alfavtlari nashr qilindi va qilinmoqda.

Qadimgi yozma manbaalardan o'lka tarixi, tabiati, xo'jiligi, madaniyati haqida muhim ma'lumotlarni olishimiz mumkin.

Ammo hozirgacha ham juda ko'p ko'lyozmalar xali tadqiq qilinmagan, ularni o'rganish va keng xalq ommasiga etqazish o'lkashunoslikning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Arxiv va qadimgi yozma manbaalarni o'lkashunoslik maqsadlarida o'rganish quyidagi tartibda olib borilishi mumkin:

1. O'lka yoki arxivlarda saqlanayotgan xujjatlar ro'yxatini tuzish.
2. Topilgan arxiv manbaalarini tarmoqlar bo'yicha guruhlariga bo'lish: tabiat, tarix, xo'jalik, san'at, madaniyat.
3. Ma'lum mavzu bo'yicha arxiv manbalarini o'rganish. Masalan, o'lka tarixiga bag'ishlangan manbaalarni.
4. O'lkani hozirgi arxiv manbaalari asosida o'rganish.
5. O'lka tabiati, tarixi va madaniyati hamda xo'jaligi haqidagi qadimgi manbaalarni o'rganish. Bunda ularning qaysilari arab, rus va o'zbek tillarida yozilgani aniqlanadi va shunga qarab o'rganiladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Arxiv manbaalariga nimalar kiradi?
2. Arxivda nimalar saqlanadi?
3. Qanday arxiv turlarini bilasiz?
4. Qadimgi qo'lyozmalarni qaerdan topish mumkin?
5. O'lkangizda qanday arxivlar bor, ularni ro'yxatini tuzing?
6. Aholi haqidagi ma'lumotlarni qaysi arxivdan topish mumkin?

34. Og'zaki manbaalar.

Odamlarni bir-biri bilan aloqasi va munosabati qadimdan til orqali amalga oshiriladi. Ma'lumotlarni til orqali o'tishi xalq og'zaki ijodi orqali sodir bo'ladi.

Xalq og'zaki ijodiga ertaklar, dostonlar, qo'shiqlar, maqollar, latifalar va matallar kiradi.

Hozirgi yashayotgan qariyalar xalq og'zaki manbai sifatida qaralishi mumkin. Ularni tarixiy voqealar haqidagi estaliklari (urushlar, tarixiy majlislari, yig'inlarda qatnashishi haqida, buyuk kishilar bilan uchrashuvi haqidagi) muhim og'zaki manbaa bo'lib hisoblanadi.

XX-asrning 80 yillarida sodir bo'lgan Afg'onistondagi voqealar, vatanimizni mustaqqillikka erishgan yillaridagi voqealar, o'sha yillari sodir bo'lgan mintaqaviy mojarolar ishtirokchilarining estaliklari ham o'lka tarixi uchun muhim og'zaki manbaa bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ularni estaliklarini yozib olish, ularni fonotekasini tashkil qilish, ya'ni o'z o'lkasini ovoz yoki matndagi yilnomasini yaratish o'lkashunoslarni kelajak avlod oldidagi muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Har bir o'lkani o'ziga xos ertaklari, dostonlari, qo'shiqlari va afsonalari mavjud. Hozir ham ular og'izdan-og'izga o'tib kelmoqda. Ularni yozib olish, to'plash va nashr qilish ham o'lkashunoslar oldida turgan vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Og'zaki manbaalarning muhim bo'g'inlaridan biri atoqli otlardir. Atoqli otlar bilan juda keng tushunchalar, voqealar va predmetlar ataladi.

Atoqli otlar ilgari o'ziga katta e'tiborni qaratib kelgan. Har bir davlatning, o'lkaning tarixi atoqli otlarda o'z aksini topgan.

Nomlarning shakllanishi va keyinchalik atoqli otlarning tarixi jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti bilan bog'liq.

Atoqli otlarning funksional va til xususiyatlarini onomastika fani o'rganadi. O'lkashunoslar uchun uning ikkita tarmog'i muhim ahamiyatga ega. Ular toponimika va antroponomika hisoblanadi.

Toponimika (grekcha topos-joy, «anima»-ot, nom) fanning predmeti joy nomlarini kelib chiqishi, mazmuni va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi.

Antroponomika esa kishilarni nomlarini (otlarini) o'rganadi.

Toponimika fani tarix va geografiya o'rtasida oraliq fan hisoblanadi. Akademik S.B.Veselovskiy bu haqda shunday degan «Tarixiy davr nuqtai nazaridan toponimika geografik terminlarni kelib chiqishini, hozir mavjud bo'lmagan qadimgi manzilgohlarni joyini aniqlaydi, bir terminni boshqasi bilan almashtirish va o'zgartirishni o'rganadi. Demak, tarixiy toponimika geografik toponimikaning muhim ajralmas qismi hisoblanadi.»

Geografik nomlar kelib chiqishiga ko'ra quyidagi guruxlarga bo'linadi: oronimlar, gidronimlar, antroponimlar, fitonimlar, zoonimlar va x.k.

Oronimlar tog'lar bilan yoki relef bilan bog'liq bo'lgan joy nomlari hisoblanadi. Beltog', Pskom, Nurota va x.k.

Gidronimlar suv bilan bog'liq bo'lgan joy nomlaridir. Ularga Qoradaryo, Sirdaryo, Amudaryo va boshqalar kiradi.

O'simliklar nomi bilan bog'liq bo'lgan nomlarga Yakkatut, Qorabog', Ko'kyong'oq va boshqalar kiradi.

Hayvonlar nomi bilan bog'langan geografik joylarga G'azalkent(G'azalkiyik), Qo'ng'iroq, Olabuqa va x.k lar kiradi.

Ranglar bilan atalgan joylar ham mavjud. Masalan, Qizilqum, Qoraqum, Qoratog' va x.k.

Antroponomika odamlarning nomlarini va avlodini kelib chiqishini aniqlab beradi. Masalan, o'zbeklarda xo'ja, xoji, said, amir, xon, shox, qori avlodlariga xos ismlar mavjud. Masalan, Qodirxo'ja xo'ja avlodiga, Qodirxoji xajga borgan kishiga, Saidqodir saidlar avlodiga, Shoqodir-shoxlar avlodiga, Mirqodir-amirlar avlodiga tegishli ekanligini bildiradi.

Savol va topshiriqlar:

1. Og'zaki manbaalarga nimalar kiradi?
2. Toponimika fani nimani o'rganadi?
3. Odamlar ismini qaysi fan o'rganadi?
4. O'z yashab turgan joylaringizdagi joylar va ko'chalar jadvalini tuzing va ularni ma'nosini aniqlang?

35. Tarixiy va madaniy yodgorliklar o'lkashunoslik manbai sifatida.

Tarixiy va madaniy yodgorliklar faqat o'lkashunoslik ob'ekti bo'lib qolmasdan, balki o'lkashunoslik manbai sifatida ham qaraladi. Chunki ular ma'lum bir ijtimoiy munosabatlar maxsuli sifatida insoniyat faoliyatini aniq bir jihatlarini bevosita aks etdiradi.

O'lka haqidagi muhim bilimlar manbai bo'lib san'at asarlari hisoblanadi. San'at yodgorliklarida buyuk tarixiy voqealar va o'lka tarixining buyuk namoyondalari, ona-vatan tabiati tasvirlari, shaharlar va qishloqlar qiyofasi abadiylashtirilgan.

Badiy asarlar ma'lum bir davrning o'ziga xos jihatlarini aniq tasvirlanishi bilan ajralib turadi. Va o'lka haqidagi muhim bilimlar manbai bo'lib hisoblanadi. Masalan, o'lka tarixi tabiati, madaniy va iqtisodiy rivojlanishi, turmushi mayda ikir-chikirlarigacha (kiyimlar, turmush predmetlari, sochlarni turmaklash) aniq tasvirlaydi. Bunday aniq tasvirni biz Abdulla Qodiriyning «O'tgan kunlar», Abdulhamid Cho'lponning «Kecha va kunduz», Maxmudxo'ja Bexbudiyning «Sayohatnoma» asarlarida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

O'lka arxitekturasini o'lkani toshlarda ifodalangan tarixi deyishadi. Chunki shahar yoki qishloqdagi har bir inshoot o'lka tarixini ma'lum bir davrdagi jihatlarini o'zida ifoda etdiradi. Masalan, Toshkent shahridagi Ko'kaldosh madrasadi, Navoiy nomidagi opera va balet teatri, Toshkent traktor zavodi, Toshkent aviatsiya zavodo' va x.k.

Arxitektura yodgorliklari- bu jamiyatning moddiy va manaviy hayoti bilan chambarchas bog'langan va ularni o'zida aks etdirgan, o'zini barpo bo'lish joyi bilan bog'liq bo'lgan ilk manba hisoblanadi.

Ularni o'rganish jamiyatni ishlab chiqarish kuchlarini rivojlanishi, uning ijtimoiy tuzilishi va iqtisodi, ilmiy va texnik tuzilishi va iqtisodi, ilmiy va texnik yutuqlari haqida fikr yuritishga imkon beradi.

Arxitektura yodgorliklarining konstruksiyalari, shakllari, dekorativ jihozlanishi mazkur davrning estetik muhiti, turmush tarzi, ularni yaratgan ustalarni badiiy maxorati va xususiyati, turli xil arxitektura maktablarining xalqaro aloqalari va o'ziga xos xususiyatlari haqida bilimlar beradi. Shuning uchun o'lkashunoslar shahar va qishloqlardagi qadimiy binolarni, ko'chalarni muxofaza qilish bo'yicha katta ishlarni olib borishadi.

Buyuk kishilarni va voqealarni abadiylashtirish uchun yaratilgan kichik o'lchamdagi skulptura va arxitektura yodgorliklari alohida guruxlarni tashkil qiladi: monumentlar, obelisklar, kolonnalar, trimfual arklar, yodgorlik plitalari, qabr ustidagi materiallar va komplekslar va x.k. bularning hammasi xalqning tarixi va biografiyasining moddiylashgan shaklidir.

Grafik san'at yodgorliklari yaratilgan davr zamonasi bilan qattiq bog'langan bo'ladi, shuning uchun ular muhim tarixiy voqealar manbai bo'lib hisoblanadi. Ularga turli xil plakatlar, kitoblar, jurnallar va gazetalardagi bezaklar kiradi.

Badiy san'at o'lka haqidagi muhim bilimlar manbai bo'lib hisoblanadi. Masalan, Mirzakalon Ismoilovning «Farg'ona tong otguncha», Oybekning «Qutlug' qon», Said Ahmadning «Ufq» va shunga o'xshash badiy asarlar xalqimizning ma'lum bir o'lkasidagi tarixini va tarixiy voqealarini aks ettiradi va o'lka tarixi haqida muhim bilimlar manbai bo'lib hisoblanadi.

Turli xil markalar, belgilar, tangachalar va gulxatlar ham muhim o'lkashunoslik manbai bo'lib hisoblanadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Yashab turgan joyingizda qanday tarixiy yodgorliklar mavjud?
2. Shahringiz yoki qishlog'ingizda qanday qadimgi yoki eski binolar bor, ularni tafsifini tuzing?
3. O'lkangiz haqida qanday badiiy adabiyotlarda, roman, qissalar, ma'lumotlar berilgan, ularni muallifi, nomi, nashriyoti va chop etilgan yillarini daftaringizga yozing?
4. O'lkangiz haqida chiqqan plakatlar, gulxatlar bo'lsa ularni albomini yarating?
5. O'lkangizdan chiqqan mashhur kishilar haqidagi asarlar jadvalini tuzing?
6. Shahringiz yoki tumaniningdagi tarixiy maydonlar tarixini aniqlang?

36. Tabiat va xo'jalik ob'ektlari hamda jarayonlarini kuzatish natijalari o'lkashunoslik ob'ekti sifatida.

O'lkashunoslik bilimlarining asosiy manbai bo'lib ekskursiyalarda, turistik sayohatlarda va ekspeditsiyalarda tabiiy va ishlab chiqarish ob'ektlarini hamda jarayonlarini bevosita kuzatish asosida olingan natijalar hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotlar ikkita katta guruxga bulinadi: tabiiy geografik va iktisodiy geografik.

Tabiiy geografik tadqiqotlar geologik, geomorfologik, makroiqlim, biologik, fenologik va ekologik kuzatishlar natijalaridan iborat.

Dalada olib borilgan ishlarning barchasi kundalikka qayd etib boriladi. Shuning uchun o'lkashunoslik bilimlarining ilk manbai bo'lib, o'lkashunoslar kundaligi hisoblanadi.

Kundalikda qayd etilgan ma'lumotlarni qayta ishlash asosida o'lka tabiati haqida bilimlar to'planadi va ularning muhim qirralari ochib beriladi.

Geologik tadqiqotlar olib borilganda quyidagi natijalar olinmog'i lozim: o'lkada tarqalgan tog' jinslari va ularning qaysi era va davrga oidligi; qaysi yotqiziqlar qaerlarda tarqalganligi, ularning qalinligi; o'lkada mavjud bo'lgan ochilmalarning sxemasi va ulardagi tog' jinslari qatlamlarining tavsifi; o'lkada tarqalgan tektonik yoriqlar tavsifi (uzunligi, kengligi, yoriqda joylashgan tog' jinslari xolati, yo'nalishi va qiyaligi); o'lkada tarqalgan foydali qazilmalar tavsifi.

Geomorfologik tadqiqotlar olib borilganda quyidagi natijalar olinadi: o'lkada yoki joyda tarqalgan asosiy relief shakllari; o'lkada tarqalgan tekisliklar tavsifi va ularning asosiy turlari; o'lkada tarqalgan tog'lar tavsifi; o'lkada tarqalgan vodiylar va ularning terrasalari; o'lkadagi botiqlar; o'lkadagi geomorfologik yuzalar(erozion-akkumulyativ bosqichlar).

Iqlimiy tadqiqotlar natijalari havo harorati, namligi, bosimi. Yog'inlar, shamollar va ularni oylar va yillar bo'yicha taqsimotidan iborat. Hidrologik tadqiqotlar natijalariga daryolar, ko'llar, botqoqlar va ularning me'yori haqidagi ko'rsatkichlar kiradi.

Tuproqlarni tadqiqot natijalari quyidagilardan iborat: o'lkada tarqalgan tuproq xillari; ularning gorizontlar bo'yicha tavsifi; chirindi miqdori.

O'simliklarni tadqiq qilganda quyidagilarni xisobga olish lozim: daraxtlar va ularning o'lchamlari; butalar va ularning tavsifi; o't o'simliklari va ularning tavsifi. Xayvonot dunyosini tadqiq qilganda quyidagilarga e'tibor beriladi: tuyoqlilar, sudralib yuruvchilar, baliqlar, qushlar, hashoratlar.

O'lka xo'jaligini o'rganish jaryonida quyidagi statistik ma'lumotlar yig'iladi: o'lkadagi ma'muriy birliklar haqidagi ma'lumotlar; aholi soni, tarkibi, o'sishi va harakati haqidagi statistik ma'lumotlar; tabiiy resurslar va ularning ko'rsatkichlari haqidagi ma'lumotlar; xo'jalikni rivojlanishini umumiy ko'rsatkichlari haqidagi statistik ma'lumotlar; sanoat, qishloq xo'jaligi va transportning asosiy tarmoqlari bo'yicha berilgan statistik ma'lumotlar.

Savol va topshiriqlar:

1. O'lkangizda yoki yashab turgan joyingizda qanday tabiiy geografik ob'ektlar mavjud? Ularni jadvalini tuzing.
2. Yashab turgan joyingizda qanday tabiiy geografik jarayonlar tez-tez sodir bo'lib turadi (toshqin, sel, jala, jar, surilma, sovuq urish, qurg'oqchilik)?
3. O'lkangizda yoki yashab turgan joyingizda qanday ishlab chiqarish korxonalari mavjud? Ularni jadvalini tuzing.
4. Yashab turgan joyingizda transport korxonalari mavjud bo'lsa, ularni asosiy ko'rsatkichlarini aniqlang?
5. Yashab turgan joyingizda qishloq xo'jalik maxsulotlarini qayta ishlaydigan korxonalar mavjud bo'lsa, ularni ko'rsatkichlarini aniqlang?

37. O'lkashunoslik muzeyini tashkil qilish.

O'lkada olib borilgan tadqiqotd ishleri davomida to'plangan materiallar asosida o'lkashunoslik muzeyi tashkil qilinadi. O'lkashunoslik muzeyi maktablarda, litseylarda, kasb-hunar kollejlari hamda xokimiyat doirasida tashkil qilinishi mumkin.

O'lkashunoslik muzeylarining asosiy maqsadi o'lka tabiati, xo'jaligi, tarixi, madaniyati va san'ati haqidagi materiaallarni to'plash, o'rganish, saqlash va namoyish qilishdan iboratdir.

O'lkashunoslik muzeyini tashkil qilish bir necha quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Muzeyni tashkil qilish bo'yicha tashkiliy gurux tuzish. Tashkiliy guruxga xokimiyat, maktab, litsey, kasb-hunar kollejlari vakillari kiradi. Agar muzey o'quv muassasasida tuzilayotgan bo'lsa, asosan o'qituvchilar va o'quvchilardan tashkiliy gurux tuziladi.
2. Muzeyning tematik (mavzuli) rejasi tuziladi, ya'ni bo'lajak muzey ekspozitsiyalarining bo'limlari soni aniqlanadi.

Bunday xujjatni tuzish muzeyini tashkil qilish ishlarini aniq bir yo'nalishda olib borishga imkon beradi.

3. Qidiruv va ilmiy tadqiqod ishlarini olib borish. Mazkur bosqichda o'lka tabiati, tarixi, xo'jaligi, madaniyati va san'ati to'g'risidagi materiallar yig'iladi, o'rganiladi, tartibga solinadi va ro'yxati tuziladi.

4. Muzeyning tematik-ekspozitsion plani tuziladi. Ekspozitsiyaga kiritilayotgan barcha materiallarni ketma-ketlik ro'yxati tuziladi. Mazkur plan muzey zallari, bo'limlari va stendlari bo'yicha tuziladi. Mazkur plan quyidagi jadval shaklida tuzilishi mumkin.

Jadvalning ikkinchi qatorida eksponatning tashqi ko'rinishi ko'rsatiladi (matn, ko'chirma, gazeta, bayroq, to'pponcha, kiyim, fotorasm, kitob, risola, xarita, tuproq, o'simlik, ishlab chiqarish maxsulotlari, foydali qazilma namunalari, maketlar va x.k.) uchinchi qatorda eksponatning mazmuni beriladi (ko'chirmaning to'la matni, nomi va nashr haqida ma'lumotlar, bayroqni, kiyimni, namunani va x.k.ni to'la tavsifi). Beshinchi qatorda eksponat olingan manbaalar beriladi (ko'chirma qaerdan olingan, foydali qazilmalar namunalari qaerlardan olingan). Ekspонатning o'lchamlari 6-nchi qatorda beriladi, ular asosida eksponatga ajratiladigan joylarning o'lchamlari aniqlanadi. 7-nchi qatorda tematik-ekspozitsion rejani tuzuvchilar ma'lum bir eksponatlarni joylashtirish haqida tavsiyalarni ishlab chiqishadi (markazdami, yiriklashtirilgan xalqadami, vitrinadami va x.k.)

5. Tematik-ekspozitsion reja asosida rassom (yoki shu ish uchun tayinlangan shaxs) jihozlash eskizlarini tayyorlaydi. Bunda u binoni tuzilishini hisobga olishi lozim. Shundan so'ng har bir devor, stend va vitrina uchun montaj jihozlari varaqalarini tayyorlaydi. Montaj varaqasi-bu ma'lum bir eksponatni joylashtirishni chizma tasviridir, U 1:10 mashtabda tayyorlanadi.

Kvadratlarda eksponatning tematik-ekspozitsion rejadagi tartib raqami yozib quyiladi.

Mazkur bosqichdagi ishlarni bajarish bilan birga quyidagi ishlar ham olib boriladi: ekspozitsiya uchun jihozlar (vitrinalar, stendlar), yoritish usulari, asl nusxalarini saqlash; yordamchi eksponatlarini tayyorlash (rasmlar nusxalari, chizmalar, mulyajlar, matnlar va x.k.)

Shundan so'ng ekspozitsiya montaj qilinadi va u ma'suliyatli komissiya tomonidan ko'rib chiqiladi.

O'lkashunoslik muzeyining asosiy va yordamchi fondlari bo'ladi.

Asosiy fonda yodgorliklarning asl nusxalari saqlanadi va ular quyidagi guruxlarga bo'linadi:

1. Moddiy yodgorliklar (mehnat qurollari, sanoat jixozlari, foydali qazilma namunalari, harbiy texnika, kiyimlar va x.k.)

2. Yozma materiallar (nashriy va ko'lyozma xujjatlar, varaqalar, kitoblar, gazeta, jurnallar va x.k.)

3. Fotorasm va kinofoto xujjatlarining asl nusxalari.

4. San'at asarlari va grafik hamda tasviriy materiallarning asl nusxalari: kartinalar; rasmlar; skulpturalar; plakatlar; gulxatlar; markalar; planlar; xaritalar; chizmalar; grafiklar; fotomateriallar.

Muzeyning yordamchi fondlari quyidagilardan iborat: dioramalar; panoramalar; xaritalar; chizmalar; jadvallar; diagrammalar va x.k. Ular asosiy eksponatlarni tushuntirish uchun muxsus tayyorlanadi.

Muzeyning fondi doimo to'ldirilib boriladi.

Savol va topshiriqlar:

1. O'lkashunoslik muzeyini tashkil qilish qanday bosqichlardan iborat?
2. Muzeyning asosiy fondida nimalar saqlanadi?
3. Muzeyning yordamchi fondida nimalar saqlanadi?
4. Yashab turgan joyingizda o'lkashunoslik muzeyi bo'lsa uni tavsifini tuzing

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T. "Sharq", 1991
2. Abduvohidov S. Maktab o'lkashunosligi. (ma'ruzalar matni) Samarqand, 2001
3. Abdullaeva T. Geografik o'lkashunoslik. T. "O'qituvchi", 1979
4. Abdumalikov R. Turizm. T. "O'qituvchi", 1978
5. Aksakalova G.P., Andreeva N.V., Golov V.P. Fakultativno`e zanyatiya po geografii. M. «Prosvehenie», 1985
6. Aleksandrova A. Yu. Geografiya mirovoy industrii turizma. M. 1998
7. Bagrova L. A. , Bagrov N. V. , Preobrajenskiy V.S. Rekreatsionno`e resurso`. Izv. RAN, serr.geogr. M. 1997 №2
8. Baratov P.B. Er bilimi va hlkashunoslik. T. "O'qituvchi", 1990
9. Baxritdinov B.A. Tetyuxin G.F. Unikalno`e ob`ekto` nejo`voy prirodo` i ix oxrana. T. "Fan", 1990
10. Bogdanov O.P. Po zapovednikam Uzbekistana. T. "O'qituvchi", 1989
11. Darinskiy V., Krivanosova L.N., Kruglova V.A., Lukashenkova V.K. Kraevedenie. M. «Prosvehenie», 1987
12. Efremov Yu.K. Priroda na slujbe obhestva. M. 1968
13. Kuznetsov S. S. Geologicheskie ekskursii. L. 1978
14. Milonov N.P. i dr. Istoricheskoe kraevedeniya. M. 1969
15. Molodkin P. F. Shkolnoe geograficheskoe kraevedenie. Rostov. 1977
16. Metodika polevo`x fiziko – geograficheskix issledovaniy. M. 1976
17. Nikonov G. N. Kraevedenie. M. 1984
18. Preobrajenskiy V.S., Vedenin Yu.A. Geografiya i otdo`x. M. 1971
19. Nexlyudova A.S., Sevastyanova V.I., Filonenko-Alekseeva A.L. Polevaya praktika po prirodovedeniyu. M. "Prosvehenie", 1986
20. Safiullin A. Z. Geograficheskoe kraevedenie v obheobrazovatelnoy shkole. M. 1979
21. Turistko – kraevedteskie krujki v shkole. M. «Prosvehenie», 1988.

22. Stroeв K.F. Kraevedenie. M. "Prosvehenie", 1974
23. Yunev I.S. Kraevedenie i turizm. M. 1974
24. O'zME. 1-12jildlar.